

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UO‘K: 371.1: 821.512.133 Ha6ouÿ

ISHONXANOVA IRODA ABDUVAXITOVNA

**TA‘LIM TIZIMIDA ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI
O‘RGANISHGA INNOVATSION YONDASHUV
(5–9-sinflar misolida)**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek adabiyoti)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
ILMIY DARAJASINI OLIISH UCHUN YOZILGAN
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: A. Erkinov,
filologiya fanlari
doktori, dotsent

CHIRCHIQ – 2023

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. MAKTABDA ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI	
1.1-§. Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘qitish pedagogik muammo sifatida	14
1.2-§. Umumiy o‘rta ta’limda Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘qitishning bugungi holati	25
Birinchi bob yuzasidan xulosalar	43
II BOB. ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	
2.1-§. Alisher Navoiy hayoti va ijodini zamonaviy yondashuvlar asosida o‘qitish mazmuni.....	45
2.2-§. Alisher Navoiy ijodini innovatsion yondashuv asosida o‘qitish mazmuni, metod va vositalari.....	59
Ikkinchi bob yuzasidan xulosalar.....	90
III BOB. ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH SAMARADORLIGI	
3.1-§. Tajriba-sinov va uning natijalari	92
3.2-§. Tajriba-sinov ishlari tahlili.....	98
Uchinchi bob yuzasidan xulosalar.....	117
Xulosa.....	119
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	122
Ilovalar	134

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, o'z navbatida, fan va ta'lim taraqqiyotiga ham ta'sir o'tkazmoqda. Sharq va g'arb davlatlarida adabiyotni o'qitishning muhim va samarali masalasi sifatida o'quv darsliklari uchun didaktik materiallar tanlash, ta'lim jarayoniga ilg'or shakllarni va usullarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilib, yangicha innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha tajribalar o'tkazilmoqda. Amerika, Turkiya, Germaniya, Vengriya, Fransiyada Alisher Navoiy ijodini qiyosiy aspektda o'rganish, asarlari mazmuni, muallifning g'oyaviy maqsadini anglash yetakchi o'rinda turadi.

Dunyo tajribasida milliy adabiyotni o'qitish mashg'ulotlari turli zamonaviy metodlar asosida olib borilmoqda. Milliy mentalitetning shakllanishida mumtoz adabiyotning, jumladan, millat mutafakkirlarining asarlarini o'qitish orqali xalq ma'naviyati va tafakkurini rivojlantirish asosiy masala hisoblanadi. Dunyo mamlakatlarida ham taraqqiyotga erishish, yoshlarning mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun mumtoz adabiyot namunalaridan samarali foydalanishga oid turk, fors-tojik, o'zbek, rus, ingliz, nemis olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda adabiyot fanini o'qitishda ham tayanch hamda o'quv predmetiga oid kompetensiyalar negizida har bir fanga doir alohida ko'nikma, mezonlar belgilanib, amaliyotga joriy qilindi. Bugungi kun adabiy ta'limida o'qish savodxonligi, tanqidiy-kreativ fikrlash, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda, dastur va darsliklar mazmuni takomillashtirilmoqda. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini

safarbar etamiz”¹, – deya ta’kidlashi adabiy ta’lim oldiga mamlakatimiz yoshlarini o’z millatining daho ijodkorlarini, xususan, Alisher Navoiy dahosi va uning asarlari mazmun-mohiyatini puxta anglaydigan avlodni tarbiyalash adabiy ta’lim oldidagi asosiy vazifalardan biri ekanini ko’rsatib turibdi. Alisher Navoiy hayoti va ijodini bugungi kun talabi hamda o’quvchi ehtiyojidan kelib chiqqan holda innovatsion yondashuvlar asosida o’qitish, mavjud ta’lim mazmuni va metodikasini boyitish orqali o’quvchida adabiy muloqot ko’nikmasini to’la shakllantirishga erishish, asardan o’rganganlarini amaliyotda qo’llay olish kompetensiyasini rivojlantirishga oid o’quv materiallari bilan metodik jihatdan ta’minlash ishlarini takomillashtirish ehtiyoji mavjud.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to’g’risida”gi PF-4797-sonli, 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy o’quv yurtidan keyingi ta’limni yanada takomillashtirish to’g’risida”gi PF-4958-sonli, 2019-yil 21-oktyabrdagi “O’zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5850-sonli, 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o’zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-2909-sonli qarori, O’zbekiston Respublikasining 2020-yil 19-mayda qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni, shuningdek, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19-oktyabrdagi PQ-4865-sonli “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to’g’risida”gi qarorining 8-bandini ijrosini ta’minlash, mazkur

¹ Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. –14-б.

faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiy ta'limni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali adabiy ta'lim sifatini oshirish muammolari O.Madayev, Q.Yo'ldoshev, S. Matchon, B.To'xliyev, M. Mirqosimova, R.Niyozmetova, T.Niyazmetovalar tomonidan asoslab berilgan; M.Hazratqulov, G.Fayzullayevalar tomonidan pedagogik texnologiyalar bo'yicha egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llash masalalari o'rganilgan; N.Azizxodjayeva, N.Saydaxmedov, A.Xodjaniyazovalarning ishlarida esa pedagogik mahoratni namoyon etish usullari batafsil tadqiq etilgan. G.Rahimova, A.Hasanova, A.Zunnunovlar Alisher Navoiy hayoti va ijodining umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganilishiga e'tibor qaratishgan². Q.Yo'ldoshev, M.Mirqosimova, B.To'xliyev, T.Niyazmetova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, V.Qodirov kabi olimlar adabiyot o'qitish metodikasi masalalariga oid ilmiy ishlarida mumtoz adabiyot namunalari, xususan, Alisher Navoiy asarlari tahlili masalalariga ham alohida to'xtalib o'tishgan³.

² Рахимова Г. Алишер Навоийнинг ҳаёти ва ижодини саккиз йиллик ўзбек мактабларида ўрганиш: Пед.фан. номз. ... дисс. Тошкент, 1966. – 243б. Хасанова А. Изучение жизни и творчества Алишера Навои в старших классах узбекских школ: Автореф. дисс. канд. пед. наук. Ташкент, 1974. – 34с. Хасанова А. Юқори синфларда Алишер Навоий ҳаёти ва ижодини ўрганиш. Пед.фан. номз. ...дисс. Тошкент, 1974. – 176б. Хасанова А., Зуннунов А. Мактабда Алишер Навоийнинг ҳаёти ва ижодини ўрганиш. Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 88б.

³ Ўлдошев Қ. Янгиланган тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. докт. ... дисс. Т, 1996. – 312б. Ўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 152б. Ўлдошев Қ. Адабий сабоқлар. Методик қўлланма. Умумтаълим мактабларининг 7-синф "Адабиёт" дарслиги учун. – Тошкент: Билим, 2003. – 144б. Мирқосимова М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари: Пед. фан. докт. ... дисс. Тошкент, 1995. – 255б. Мирқосимова М. Ҳозирги ўзбек адабиёти намуналарини шарҳлаб ўқитиш. – Тошкент: ТДПУ, 2015. – 184б. Хусанбоева Қ. Ўзбек адабиётини таълим давлати тилидан бошқа тилларда олиб бориладиган мактабларда ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. номз. ... дисс. Т, 1997. – 175б.

A. Abdumannotov tadqiqot ishida “Hayrat ul-abror” hikoyatlariga e’tibor qaratgan bo’lsa, M.Sariboyeva Alisher Navoiyning epik asarlarini o’rganishga to’xtalgan ⁴. A.Erkinov, D.Yusupova, O.Tojiboyeva, A.Hayitova, I.Salimov, B.Murtazoyev, A.Qurbonov, I.Ismoilov, R. Toshniyozova va boshqa bir qator olimlar bevosita “Xamsa” dostonlari, I.Pardayeva va D.Abdualiyeva Navoiyning tarixiy asarlari ustida tadqiqot olib borishgan; N.Ahmedov hamda E.Nasrullayev Alisher Navoiy shaxsiyatiga, I.Husanxo’jayev, M.Muhiddinov, H.Hamroyeva, F.Nizamovlar Navoiy ijodiga ma’naviy jihatdan yondashganlar; K.Mullaxo’jayeva hamda N.Ramazonov tasavvuf nuqtayi nazaridan tadqiqot olib borishgan; O.Davlatov Qur’on va hadis, A.Razzoqov esa ilm-ma’rifat masalalari bilan bog’lagan holda ilmiy tadqiqot olib borganlar⁵. Yuqorida nomlari keltirilgan hamda

Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. докт. ... дисс. Т, 2006. – 263б. Хусанбоева Қ. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – 368б. Ниёзметова Р. Ўзлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методик асослари (рус гуруҳлари мисолида): Пед. фан. докт. ... дисс. Тошкент, 2007. – 243б. Ниязметова Т. Адабиёт дарсларида мустақил ишлар. Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 64б. Хусанбоева Қ., Ниёзметова Р. Адабиёт ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. Тошкент: Инновация-Зиё, 2020. – 326б. Тўхлиев Б. Навоий ғазаллари(насрий баён, шарҳ ва изоҳлар). – Тошкент: Баёз, 2015. То’хлиев ва б. Alisher Navoiy hayoti va ijodi(albom). – Toshkent: Bayoz, 2013. – 56b. То’хлиев ва б. Ta’lim bosqichlarida Alisher Navoiy asarlarini o’rganish. – Toshkent: Bayoz, 2017. – 208b. Кадиров В. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёт намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. докт. ... дисс. Наманган, 2019. – 397б.

⁴ Абдumannotov А. М. Алишер Навоий мероси асосида бошланғич синф ўқувчиларининг маънавий тушунчаларини шакллантириш (“Хайрат ул-аброр” дostonи мақолотлари мисолида): Пед. фан. номз. ... дисс. Тошкент, 2004. – 136б. Сарибоева М. Умумтаълим мактабларида Алишер Навоий эпик асарларини замонавий усулларда ўргатиш (“Хамса” асари асосида): Пед. фан. номз. ... дисс. Тошкент, 2011. – 163б.

⁵ Эрkinov А.С. Мастерство Алишера Навои в создании пейзажа(на примере поэмы “Садди Искандари”): Автореф. дисс... канд. филол. наук. Ташкент, 1990. – 23с. Эрkinov А.С. Алишер Навоий “Хамса”си талкинининг XV-XX аср манбалари: Филол. фан. докт. ... дисс. Тошкент, 1998. – 282б. Юсупова Д. Алишер Навоий “Хамса”сида мазмун ва ритмининг бадиий уйғунлиги: Филол. фан. номз. ... дисс. Тошкент, 2008. – 132б. Тожибоева О. Навоий “Хамса”сининг насрий баёнлари: принциплари, мезонлари, усуллари: Филол. фан. бўйича фалс. докт.(PhD)... дисс. Тошкент, 2019. – 166б. Хайитова А. Алишер Навоий “Хамса”сини насрийлаштириш: анъана, табдил ва талқин. Филол. фан. номз. ... дисс. Тошкент, 2000. – 168б. Салимов И. Алишер Навоийнинг бадиий образ яратиш маҳорати (“Садди Искандарий” асосида). Филол. фан. номз. ... дисс. Самарқанд, 1994. – 137б. Муртазоев Б. Алишер Навоий “Сабъи сайёр” ва Хусрав Дехлавий “Хашт беҳишт” дostonларининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. номз.... дисс. Тошкент, 1992. – 208б. Қурбанов А. Алишер Навоий “Фарҳод ва Ширин” дostonи сарлавҳалари бадиияти: Филол. фан. бўйича фалс. докт.(PhD) дисс. Тошкент, 2017. – 164б. Исмоилов И. Алишер Навоий “Садди Искандарий” дostonининг қиёсий таҳлили. Филол. фан. бўйича фалс. докт.(PhD)... дисс. Тошкент, 2019. – 161б. Тошнйёзова Р. Алишер Навоий тафаккури онтологиясининг поэтик ифодаси (“Хамса” дostonлари асосида): Филол. фан. докт.... дисс. Тошкент, 2020. – 140б. Пардаева И. Алишер Навоий тарихий асарлари бадиияти. Филол. фан. бўйича фалс. докт.(PhD) дисс. Самарқанд, 2018. – 133б. Абдувалиева Д. А. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси: Филол. фан. бўйича фалс. докт.(PhD)... дисс. Тошкент, 2017. – 159б. Аҳмедов Н. Ўзбек адабиётида Алишер Навоий сиймосини талқин этиш муаммолари: Филол. фан. докт.... дисс. Тошкент, 1994. – 341б. Насруллаев Э. XX аср ўзбек навоийшунослигида улуғ шоир шахсияти талқинлари тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалс. докт.(PhD)... дисс.

boshqa ilmiy-metodik tadqiqotlar kelgusi ilmiy ishlar uchun poydevor vazifasini o‘taydi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan A.Kolechenko⁶, V.Bespalko⁷, N.Borisova⁸, V.Monaxov⁹, S.Polyakov¹⁰, M.Klarin¹¹, G.Selevko¹² kabi olimlar tomonidan o‘qitishning zamonaviy usullari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Xorijlik olimlar Dj. Dyui¹³, Michael Barber, Katelyn Donnelly, Saad Rizvi¹⁴, Mishra, P., & Koehler, M. J¹⁵., Harris, J. B., & Hofer, M.J¹⁶., Voogt, J., Fisser, P., Pareja Roblin, N., Tondeur, J., & van Braak, J¹⁷., Kirstin Krauss¹⁸, Mitra Vernice¹⁹

Самарқанд, 2019. – 1476. 66. Хусанхужаев И. Алишер Навоий таълим-тарбия ҳақида: Пед.фан. номз. дисс. Тошкент, 1962. – 2126. Муҳиддинов М. Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон конценцияси. Филол.фан. докт. ...дисс. Тошкент, 1995. – 2886. Ҳамроева Ҳ. Алишер Навоийнинг инсонпарварлик ғояларидан фойдаланиб ўқувчиларни ахлокий-эстетик тарбиялашнинг педагогик асослари (“Маҳбуб ул-қулуб”, “Назм ул-жавоҳир”, “Лисон ут-тайр”): Пед.фан. номз. ... дисс. Тошкент, 1999. – 1316. Низамов Ф. Алишер Навоий дунёкарашида умуминсоний қадриятлар муаммоси. Филол. фан. номз.... дисс. Тошкент, 1996. – 1536. Муллаҳўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётда тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги (“Бадоеъ ул-бидоя” девони асосида). Филол.фан. номз.... дисс. Тошкент, 2005. – 1486. Рамазонов Н. Алишер Навоий ижодида фақр талқини ва фақир образи: Филол.фан. бўйича фалс. докт.(PhD)... дисс. Тошкент, 2019. – 1686. Давлатов О. Алишер Навоий шеъриятида Қуръон оятлари ва ҳадисларнинг бадий талқини: Филол.фан. бўйича фалс. докт.(PhD) ...дисс. Самарқанд, 2017. – 1596. Раззоков А. Алишер Навоий шеъриятида илм ва маърифат талқини: Филол.фан. бўйича фалс. докт.(PhD)... дисс. Қарши, 2019. – 1746.

⁶ Колеченко, А. К. Энциклопедия педагогических технологий: материалы для специалистов образовательных учреждений / А.К. Колеченко. — Санкт-Петербург: КАРО, 2002. — 368 с

⁷ Беспалько В. Слагаемые педагогической технологии. Москва: Педагогика, 1989. — 192с.

⁸ Борисова Н. В. От традиционного через модульное к дистанционному образованию: Учебное пособие. — М.: Домодедово, ВИПК МВД России, 1999. — 174 с.

⁹ Монахов В. От традиционной методики к новой технологии обучения. Тула: Будрус, 1993. — 143с.

¹⁰ Поляков С.Д. Педагогическая инноватика: от идеи до практики. — М.: Центр «Педагогический поиск», 2007. — 176 с.

¹¹ Кларин М.В. Инновации в обучении: метафоры и модели. Анализ зарубежного опыта. Москва: Наука, 1997. — 223с. Кларин М.В. Технология обучения: идеал и реальность. Рига: Эксперимент, 1999. — 180с.

¹² Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. — Москва: Народное образование, 1998. — 256с.

¹³ Дьюи, Джон. Общество и его проблемы. Перевод с англ. И. И. Мюрберг, А. Б. Толстова, Е. Н. Косиловой. — Москва: Идея-Пресс, 2002. — 160 с.

¹⁴ Michael Barber, Katelyn Donnelly, Saad Rizvi. An Avalanche is Coming. — London, 2013. — 78p.

¹⁵ Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological pedagogical content knowledge: A framework for teacher knowledge. Teachers college record, 108(6), 1017

¹⁶ Harris, J. B., & Hofer, M. J. (2011). Technological pedagogical content knowledge (TPACK) in action: A descriptive study of secondary teachers' curriculum-based, technology-related instructional planning. Journal of Research on Technology in Education, 43(3), 211-229

¹⁷ Voogt, J., Fisser, P., Pareja Roblin, N., Tondeur, J., & van Braak, J. (2013). Technological pedagogical content knowledge—a review of the literature. Journal of Computer Assisted Learning, 29(2), 109-121

¹⁸ Kirstin Krauss. Issues in using Internet in remote South African high schools. June 2016 Conference: 2016 11th Iberian Conference on Information Systems and Technologies (CISTI)

¹⁹ Mitra Vernice. Editorial: New Educational Technologies and Their Impact on Students' Well-Being and Inclusion Process. Front. Psychol., 25 November 2021

tomonidan ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, muammoli ta'lim masalalari atroflicha o'rganilgan.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar boshqa fanlar qatori adabiy ta'limda ham Alisher Navoiy ijodini zamonaviy, innovatsion yondashuvlar asosida o'qitish orqali mavjud metodikani takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ona tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasining "Ona tili va adabiyotini o'qitishning zamonaviy metodikasi" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumiy o'rta ta'lim jarayonida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishga nisbatan innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umumiy o'rta ta'lim tizimida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'qitish bo'yicha olib borilgan ilmiy-metodik tadqiqotlar hamda o'qitishning mavjud holatini tahlil qilish;

umumiy o'rta ta'lim tizimida Alisher Navoiy biografiyasini o'rganish mazmuni va metodikasini ishlab chiqish;

adabiyot darslarida Alisher Navoiy asarlarini sinflar kesimida o'qitish metodikasini takomillashtirish;

Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishga oid innovatsion ish turlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5–9-sinflarida Alisher Navoiy asarlarini o'qitish jarayoni belgilangan.

Tadqiqotning predmetini umumiy o'rta ta'lim tizimida Alisher Navoiy asarlarini sinflar kesimida o'qitish metodikasini takomillashtirishga doir o'quv materiallarining mazmuni, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: dissertatsiyada qo'yilgan maqsadga erishish va belgilangan vazifalarni hal etishda suhbat, kuzatish, so'rovnomalar o'tkazish, test, qiyosiy tahlil, sistemali yondashuv, tavsiflash, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Alisher Navoiy asarlarini o'qitishning pedagogik imkoniyatlari shoirning hayoti bilan bog'liq ma'lumotlar ko'lami, ularning muhimlik darajasini adabiy manbalar orqali aniqlash, xronologik ma'lumotlarni shakl va mazmun mutanosibligini saqlagan holda qisqartirish hamda ularni innovatsion texnologiyalar vositasida o'qitishga yo'naltirilgan metodikalarni qo'llash asosida takomillashtirilgan;

umumiy o'rta ta'lim tizimida Alisher Navoiy biografiyasini o'rganishning ta'limiy mazmuni adabiy ta'lim paradigmalarini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyalari vositasida o'quvchilarning individual ta'lim trayektoriyalariga nisbatan vertikal va gorizontal integratsiyalash orqali takomillashtirilgan;

adabiyot darslarida Alisher Navoiy asarlarini sinflar kesimida o'qitish metodikasi shoir asarlarining o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning rivojlanish vektoriga nisbatan to'g'ri belgilashga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalari (shaxsga yo'naltirilgan, akmeologik, evristik)ni adabiy ta'limga tizimlilik va izchillik tamoyillariga ko'ra tatbiq etish asosida takomillashtirilgan;

Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishga oid innovatsion ish turlari shoir hayoti va ijodi bo'yicha Blum taksonomiyasini qo'llash orqali adabiy ta'lim determinantlarini tizimlashtirish hamda ularni o'quvchilarning yosh xususiyatlariga

moslab tushuntirishga yo‘naltirilgan metodlar vositasida o‘qitish texnologiyalarini to‘g‘ri tanlash imkoniyatlarini yaratish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

umumiy o‘rta ta’lim tizimida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘qitishning o‘quvchilar yosh psixologiyasi, aqliy qobiliyati va qiziqishlariga mos holda tasniflash mumtoz adabiyotlarni o‘qitish metodikasini ham takomillashtirishga, Alisher Navoiy asarlarini sinflar kesimida o‘qitishda shoirning hayoti bilan bog‘liq ma’lumotlarning ko‘lami, chegarasi va turlari xronologik tarzda berilmasdan, shoir hayotining eng muhim ibratli nuqtalari tanlanishi mashg‘ulot sifatini oshirishga xizmat qiladi;

Navoiy asarlarini sinflar kesimida kichik hajmli janrlardan boshlab, soddadan murakkabga tomon borish orqali epik asarlargacha berishning optimal variantlari 5-sinf dan 9-sinfgacha o‘quvchilar darajama-daraja taqdim etilishi usuli “Adabiyot” darsliklarini takomillashtirish, shuningdek, tadqiqot natijalaridan kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi DTS va o‘quv dasturlari, shuningdek, elektron darsliklar yaratishda foydalanish ko‘zda tutilgan;

tadqiqot natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Xalqaro jamoat fondi tashabbusi bilan “Tamaddun” nashriyotida chop etilayotgan “Istiqlol davri o‘zbek navoiyshunosligi” 30 jildlik kitoblar to‘plamini chop etilishida foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qo‘llangan tadqiqot usullari va ilmiy-nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalarga aloqadorligi, keltirilgan tahlil hamda tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metod orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot umumiy o‘rta ta’lim tizimida mumtoz adabiyot namunalariga oid nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish usullarini takomillashtirish, adabiy ta’limda Alisher Navoiyning tutgan o‘rnini belgilashda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot

asosida chiqarilgan xulosalarning umumiy o'rta ta'lim tizimida Navoiy hayoti va ijodini sinflararo tizimli va zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish hamda mavjud Navoiy hayoti va ijodini o'qitish metodikasini takomillashtirishda ilmiy -nazariy asos bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Ishda ilgari surilgan g'oyalar, nazariy qarash va amaliy tavsiyalar "Adabiy ta'lim", "Adabiyot" darsliklari, o'quv qo'llanmalar yaratishda manba bo'la oladi. Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida "Adabiyot o'qitish metodikasi" fanidan ma'ruza matnlari tuzishda ilmiy-metodik qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ta'lim tizimida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishga innovatsion yondashuv borasidagi ilmiy tadqiqot ishi natijalari asosida:

adabiy ta'lim paradigmalarini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv texnologiyalari vositasida o'quvchilarning individual ta'lim trayektoriyalariga nisbatan vertikal va gorizontal integratsiyalash orqali qo'llash asosida takomillashtirilgan umumiy o'rta ta'lim tizimida Alisher Navoiy biografiyasini o'rganishning ta'limiy mazmuni, shoir asarlarining o'quvchilarning yosh xususiyatlariga ko'ra tahlilini ularning rivojlanish vektoriga nisbatan to'g'ri belgilashga yo'naltirilgan zamonaviy ta'lim texnologiyalari (shaxsga yo'naltirilgan, akmeologik, evristik)ni adabiy ta'limga tizimlilik va izchillik tamoyillariga ko'ra tatbiq etish asosida takomillashtirilgan adabiyot darslarida Alisher Navoiy asarlarini sinflar kesimida o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy asoslangan takliflardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan FA-F1-G003 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi", FA-A1-G007 "Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" mavzularidagi fundamental va ilmiy-amaliy loyihalarda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 17.01/61-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'rta umumta'lim maktablarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini

o'rganishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv materialini taqdim etish metodikasini takomillashtirishga xizmat qilgan;

shoir hayoti va ijodi bo'yicha Blum taksonomiyasini qo'llash orqali adabiy ta'lim determinantlarini tizimlashtirish hamda ularni o'quvchilarning yosh xususiyatlariga moslab tushuntirishga yo'naltirilgan metodlar vositasida o'qitish texnologiyalarini tanlash asosida ishlab chiqilgan Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishga oid innovatsion ish turlari bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan FA-F1-G003 "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi", FA-A1-G007 "Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" mavzularidagi fundamental va ilmiy-amaliy loyihalar mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 17.01/61-son bayonnomasi). Natijada, mumtoz adabiyot, xususan, Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish mavzusidagi o'quv mashg'ulotlarida interfaol usullarni unumli qo'llash yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalar loyiha mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

shoirning hayoti bilan bog'liq ma'lumotlar ko'lami, ularning muhimlik darajasini mavjud adabiy manbalar orqali aniqlash, xronologik ma'lumotlarni shakl va mazmun mutanosibligini saqlagan holda qisqartirish hamda ularni innovatsion texnologiyalar vositasida ta'limiy taqdim etishga yo'naltirilgan metodikalar asosida takomillashtirilgan Alisher Navoiy asarlarini o'qitishning pedagogik imkoniyatlari bo'yicha taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2020-yil 15-maydagi 125-sonli buyrug'i asosida e'lon qilingan UNICEF bilan hamkorlikdagi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'zbek tilini o'qitish sifatini oshirish" loyihasining 1-bosqichi: Ona tili, o'zbek tili va adabiyot fanlarining o'quv-metodik materiallarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Respublika ta'lim markazining 2022-yil 6-iyuldagi 01/11-01/01-1034-son ma'lumotnomasi). Natijada,

umumiy o'rta ta'lim tizimida Alisher Navoiy asarlarini innovatsion yondashuv asosida o'qitishning metodik ta'minotini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 6 ta respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 122 sahifani tashkil etadi.

I BOB. MAKTABDA ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O‘RGANISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

1.1-§. Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘qitish pedagogik muammo sifatida

Mamlakatimizda keyingi yillarda til va adabiyot sohasini rivojlantirishga hukumat darajasida alohida e‘tibor berilmoqda, yangi islohotlar amalga oshirilmoqda. Shaxsan davlat rahbarining 2020-yil 19-oktyabrda “Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi PQ-4865-sonli qarori imzolandi. Mazkur hujjatning 8-bandi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Xalq ta‘limi vazirligi, Maktabgacha ta‘lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tizimida Alisher Navoiy asarlarini uzluksiz o‘qitish konsepsiyasini ishlab chiqish hamda 2021–2022-o‘quv yilidan barcha ta‘lim muassasalarida shu asosda ta‘limni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha muhim vazifa belgilangan. Bu Alisher Navoiy ijodini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha mavjud ilmiy va metodik muammolarni yechish nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyatga ega.

Millat mutafakkirlari, donishmandlari ijodini yosh avlodga o‘qitish orqali ularda yuksak insoniy fazilatlarni kamol toptirish, bu borada, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodiga alohida e‘tibor qaratish o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan muhim vazifalardan sanaladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida ma‘lumot beruvchi nazariy ahamiyatga molik ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan va bugungi kunda ham ushbu yo‘nalishdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo Navoiy hayoti va ijodining o‘rganilishi tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqotlar salmog‘i ko‘p emas.

G.Rahimovaning “Alisher Navoiy hayoti va ijodining sakkiz yillik o‘zbek maktablarida o‘rganish”²⁰ mavzusidagi dissertatsiyasida sakkiz yillik maktablarning adabiyot darslarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganishda xilma-xil usullar, ko‘rgazmali qurollardan foydalanish, o‘quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish, o‘quvchilarni turli guruhlariga birlashtirgan holda o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirish masalalari tadqiq etilgan²¹. Mazkur ishda shoir faoliyatini 1–4-sinflarda hamda 5–7-sinflarda o‘rganilishi alohida boblar sifatida tadqiq etilgan. Dissertatsiyada Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar tarixiga ham to‘xtab o‘tilgan. Jumladan, ilk ilmiy ish – M.Nikitskiyning “Amir Nizomiddin Alisher, uning davlat va adabiyot sohasidagi ahamiyati” dissertatsiyasi 1856-yilda yozilgani haqida ma’lumot berilgan.

A.Hasanovaning “Yuqori sinflarda Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o‘rganish”²² mavzusidagi dissertatsiyasida “Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatini o‘rganish”, “Navoiy lirikasini o‘rganish”, “Xamsa” dostonlarini o‘rganish” kabi mavzular tadqiq etilgan. Tadqiqotchi o‘qituvchi shaxsining o‘z ustida ishlashi zarurligi haqida shunday fikr bildiradi: “Garchi o‘rta maktab programmasi o‘quvchilarni Navoiy biografiyasiga oid bo‘lgan hamma masalalar bilan tanishtirishni o‘z oldiga asosiy maqsad qilib qo‘ymasa ham, o‘qituvchi shoir hayoti va ijodining eng nozik nuqtalarigacha o‘rganib chiqqan bo‘lishini talab qiladi”²³. Olim o‘qitishning noan’anaviy usullari hamda o‘qituvchining yangi usullarni kashf etishga intilishi zarurligi haqida ham so‘z yuritib, o‘z mulohazalarini misollar bilan asoslaydi: “Navoiyning lirik asarlarini tahlil etishda ham, “Farhod va Shirin” dostonining g‘oyaviy mazmuni, obrazlari, badiiy xususiyatlarini

²⁰ Рахимова Г. Алишер Навоийнинг ҳаёти ва ижодини саккиз йиллик ўзбек мактабларида ўрганиш: Пед.фан. номз. ... дисс. Тошкент, 1966. – 243б.

²¹ Ўша жойда. 164-б.

²² Ҳасанова А. Юқори синфларда Алишер Навоий ҳаёти ва ижодини ўрганиш. Пед.фан. номз. ...дисс. Тошкент, 1974. – 176б.

²³ Ўша жойда. 13-б.

o‘zlashtirishda ham eng qulay yo‘l sharhli o‘qish va suhbat metodi asosida darslarni uyushtirishdan iboratdir”²⁴.

A. Abdumannotovning “Alisher Navoiy merosi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’naviy tushunchalarini shakllantirish”²⁵ mavzusidagi ilmiy ishida Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni maqolalarining boshlang‘ich ta’limda o‘rganilish holati tahlil qilingan, ushbu asar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ma’naviy-ma’rifiy tushunchalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari va o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Dissertatsiyaning Alisher Navoiy merosi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ma’naviy tushunchalari shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari haqidagi bobida hozirgi kundagi boshlang‘ich ta’limga qo‘yilayotgan talablar, bu sohani takomillashtirish yo‘llari muhokama qilingan. Alisher Navoiy merosidan yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda unumli foydalanish bo‘yicha mulohazalar bildirilgan. Pedagog olimlarning ish usullari va fikrlari bir-biri bilan qiyoslangan. “Hayrat ul-abror” dostonida keltirilgan rivoyat, pand-nasihatlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari darajasiga mos ravishda guruhlangan va jadval tarzida berilgan. Masalan, 2-sinflar uchun “So‘zning ma’nosi uning jonidir”, “Hotam Toyi hikoyati”, “Rostlik ta’rifida”, “Sher va Durroj”, “Husnixat haqida”, 3-sinflar uchun “So‘z ta’rifida”, “Xayr-u ehson vasfida”, “Adablilik odati to‘g‘risida”, “Qanoat haqida”, “Ikki vafodor do‘st”, “Bulutdek foyda keltiruvchi odamlar haqida”, “Marhamatli Ayub va o‘g‘ri”, 4-sinflar uchun “Ko‘ngil ta’rifida”, “Shoh qahri va adolat”, “Ilm osmonining yulduzlaridek baland martabaliligi haqida” maqolat va hikoyatlarini o‘rganish tavsiya etilgan.

“Hayrat ul-abror” dostonining boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy vosita sifatida o‘rganilishining quyidagi afzalliklari sanab o‘tilgan:

²⁴ Хасанова А. Юкори синфларда Алишер Навоий ҳаёти ва ижодини ўрганиш. Пед.фан. номз. ...дисс. Тошкент, 1974. 168-б.

²⁵ Абдуманнотов А. М. Алишер Навоий мероси асосида бошланғич синф ўқувчиларининг маънавий тушунчаларини шакллантириш (“Ҳайрат ул-аброр” дostonи мақолотлари мисолида): Пед. фан. номз. ... дисс. Тошкент, 2004. – 136б.

Birinchidan, o‘quvchilarga Alisher Navoiy ijodi haqida bilim beradi, milliy odobga shakl va mazmun baxsh etadi.

Ikkinchidan, boshqa xalq vakillari ijodi, madaniyati bilan oshno qilib, ularni umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash imkoniyatiga ega.

Uchinchidan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini to‘g‘riso‘zlik, do‘stlikning qadriga yetish, rostgo‘ylik, xushmuomalalik kabi milliy axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi²⁶.

Tadqiqotchi boshlang‘ich sinflarda soatlar taqsimoti haqida ham asosli fikrlar bildiradi: “...Navoiyning hayotini, ijodiy merosini o‘rganishga, asarlarining tahliliga har bir sinfda ko‘pi bilan 2-3 soatdan, jami boshlang‘ich sinflarda 8-10 soatgina vaqt ajratilgan, xolos. Bizning fikrimizcha, har bir sinfning o‘ziga 10-12 soat vaqt ajratilgandagina Navoiy dostonidagi maqolat va hikoyatlarni o‘rganish uchun yetarli vaqt ajratilar edi...”²⁷

Ma’lumki, “Hayrat ul-abror” dostoni didaktik asar bo‘lish bilan birga, “Xamsa”ning keyingi dostonlarini tushunish uchun ochqich vazifasini ham o‘taydi. Yuqori sinflarda dasturga kiritilgan “Xamsa” dostonlarini o‘zlashtirish uchun boshlang‘ich sinflarda “Hayrat ul-abror” dostoni bilan kengroq tanishish foydadan xoli bo‘lmaydi. O‘quvchilarning tarbiyasi va ma’naviyatiga ham o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy asarlarining umumta’lim maktablarida o‘qitilishi bo‘yicha yana bir ilmiy tadqiqot – Maxsuda Sariboyevaning “Umumta’lim maktablarida Alisher Navoiy epik asarlarini zamonaviy usullarda o‘rgatish (“Xamsa” asari misolida)”²⁸ mavzusidagi dissertatsiyasi. Mazkur tadqiqotda Alisher Navoiyning

²⁶ Абдуманнотов А. М. Алишер Навоий мероси асосида бошланғич синф ўқувчиларининг маънавий тушунчаларини шакллантириш (“Хайрат ул-аброр” дostonи мақолотлари мисолида): Пед. фан. номз. ... дисс. Тошкент, 2004. 61-б.

²⁷ Абдуманнотов А. М. Алишер Навоий мероси асосида бошланғич синф ўқувчиларининг маънавий тушунчаларини шакллантириш (“Хайрат ул-аброр” дostonи мақолотлари мисолида): Пед. фан. номз. ... дисс. Тошкент, 2004. 110-б.

²⁸ Сарибоева М. Умумтаълим мактабларида Алишер Навоий эпик асарларини замонавий усулларда ўргатиш (“Хамса” асари асосида): Пед. фан. номз. ... дисс. Тошкент, 2011. – 163б.

“Xamsa” asaridagi dostonlarni zamonaviy usullarda o‘qitish bilan bog‘liq masalalar yoritilgan. Unda Alisher Navoiy epik asarlarini zamonaviy usullarda o‘qitishning barkamol yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini ko‘rsatish va bu boradagi ilmiy muammolar haqida so‘z boradi. O‘rta maktablarda Alisher Navoiy ijodini zamonaviy usullarda o‘qitilishi, birinchidan, o‘quvchilarda Navoiyning epik asarlariga qiziqish uyg‘otishi; ikkinchidan, o‘quvchilarni ta’lim jarayonining ijrochisiga aylantirishi va adabiy ta’lim samaradorligini oshirishi; uchinchidan, o‘quvchilarda shaxsiy fikr, munosabat va xulosa paydo bo‘lishiga erishilishi aytib o‘tilgan. Shuningdek, ishda Alisher Navoiy epik asarlarini zamonaviy usullar orqali o‘qitishning samaradorlik imkoniyatlari yoritilgan. Adabiyot darslaridagi interfaol usullarning o‘quvchilarning mustaqil o‘qishlari va erkin fikrlashlarini ta’minlashdagi ahamiyati haqida so‘z yuritilgan, “Guruhlarda ishlash”, “Fikriy hujum”, “Charxpalak”, “Burchaklar usuli”, “Refleksiya” (o‘z tuyg‘u va xatti-harakatlarini baholash ma’nosini bildiradi) va boshqa usullar haqida fikr bildiriladi.

Tadqiqotchi Alisher Navoiy epik asarlarini o‘rganishda zamonaviy usullarning ahamiyatini metodik tavsiyalar, dars ishlanmalari vositasida isbotlaydi hamda kerakli xulosalarni chiqaradi: “Zero, adabiy ta’lim so‘z orqali o‘rganish, so‘z orqali o‘qitish va so‘z orqali anglash, his qilish deya e’tirof etilsa, faol o‘quv muhitida so‘z orqali o‘zaro ta’sir etish tabiiydir. O‘quvchilarni shunchaki o‘qishga emas, o‘qib o‘rganishga, o‘rgatib o‘rganishga, o‘rganib o‘rganishga hamda shu ma’lumotlarni amalda hayotga tatbiq etishga undaydigan zamonaviy usullarga asoslangan pedagogik jarayon maqsadga yo‘naltirilgan tizimli yondashuv amaliyotidir”.²⁹

M.Sariboyeva tadqiqotining muhim ahamiyati shundaki, dissertatsiya yozilganiga 10 yildan oshganiga qaramasdan, bildirilgan mulohaza va tavsiyalar o‘z

²⁹ Сарибоева М. Умумтаълим мактабларида Алишер Навоий эпик асарларини замонавий усулларда ўргатиш(“Хамса” асари асосида): Пед. фан. номз. ... дисс. –Т., 2011. 34-б.

qimmatini yo‘qotmagan. Bugungi kunda ta’lim tizimida ulardan foydalanish o‘qituvchi uchun ham, o‘quvchilar uchun ham samarali natijalarni beradi.

Mumtoz matnlarni umumta’lim maktablarining turli bosqichlarida aynan qanday mavzular orqali o‘rganilishi bo‘yicha turli tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, pedagogika fanlari doktori Valijon Qodirov³⁰ ushbu masalaga to‘xtalib o‘tadi. Olim tomonidan mumtoz matnlarni tushunishdagi muammolar darsliklardagi parchalar yordamida isbotlab berilgan. 5–11-sinflarda Alisher Navoiyning aynan qaysi asarlarini o‘qitilishi yuzasidan fikrlar bildirilgan: 5-sinfda Navoiy ruboiylari; 6-sinfda Navoiy ruboiy va qit‘alari, “Sher bilan Durroj” hikoyati; 7-sinfda “Shoh G‘oziy” (“Hayrat ul-abror”), “Mehr va Suhayl” (“Sab’ai sayyor”) hikoyatlari; 8-sinfda “Mahbub ul-qulub” asari; 9-sinfda “Xamsa” an‘analari, “Farhod va Shirin” dostoni; 10-sinfda “Xazoyin ul-maoniy”dagi g‘azal, ruboiy, qit‘alar; 11-sinfda “Layli va Majnun” dostoni o‘rganilishi tavsiya etilgan.

Tadqiqotchi mumtoz adabiyot namunalarini umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘rganilishi bo‘yicha tanqidiy fikrlarni bildirib, muhim tavsiyalar beradi: “5-sinfдан boshlab mumtoz namunalar bir qadar tizimli o‘rganiladi. Ba’zi darslik mualliflari tanlangan ayrim mumtoz matnlarni o‘quvchi tugul o‘qituvchi ham hazm qilolmasligini bilib, ularning nasriy bayonini berib borishadi. Darsda, oldin aytilganidek, faqat nasriy bayon o‘qitiladi va uning mazmuni so‘rab olinadi. Deyarli barcha sinflarda bu holat davom etmoqda. Natijada biz mumtoz matnni ko‘rganda uning nasriy bayonini axtaradigan, asl matnni o‘qishga harakat qilmaydigan o‘quvchilarga ega bo‘lmoqdamiz. Bizningcha, mazkur holatni bartaraf etish uchun mumtoz namunalarni berishda tadrijiylikka – osondan qiyinga, oddiydan murakkablikka borish tamoyiliga amal qilish zarur. Eng asosiysi, hech qachon asarni darslikda nasriy bayon qilmaslik kerak”.³¹

³⁰ Кади́ров В. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёт намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Наманган, 2019. – 397 бет

³¹ Кади́ров В. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёт намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Наманган, 2019. 59-б.

Tadqiqotchi V.Qodirov mumtoz adabiyot namunalarini o‘zlashtirish bo‘yicha ko‘plab tavsiyalarni keltirib o‘tgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari uchun ushbu tavsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, olimning tadqiqotlarida “Izofadan chiqar!” usuli o‘quvchilarning mumtoz matnni tushunishini osonlashtirishga xizmat qiladi. Ammo mumtoz matnlarning nasriy bayonini darslikda keltirmaslik haqida shuni ham aytish mumkinki, nasriy bayon orqali mumtoz matnlarni o‘zlashtirish birmuncha soddalashadi. Hamda shu orqali o‘quvchilar juda ko‘p so‘zlarning izohi bilan tanishib olishga muvaffaq bo‘ladilar.

5-sinf dasturida o‘quvchini shakllantiruvchi nazariy tushunchalarga jiddiy e’tibor berib, ularni aniq uzviylikka, ketma-ketlikka amal qilgan holda berilishini ta’minlash zarur. Chunki 5-sinf boshlang‘ichdan o‘rta bosqichga o‘tishdagi ilk qadam hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda bir o‘qituvchi bilan shug‘ullangan o‘quvchi nisbatan mustaqillikni his etadi, o‘ziga ma’qul bo‘lgan yo‘nalishdan ketishga harakat qiladi, o‘z sevimli fanlarini ajratishni boshlaydi. Bu sinfda to‘g‘ri yo‘nalish berish juda ham muhim hisoblanadi.

Odatda, o‘quvchilar 5-sinfdan boshlab ertak, hikoya, rivoyat kabi voqeaband asarlarni o‘rganishga ko‘proq qiziqishadi, shunday asarlarni tezroq qabul qilishadi. 8–9-sinf bosqichlariga kelganda esa, his-tuyg‘ular aks etgan lirik asarlar, nazariy ma’lumotlarni qabul qilish ko‘nikmasini shakllantira boradilar. Bunga sabab – 6–7-sinflardagi darslikka kiritilgan asarlarning tahlili.

Adabiyot darslarida matn bilan ishlash jarayonida ona tili fani bilan integratsiya qilinsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, mumtoz matnlardagi tazod san’ati haqida so‘z ketganda “Zid ma’noli so‘zlar” mavzusini takrorlab, o‘quvchilar bilimini mustahkamlab olish mumkin. Yoki tajnis san’ati shakldosh (omonim) so‘zlar bilan, tanosub san’ati esa uyadosh so‘zlar (garchi bu mavzu bugungi kunda rasman darsliklarda mavjud bo‘lmasa-da) bilan bog‘liq holda tushuntirilsa, o‘quvchining qabul qilishi osonlashadi.

O'quv mashg'ulotlarini an'anaviy tarzda ma'ruza shaklida o'tkazilishi o'quvchilar mavzuni qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash imkonini kamaytiradi. O'quv mashg'uloti vaqtida o'quvchilarning faolligi muhim o'rin tutadi. Mutaxassislarning fikricha, inson ma'ruzani eshitish orqali 5%, o'qish orqali 10%, eshitish va ko'rish orqali 20%, ko'rgazmali qurollar orqali 30%, guruhdagi muhokamalar yordamida 50%, mustaqil tadqiqot va amaliy mashg'ulotlar yordamida 70% ma'lumotni, o'zini o'qituvchi sifatida sinab ko'rgan o'quvchi esa, mavzuga doir 90% ma'lumotni o'zlashtirar ekan. Shuning uchun o'quvchilarning o'quv mashg'uloti vaqtidagi faolligiga alohida e'tibor berish zarur. Bu borada tadqiqotchilar ham o'z fikrlarini bayon qilganlar. Masalan: "Adabiy ta'limni tashkil etishda noan'anaviy ta'lim shakl va metodlaridan foydalanish ijobiy natija beradi. U yoki bu metodni tanlashda o'quvchilarning har tomonlama erkin fikrlashiga, ijodiy faol ishtirokchiga aylanishiga hamda xilma-xil metodlarni qo'llagan holda, masalan, bahs-munozara darslari ijodiy izlanishga, mustaqil ishlashga yo'naltirilishi kerak. O'quvchilar qo'yilgan masalaga bir tomonlama yondashmasdan o'z qarashlarini, fikrlarini erkin bayon etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Adib hayoti va ijodiga doir savollar, boshqotirmalar, krossvordlar tuzish kabi mashg'ulotlar o'quvchilarning tafakkurini har tomonlama rivojlantiradi va ta'lim samaradorligiga erishishda ijobiy natijalar beradi."³² F. Egamberdiyevaning fikr-mulohazalarini o'rganib chiqqan holda, shunday fikr bildirish mumkinki, yangicha dars usullari o'quvchilarning harakatlariga chegara qo'ymaydi, fikrlashlariga erkinlik beradi. Faqat topshiriqlarning hajmi va qiyinlik darajasi o'quvchilarning yoshiga, psixologiyasiga mos bo'lishiga alohida e'tibor berish kerak. Va bu ko'rinishdagi mashg'ulotlar o'z amaliy samarasini beradi.

Pedagogika fanlari doktori, professor R.Niyozmetovanning tadqiqot ishida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining rus guruhlarida o'zbek tilini o'qitishda

³² Эгамбердиева Ф. Адабий таълимга илғор педагогик технологияларни татбиқ этиш методикаси: Пед. фан. номз. ... дисс. –Т., 2005. 59-б.

darsdan tashqari ishlar jarayonida adabiy materiallarni o'rganishda "Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish"ga doir bo'limning kiritilgani diqqatga sazovordir. Bu milliy ma'naviyat, milliy qadriyatlar, milliy istiqlol mafkurasi, nihoyat, maktabda buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning asarlarini o'rganish ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan sinf(guruh)lar uchun tayyorlangan dastur va darsliklarni qayta ishlab chiqish, yangilarini shu nuqtayi nazardan yaratishni taqozo etishini bayon qiladi.

Shuningdek, olim "... buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning hayoti va ijodini rusiyzabon o'quvchilarga o'rgatish maxsus tadqiqot olib borishni taqozo etadigan dolzarb muammolari, umumiy o'rta ta'limda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganish imkoniyatlari darslar, darsdan va sinfdan tashqari tadbirlar orqali umumiy o'rta ta'limning uzviy davomi sifatida bo'lishi kerakligini, bu ishlar alohida tadqiqot orqaligina to'g'ri hal etilishi mumkinligi"ni³³ ta'kidlaydi.

Pedagogika fanlari doktori, professor Q. Yo'ldoshev adabiy ta'lim muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'rganilayotgan asarning mazmunini so'zlab berish ham, so'zlatish ham mumkin emasligini ta'minlash lozimligini aytib o'tadi.³⁴

Q. Yo'ldoshevning eng muhim fikrlari quyidagi jumalarda aks etgan: "Pifagor teoremasini bilganda ham, bilmaganda ham o'quvchi, uni o'rab turgan olam mohiyati o'zgarishsiz qolaveradi. Lekin hazrati Navoiyning

Lolazor ermaski, ohimdin jahonga tushdi o't,

Yo'q shafaqkim, bir qiroqdin osmonga tushdi

matla'si bilan boshlanadigan yoki:

Meni men istagan o'z suhbatiga arjumand etmas,

Meni istar kishining suhbatin ko'nglim pisand etmas

³³ Ниёзметова Р. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганишнинг назарий ва методика соҳалари (рус тилида): Пед. фан. док. ... дисс. Т., 2007. 176-б.

³⁴ Ўлдошев Қ. Янгиланган тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. Т., 1996. 163-б., 280-б.

boshlanmasiga ega gʻazallari bilan tanishgan, ularning badiiy jozibasi va mantiqiy qudratidan xabardor boʻlgan odam uchun olam ham, odamlar ham, hayot ham boshqacharoq boʻlib qolishi aniq”³⁵ degan xulosalari, tahlillari bugun ham Navoiyni oʻqitishda qoʻl keladi.

Pedagogika fanlari doktori Q.Husanboyevaning dastlabki tadqiqotlarida rus maktablarining 2–11-sinflari uchun “Oʻzbek tili va adabiyoti” dasturidagi Alisher Navoiy hayoti va ijodiga taalluqli boʻlgan mavzular haqida fikr yuritilgan: “XV asr turkiy adabiyotining buyuk namoyandasi Alisher Navoiy faoliyati monografik tarzda oʻrganilishi kerak. Umuman, Alisher Navoiy asarlari soddalashtirilgan holatda yoki nasriy bayonda boshlangʻich sinflardan tortib, tayanch va oʻrta maktablarni ham qamrab olishi lozim.

10–11-sinflarda Navoiy asarlarini soddalashtirishning ham hojati boʻlmaydi. Faqat ularning asli bilan bir qatorda nasriy bayoni berilishi kifoya. Lekin Navoiy sinfma-sinfoʻrganilganda takrorga yoʻl qoʻyilmasligi kerak. Navoiy shaxsini, uning insoniy sifatlarini oʻrganishda IV–V sinflarda u haqda aytilgan rivoyatlar, shoirning bolalik davri haqidagi badiiy asarlardan parchalar oʻrganish shaklida amalga oshirilsa, VI–VII sinflarda uning kichik hajmdagi bolalar yoshi va saviyasiga mos keladigan, badiiy jihatdan mukammal, mazmunan boy tarbiyaviy ahamiyatga ega boʻlgan asarlari oʻrganilsa, VIII sinfda esa Alisher Navoiyning tarjimai holini mukammal oʻzlashtirish bilan davom ettiriladi”.³⁶ Biz olimaning mulohazalarini taʼlim oʻzbek tilida olib boriladigan milliy maktablarimiz uchun ham qoʻllasak, yaxshi natijaga erishgan boʻlamiz. Chunki soddadan murakkabga qarab borilsa, oʻquvchi mumtoz adabiyot namunalarining tili murakkabligidan qiynalmaydi, oʻzlashtirishi oson boʻladi.

³⁵ Йўлдошев Қ. Янгиланган тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. Т, 1996. 163-б.

³⁶ Хусанбоева Қ. Ўзбек адабиётини таълим давлат тилидан бошқа тилларда олиб бориладиган мактабларда ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. номз. ... дисс. –Т., 1997.. 90-б.

Q.Husanboyeva adabiyot darslarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini ta’minlash maqsadida muammoli ta’lim metodini faol qo‘llash haqida fikr bildiradi, o‘quvchilarni erkin va mustaqil fikrlashga o‘rgatishda qo‘llaniladigan mantiqiy metodlarning suhbat, evristik, tadqiqot, taqqoslash, induktiv, deduktiv turlari va ularning xususiyatlari haqida so‘z yuritadi.³⁷

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida mumtoz adabiyot namunalarining o‘rganilishi bugungi kunda qoniqarli emas. “Buning birlamchi omili sifatida qayd etilgan ta’lim mazmuniga oid hujjatlar – standart, dasturlar va ular asosida yaratilgan darslik, metodik qo‘llanmalar endilikda ilmiy jihatdan isbotlangan, amaliyotda o‘z tasdig‘ini topgan mezonlar asosida qayta ko‘rib chiqilishi va takomillashtirilishi lozim”³⁸, — deb hisoblaydi pedagogika fanlari doktori Valijon Qodirov.

M. Tuychiyeva o‘z ilmiy tadqiqotida o‘rta maktabda Alisher Navoiy hayoti va ijodining o‘rganilishiga ham alohida to‘xtalib o‘tadi: “Navoiy shaxsini, uning insoniy sifatlarini o‘rganishda 5-sinflarda u haqda aytilgan rivoyatlar, shoirning bolalik davri tasvirlangan badiiy asarlardan parchalar o‘rganish shaklida amalga oshirilsa, 6–7-sinflarda uning kichik hajmdagi o‘quvchilar yoshi va saviyasiga mos keladigan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlari o‘rganilsa, 8-sinfdan boshlab Alisher Navoiyning tarjimai holi va murakkab janrdagi asarlarini mukammal o‘zlashtirish bilan davom ettirish mumkin”³⁹ligini ta’kidlaydi.

“O‘qituvchi o‘quvchilarning Navoiy ruboiylarini tahlil qilish borasidagi tasavvurlarini shakllantirib, muayyan malakaga ega qilgach, navbatdagi ruboiylarni tahlil qilib, ularning badiiy-estetik xususiyatlarini o‘rganishni bevosita talabalarning

³⁷ Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Т, 2006. 82-б.

³⁸ Кадиров В. Умумтаълим мактабларида мумтоз адабиёт намуналарини ўқитишнинг илмий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Наманган, 2019. 257-б.

³⁹ Туйчиева М. 5–7-синфлар адабиёт дарсларида ўзлаштириладиган ўқув материалларини такомиллаштириш тизими: Пед. фан. бўйича фалс. док. (PhD)... дисс. – Самарқанд, 2020. 83-б.

o‘ziga havola qilishi lozim. Darslik va devondan tanlangan muayyan ruboiylarning turli usuldagi tahlillarini uyga topshiriq sifatida ham berish mumkin”.⁴⁰

Alisher Navoiy asarlarini interfaol usullarda o‘qitish bo‘yicha ham tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, Sh. Nasriddinova “Farhod va Shirin” dostonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish, xususan, “Bumerang”, “Venn diagrammasi”, “FSMU”, “SWOT” usullari tahlil ga tortilgan⁴¹.

D.Yusupova ilmiy izlanishlarida “Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonini o‘qitish metodikasiga doir” konseptual jadvallar⁴² dan foydalanish samaradorligini isbotlagan.

Alisher Navoiy hayoti va ijodining o‘rta umumta’lim maktablarida o‘rganilishi borasida juda ko‘plab ilmiy farazlar berilgan, pedagogik va metodik tajribalar o‘tkazilgan. Biz har bir tadqiqotdan o‘zimiz uchun optimal deb hisoblagan usullarimizni o‘zlashtirishimiz va amaliyotga joriy etishimiz kerak. Adabiyot o‘qitish metodikasidagi yangicha qarashlar va innovatsion usullar o‘quvchilarning materialni oson qabul qilishlariga ko‘mak beradi, ularning o‘quv mashg‘ulotlaridagi faolligini oshiradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kungacha Navoiy hayoti va ijodini o‘rganish, o‘qitishga doir olib borilgan tadqiqotlar asosida yaratilgan metodikani innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish, mumtoz adabiyotni bugungi kun o‘quvchisining qiziqishlarini inobatga olgan holda o‘qitish ehtiyoji yuzaga keldi.

⁴⁰ Азимова Ф. Академик лицейларда Алишер Навоий рубоийлари таҳлили // “Тил ва адабиёт таълими” журнали, 2014 йил, 11-сон. 26-28-бетлар.

⁴¹ Насриддинова Ш. “Фарҳод ва Ширин” дostonи янги педагогик технологиялар асосида ўқитиш // “Тил ва адабиёт таълими” журнали, 2015 йил, 2-сон.

⁴² Юсупова Д. “Сабъаи сайёр” дostonини ўқитиш методикасига доир // “Тил ва адабиёт таълими” журнали, 2017 йил, 10-сон. 30-34-бетлар.

1.2-§. Umumiy o'rta ta'limda Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'qitishning bugungi holati

Ma'lumki, Alisher Navoiy asarlari tilining murakkabligi va mazmunan chuqurligi bilan boshqa ijodkorlar asarlaridan ajralib turadi. Adib tasavvuridagi "komil inson" g'oyasining yosh avlod ongiga singdirish asosiy maqsad etib belgilangani holda, ta'lim tizimida Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodini chuqur o'rganish ustuvor yo'nalish sifatida tanlab olingan. Har bir sinf doirasida Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida ma'lumot berilar ekan, bir necha jihatlarni hisobga olish zarur. Avvalo, adabiyot fanining o'qitilishi bo'yicha davlat ta'lim standartlari(DTS)da belgilangan o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablarni ko'rib chiqsak.

5–9-sinf o'quvchilari adabiy ta'limga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

- matnni to'g'ri, tez va ifodali o'qiy olish;
- 4–5 ta badiiy matnni yoddan aytib bera olish;
- Prezident asarlarini bilish, ularda ilgari surilgan g'oyalar asosida mushohada yurita olish;
- mamlakatimiz mustaqilligi va bayramlari haqidagi, ona Vatanga muhabbat uyg'otuvchi adabiy asarlar mazmunini anglagan holda so'zlab berish;
- mumtoz adabiyot janrlari bilan zamonaviy adabiyot janrlarini farqlay olish;
- berilgan har qanday mavzuda og'zaki va yozma ravishda mustaqil fikr yurita olish;
- badiiy tasvir vositalari haqida matnga tayanilgan holda mustaqil fikr yuritish va tahlil qila olish;
- o'qigan asaridan olgan taassurotlarini yorqin ifodalab bera olish;
- o'zga insonning tuyg'ulari va hissiy kechinmalar xususida fikr yurita olish;
- turli mavzularda insho yoza bilish;

- o‘rganilgan adiblar tabiatiga xos bo‘lgan xislatlarni baholay bilish;
- adabiy qahramonlarning xatti-harakatlariga munosabat bildirish olish va uni asoslay bilish;
- yuksak didli va aqlan barkamol adabiy qahramonlarning xislatlarini ochib bera olish;
- musiqa yoki rang tasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qilish va uni so‘z bilan ifodalab berish;
- o‘rganilgan asarlarda tasvirlangan badiiy timsollar xususiyatiga xos bo‘lgan xislatlarni anglab, ularga munosabat bildirish olish;
- o‘rganilgan asarlardagi adabiy qahramonlar xususiyatiga xos bo‘lgan fazilatlariga mustaqil fikr bildirish olish;
- o‘rganilgan badiiy asarlar timsollarining tabiatidagi milliy xususiyatlarni anglay bilish;
- adabiyot nazariyasiga doir bilimlarni kitobxonlik amaliyotida mustaqil qo‘llay olish;
- adabiy-tarixiy davrlarga va adiblar ijodiga to‘g‘ri baho bera olish.

Yuqorida keltirib o‘tilgan talablar asosida dastur va darsliklar takomillashtirilishi, bunda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik o‘ziga xosligi ham hisobga olinishi lozim. Bolaning yoshga va psixologiyaga bog‘liq xususiyatlarini jadval ko‘rinishida keltiramiz:

1-jadval

5–9-sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari⁴³

Sinf	Yosh	Psixologik xususiyatlar
5	10-11	5-6-sinflardagi o‘quvchilar og‘zaki va yozma matn uchun reja tuzib, unga amal qila oladilar. O‘smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo‘la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o‘quvchilar atrof-olamdagi bog‘lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga harakat

⁴³ М.Давлетшин ва бошқаларнинг “Ёш ва педагогик психология” (Тошкент, 2007) ўқув қўлланмасидан фойдаланилган.

		qiladilar. Bu davrda o'smiring bilishga bo'lgan qiziqishida progress sodir bo'ladi.
6	11-12	11-12 yoshdan boshlab o'smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O'smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o'rgana boshlaydi. O'smir tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko'tarila olishi, o'quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektini ham rivojlanishini belgilab beradi.
7	12-13	O'smirlilik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o'ta qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga o'z layoqatlarini namoyish etish, shuningdek, ulardan yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. O'smiring kattalarga beradigan savollari mazmunli, mulohazali va aynan o'sha masala doirasida bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar turli farazlarni keltira oladilar, taxminiy fikr yuritib, tadqiqot o'tkaza oladilar hamda ma'lum bir masala bo'yicha muqobil variantlarni taqqoslay oladilar.
8	13-14	O'smirlilik davrida intellektning yuqori darajada rivojlangan bo'lishi qimmatli va obro'li hisoblanadi. O'smir shaxsida va uning bilishga qiziqishidagi o'zgarishlar o'zaro bog'liq bo'ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o'smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, o'zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkurni rivojlanishi bilan belgilanadi.
9	14-15	Mazkur pallada o'spirinlarning tafakkuri tobora faol, mustaqil va ijodiy xususiyat kasb eta boshlaydi. Tafakkur rivojlanishi bilan birgalikda o'quvchilarning nutq madaniyati rivojlanadi. O'spirin turli janrdagi adabiy asarlarni o'qishi, tushunishi orqali mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilish va munozaraga kirishishga o'rganib boradi. O'spirinlik tafakkurining sifatiga uning mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi kabilar kiradi.

O'quvchilarning o'zlashtirishlari kerak bo'lgan ko'nikmalar haqida Davlat ta'lim standartlari(DTS)da mezonlar belgilab qo'yilgan. Tadqiqot obyektimiz umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5–9-sinflar bosqichi bo'lgani sababli, shu bosqichga tegishli ta'lim standarti talablarini keltiramiz:

2-jadval

Ta'lim standarti talablari

O'quvchilar	Daraja	Talablar
--------------------	---------------	-----------------

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilari	A2 darajasi – adabiyot fanini o'rganishning tayanch darajasi	badiiy asarlar asosida yaratilgan audiomatn, videotasvirlarni tinglab tushunadi, tegishli munosabat bildiradi; nasriy, she'riy, dramatik asar namunalarini ifodali o'qiydi va mazmun-mohiyatini tushunadi; badiiy asar syujetini qayta so'zlab beradi; turli janr va hajmdagi 8 – 10 ta she'riy matn yoki uning parchasini yoddan ifodali ayta oladi; adabiy, adabiy-ijodiy va erkin mavzulardagi insholarga xos xususiyatlarni biladi va ushbu yo'nalishlarda insho (5 – 7 sahifa) yoza oladi; adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda turli mavzularda taassurot, referat va ijodiy matn yoza oladi, unda xalq maqollari, matallari, hikmatli so'z, badiiy, publitsistik asarlardan o'rinli foydalana oladi; maktab kutubxonasidan mustaqil foydalana oladi, turli janrdagi adabiyotlarni tanlab mutolaa qiladi, undagi voqea-hodisalar, obrazlar tizimiga munosabat bildiradi.
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining adabiyot fani chuqurlashtirilgan sinflar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinf bitiruvchilari	A2+ darajasi – adabiyot fanini o'rganishning kuchaytirilgan tayanch darajasi	Turli janrdagi matnlarni obrazga kirib ifodali o'qiy oladi; turli janr va hajmdagi 10 – 12 ta she'riy matn va uning parchasini yoddan ayta oladi; badiiy asar asosida yaratilgan kichik sahna ko'rinishlarida qahramonlar rolini ijro etadi.

Yuqoridagi talablar asosida hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim tizimida Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o'rganish qay darajada? Biz maktab tizimini umumlashtirib olgan holda, bu haqdagi ma'lumotlarni jadval ko'rinishida keltirib o'tamiz:

3-jadval

Umumiy o'rta ta'lim tizimida Alisher Navoiy hayoti va ijodining o'rganilishi

Sinf	Darslik	Mualliflar	Nashriyot	Soat	Mavzu
------	---------	------------	-----------	------	-------

1	“O‘qish”	T.G‘afforova, E. Shodmonov, G. Eshturdiyeva	“Sharq”, 2019	1	Alisher Navoiy “Bir kabutar”(“Saddi Iskandariy”dan)
				1	G‘azal mulkingning sultoni
5	“Adabiyot”	S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev	“Sharq”, 2020	1	Alisher Navoiy hayoti
				1	“Hayrat ul-abror” dostoni
				2	“Sher bilan Durroj” hikoyati
6	“Adabiyot”	S.Ahmedov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev	“Ma‘naviyat”, 2017	3	“Mahbub ul-qulub” asari
7	“Adabiyot”	Q.Yo‘ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov	“Sharq”, 2017	1	Alisher Navoiy hayoti
				3	“Sab‘ai sayyor” dostonidan parcha
8	“Adabiyot”	S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo‘chqorov	G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2019	4	Alisher Navoiyning ruboiy, tuyuq va fardlari tahlili
9	“Adabiyot”	Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov	“O‘zbekiston”, 2019	1	Alisher Navoiy va xamsachilik an‘analari
				9	“Farhod va Shirin” dostoni
10	“Adabiyot”	B.To‘xliyev, B.Karimov, K.Usmonova	“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2017	4	Alisher Navoiy lirikasi
11	“Adabiyot”	B.To‘xliyev, B.Karimov, K.Usmonova	“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2018	1	Alisher Navoiy hayoti va ijodi
				3	“Saddi Iskandariy” dostonidan parcha

Berilgan jadval asosida amalga oshiriladigan o‘quv mashg‘ulotlari jami 35 soatni tashkil etadi.

Quyidagi jadvalda Alisher Navoiy asarlarining maktab sinflar kesimida o‘rganilishi haqida ma’lumot berilgan:

4-jadval

Alisher Navoiy asarlarining sinflar kesimida o‘rganilishi

Sinf	Darslik	Muallif	Mavzu	Soat
1	“O‘qish”	T.G‘afforova, E.Shodmonov, G. Eshturdiyeva	Alisher Navoiy “Bir kabutar”	1
			Alisher Navoiyning hikmatli so‘zlari	1
5	“Adabiyot”	S.Ahmedov, B.Qosimov,	“Hayrat ul-abror” dostoni	1
			“Sher bilan Durroj” hikoyati	2

		R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev		
6	“Adabiyot”	S.Ahmedov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev	“Mahbub ul-qulub”	3
7	“Adabiyot”	Q.Yo‘ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov	“Sab’ai sayyor” dostonidan parcha	3
8	“Adabiyot”	S.Olim, S.Ahmedov, R.Qo‘chqorov	Alisher Navoiyning ruboiy, tuyuq va fardlari tahlili	4
9	“Adabiyot”	Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov	“Farhod va Shirin” dostoni	9
10	“Adabiyot”	B.To‘xliyev, B.Karimov, K.Usmonova	Alisher Navoiy lirikasi	4
11	“Adabiyot”	B.To‘xliyev, B.Karimov, K.Usmonova	“Saddi Iskandariy” dostonidan parcha	3

O‘rta umumta’lim maktablarida Alisher Navoiy asarlarining o‘rganilishi 1-sinf dan boshlangan⁴⁴. Vatanparvarlik mavzusidagi “Bir kabutar” hikoyati berilgan. Bir qancha muddat qafasda qamalib, ozod bo‘lgan kabutar o‘z uyining xarobaga aylanganini ko‘rib, ketib qolmabdi. Harakat qilib, uyini tuzatishga kirishibdi. Bu hikoyat “Saddi Iskandariy” dostonidan olingan. Hikoyat o‘quvchilarni vatanparvarlik va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

Yana darslikda Navoiyning hikmatlaridan namunalar keltirilgan:

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.
Oz-oz o‘rganib don bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur.
Yaxshi kishi yomonlardan ham yaxshiligini ayamas.
Yaxshilikni bilmasang, yaxshilarga qo‘shil.

⁴⁴ 2020–2021-o‘quv yilidagi darsliklar nazarda tutilgan.

Hikmatli soʻzlarni yod olish topshirigʻi berilgan, bu esa kelajakda bu hikmatlarning hayot qoidasiga aylanishiga koʻmak beradi.

5-sinf adabiyot darsligida “Sher va Durroj” hikoyati berilgan. Avvalgi nashrlarda toʻgʻrilik haqidagi maqolat ham darslikka kiritilgan edi. Bizningcha, oʻquvchilarga yengillik berish maqsadida olib tashlangan. Lekin maqolat “Hayrat ul-abror” dostonining tuzilishi haqida kengroq tushuncha hosil qilishda zarur vosita boʻla olardi. “Sher va Durroj” hikoyati xalqimizning har bir vakili doimo yodida saqlaydigan asar hisoblanadi, qaysi yoshdagi inson boʻlmasin, hikoyat mazmunini soʻzlab beradi. Buning boisi bayonning soddaligi, voqeaning hayotiyliigi, qahramonlarning toʻgʻri tanlanganligi boʻlishi mumkin.

6-sinf adabiyot darsligiga didaktik xarakterga ega “Mahbub ul-qulub” asari kiritilgan. 6-sinf oʻquvchisining mumtoz adabiyotga oid soʻzlar borasidagi lugʻat boyligini hisobga olganda, darslikdagi baʼzi soʻzlar oʻquvchilarning tushunishi uchun ogʻirlik qiladi. “Mahbub ul-qulub” asari Alisher Navoiy keksalik chogʻida, hayotiy tajribasi katta boʻlgan vaqtda yozgan asaridir. Uni “Hayotiy xulosalar” deb atasak, xato qilmagan boʻlamiz. Muallif insoniy fazilatlar va qusurlar haqida oʻz mulohazalarini bildiradi. Asar gʻoyasi jihatidan ham, soʻzning qoʻllanishi jihatidan ham 6-sinf oʻquvchilari uchun qiyinchilik tugʻdiradi. Alisher Navoiyning hayot haqidagi xulosalarini oʻquvchilarga osonlik bilan yetkazish uchun Alisher Navoiy haqidagi manbalardan unumli foydalanish zarur deb hisoblaymiz.

Maʼlumki, Alisher Navoiy yashagan davr ilm-fan va madaniyat sohasidagi rivojlanishlari bilan tarixda muhim oʻrin tutadi. Oʻquvchilarni ana shu muhit bilan yaqindan tanishtirish, oʻzbek adabiy tiliga tamal toshi qoʻyilgan, yuksak badiiy va ilmiy asarlar yaratilgan davr haqida kengroq tushuncha uygʻotish uchun oʻsha davr adabiy merosidan unumli foydalanish zarur. Adabiyot nazariyasi boʻyicha ijodkorlarning hayotini oʻrganishda quyidagi manbalarga asoslanish kerak:

1. Ijodkorning oʻz asarlaridagi hayotiga doir maʼlumotlar.
2. Ijodkor haqida zamondoshlari xotiralari.

3. Adib haqida yaratilgan asarlar (asosan, XX–XXI asrlarda).

Demak, Alisher Navoiy hayot yo‘li, shaxsiyati haqida so‘z yuritganda, shu jihatlariga e‘tibor berishimiz zarur. Bu borada o‘zbek adabiyoti xazinasida ko‘plab manbalar topiladi. Masalan, adabiyotshunos olim Natan Mallayevning “O‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida Navoiyning baland himmatli ekanligi haqidagi Xondamirning “Makorim ul-axloq” asaridan olingan quyidagi rivoyat berilganki, maktab darsliklarida bu voqea bayonini uchratmaysiz:

“... Abusaid zamonida juma kuni Hirot shahri ichidagi masjidi jomi’da juma namozini ado qilgandan keyin, xiyobonda sayr qilish uchun o‘sha tomonga jo‘nadim. “Mufarrah” ko‘chasiga yaqinlashganimda boshi va oyog‘i yalang holda o‘tirgan bir gadoyini ko‘rdim. U aytar edi:

- Ayolmand kishiman, bir necha och-yalang‘och bolalarim bor, ertadan buyon o‘tirib tilanaman, hozirgacha hech kim bir pul bergani yo‘q.

Ul hazrat (Navoiy) aytdilarki, o‘sha vaqtda yonimda bir tanga bor edi, undan bo‘lak dunyo molidan hech narsam yo‘q edi. O‘z-o‘zimga shunday dedim: mayda va yirik narsalarni yaratuvchiga tavakkal qilib, bu tangani shu darvishga bersang, toki bola-chaqalarining bugungi ovqatini to‘g‘rilasa, senga esa ertalik rizqingni xudoning o‘zi yetkazar.

O‘sha zahotiyoq tangani unga berib, o‘tib ketdim. Namozshomgacha xiyobonda sayr qilib yurib qaytdim. Qaytishda ko‘rdimki, haligi darvish o‘sha joyda o‘tirib, ilgarigi so‘zlarini aytib tilanardi. Uning haddan tashqari yolg‘onligi va tilanchilikdagi o‘ta xarisligidan taajjublandim. Ammo bu ishdan xabardor bo‘lganimni unga bildirmadim...”⁴⁵

Adabiyot o‘qituvchisi Alisher Navoiy hayot yo‘li haqida ma’lumot berganda, manbalardan kengroq foydalanishga e‘tibor berishi kerak.

Ma’lumki, Alisher Navoiy asarlari maktab darsliklariga, asosan, 5-sinfdan boshlab kiritilgan. Buyuk ajdodimiz hayot yo‘lini o‘rganilishi uchun esa 5-, 7-, 11-

⁴⁵ Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1965. – 417-б

sinflarda alohida soatlar ajratilgan. Ushbu sinflarda Alisher Navoiy haqida ma'lumot berilgan tarixiy asarlardan parchalar keltirilgan. Masalan, 5-sinf "Adabiyot" darsligida Xondamirning "Makorim ul-axloq" asaridagi mavlono Lutfiyning yosh Alisherga bergan yuksak bahosi e'tirof etilgan parcha keltirilgan.

7-sinf "Adabiyot" darsligida "Vaqfiya" asaridan quyidagi parcha keltirilgan: "Ilgimdin kelganicha zulm tig'in ushotib (sindirib), mazlum jarohatig'a intiqom marhamini (qasos malhamini) qo'ydim. Va ilgimdin kelmaganni ul Hazrat (Husayn Boyqaro) arzig'a yetkurdim"⁴⁶. Ushbu parcha aynan asliyatdan keltirilgani ayni muddao deb hisoblaymiz. Chunki ushbu parchada Alisher Navoiyning davlat ishiga mas'uliyat bilan yondashishi va xalq uchun qanchalik mehribon ekanligi yaqqol ko'rinadi.

10-sinf "Adabiyot" darsligida Alisher Navoiy hayoti haqida ma'lumot berilmasa ham, XV asrning ikkinchi yarmi ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida ko'plab ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari, Alisher Navoiyning zamondoshlari Zahiriddin Muhammad Bobur, Xondamir, Abdurahmon Jomiy, Rashidiy, Hakimshoh Qazviniylarning fikrlari keltirilgan. Ulug'larning berilgan fikrlari maktab tizimi uchun yangilik hisoblanadi, chunki bu sitatalar avval uchramagan. 10-sinf "Adabiyot" darsligining yana bir e'tiborli tomoni – Navoiy bobomizning maktab darsliklariga kiritilmagan bir necha asarlari haqida ma'lumotlar berilgan. "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon", "Mufradot", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Sab'ati abhur", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam", "Nasoyim ul-muhabbat", "Nazm ul-javohir", "Munshaot" kabilar shular jumlasidandir.

11-sinf "Adabiyot" darsligida Xondamirning "Makorim ul-axloq" asaridan parchalar keltirilgan. Ularda "Xusraviya", "Ixlosiya" madrasalari, "Xalosiya" xonaqohi qurilishi haqida so'z yuritiladi, mavlono Lutfiyning e'tiroflari aks etgan

⁴⁶ Yo'ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf o'quvchilari uchun. – Toshkent: Sharq, 2017. – 170-b.

parcha ham beriladi. Bu voqeadan 5-sinfda boxabar bo'lgan o'quvchi yosh Alisherga ustoz tomonidan berilgan ushbu yuksak bahoni endi bir umr unutmaydi.

Shu o'rinda yana ikki hikoyat keltirilgan. Birida chumoliga ham ozor berishni istamaydigan Amir (Alisher Navoiy) tasvirlangan bo'lsa, ikkinchi hikoyatda o'z omboridagi bor g'allasini hech bir g'arazsiz xalqqa tortiq qilib yuborgan Amir haqida so'z boradi.

“Hidoyatga erishgan Amir bolalik chog'laridan umrining oxirlarigacha o'z barakali vaqtining ko'p qismini ilm egallash va kamolotga erishish ishiga sarflab, bir lahza bo'lsa-da turli bilimlarni o'rganish va har xil ko'nikmalarni egallashdan tinmadi”.⁴⁷

“... agar ilgarigi davrlarda yashab o'tgan shoirlar ul hazratning muborak zamonlarigacha yetib kelishganida [va ushbu saodatli zamonni ko'rishganida] edi, she'r yozadigan daftarlarini yopib, (ya'ni she'r yozishni yig'ishtirib), dunyoning turli tomonlaridan uning fazilat makoni bo'lgan ostonasi tomon shoshilgan bo'lardilar”.⁴⁸

Yuqorida keltirilgan fikrlar Xondamirning “Makorim ul-axloq” asaridan olingan. Parchada Alisher Navoiyning naqadar buyuk insonligi va unga nisbatan muallifning cheksiz hurmati aks etgan.

Umumta'lim maktabi “O'qish” va “Adabiyot” darsliklari tahlilidan shu narsa aniq bo'ldiki, Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati haqida ko'plab tarixiy va zamonaviy manbalardan foydalanar ekanmiz. Bu manbalar bizga ulug' shoirimiz shaxsiyati haqida mukammalroq ma'lumot olishimizga yordam beradi.

Umuman, maktab ta'limida Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan bog'liq o'quv materiallarni zamonaviy yondashuvlardan foydalangan holda innovatsion shaklda o'qitish metodikasini ishlab chiqishni bugungi davr taqozo qilib turibdi.

⁴⁷ To'xliyev B.va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari uchun. I qism. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 118-b.

⁴⁸ To'xliyev B.va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari uchun. I qism. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 119-b.

Adabiyot fani doirasidagi mavzularni o'zlashtirishda uyga beriladigan vazifalar, shu jumladan, savol-topshiriqlar ham muhim ahamiyatga ega. Adabiyot o'qitish metodikasi bo'yicha mutaxassis olim, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Omonulla Madayev bir suhbatda "Alisher Navoiyning birorta asarini tahlil qilib, maktabda Alisher Navoiy shaxsiga muhabbat uyg'otish mumkin emas. Maktab dasturida Alisher Navoiyning shaxsiy fazilatini o'quvchiga tushuntirish orqali Navoiyga hurmat hosil qilish mumkin",- degan fikrni bildirgan hamda quyidagi mavzularda matnlar (insho) tuzish o'rinli ekanligini aytib o'tgan: "Navoiy – do'st" (5-sinf), "Alisher Navoiy – vatanparvar" (6-sinf), "Navoiy – xalqparvar" (7-sinf), "Alisher Navoiy – shoir" (9-sinf), "Navoiy – davlat arbobi" (10-sinf) va hokazo. Bugungi kunda amalda mavjud darsliklarda esa quyidagi mavzulardagi matnlarni tuzish haqida topshiriqlar berilgan: "Inson odobi bilan go'zal" ("Mahbub ul-qulub" asosida) (6-sinf), "Men ishqni qanday angladim," (9-sinf), "Navoiyning tasvirlash mahorati", "Navoiyning ilmiy merosi" (10-sinf). Bunday matnlarni tuzish, insho yozish asnosida o'quvchilarning mustaqil fikrlash doirasi kengayadi, voqea-hodisaga o'z shaxsiy mulohazalarini ifoda etish salohiyati oshadi.

Biz adabiyot darsliklaridagi savol-topshiriqlarni ham tahlilga tortdik. 5-sinf darsligida "O'ninchi maqolatning "Rost so'z ta'rifida" qismida shoir qanday fikrlarni ilgari suradi?" savoli berilgan, lekin darslikda ushbu maqolatdan parcha mavjud emas. "Alisherning bolalik yillari to'g'risida nimalarni bilasiz?", "Alisher Navoiyning o'rta yoshlik yillari hayoti va ijodi haqida so'zlang" kabi an'anaviy savollarga javob berishda o'quvchilar darslikdagi ma'lumotlarni takrorlab beradilar, tahlil qilmaydilar. "Sher bilan Durroj" hikoyatidan qanday saboqlar olish mumkin?", "Ahil yashash, qo'shnichilik munosabatlari haqida o'z tushunchalaringizni so'zlang" kabi savollar esa o'quvchilarning so'z boyligini, nutq va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Darslikda "Sher bilan Durroj" hikoyatining asli va nasriy bayoni berilgani sababli, o'quvchilarga ushbu matnlarni yonma-yon qo'ygan

holda, o'zlashtirilishi qiyin so'zlar lug'atini tuzish vazifasini berish mumkin. Bunday topshiriqlar o'quvchilarning lug'at boyligi oshishiga ko'mak beradi.

6-sinf darsligida "Mahbub ul-qulub" asarida keltirilgan insoniy fazilatlar va illatlar haqida savollar berilgan, ular o'quvchilarni fikrlash, shaxsiy qarashlarini bayon etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Asarning asli va nasriy bayonini qiyoslagan tarzda matn ustida ishlash bo'yicha qiziqarli topshiriqlar berish mumkin. Masalan, aynan bir-biriga nisbatan zid ma'noli bo'lgan fazilat va illatlar lug'atini tuzish. Bunda ona tili o'quv mashg'ulotlaridagi "Zid ma'noli so'zlar" mavzusi bilan integratsiya qilish ham mumkin. Ushbu darslikda "Safarning foydalari to'g'risida" parchasining nasriy bayoni berilgan, lekin asli kiritilmagan. Shu parchani o'qituvchi topib kelishi yoki o'quvchilarga bu vazifani uyda mustaqil bajarish uchun berib yuborishi mumkin. Internet tarmog'idan faol foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lgan o'quvchilar uchun bu topshiriq qiyinchilik tug'dirmaydi.

7-sinf darsligidagi birinchi savol – "Navoiyning "shams ul-millat" (millat quyoshi) deb ulug'lanishi sababini ayting." 5–6-sinf darsliklarida ham, 7-sinf darsligida ham bu haqida ma'lumot berilmagan. Demak, o'qituvchining o'zi ushbu ma'lumotni taqdim etadi yoki o'quvchilarga mustaqil ish sifatida beradi. "Sab'ai sayyor" dostonidagi Bahrom va Dilorom to'g'risidagi qoliplovchi hikoya haqida ma'lumot berish ham o'quvchilarning doston, umuman, xamsachilik an'analari haqidagi tushunchalarini kengaytiradi. Bunda voqealar rivoji qora qasrda boshlanib, oq qasrda tugaganligiga ham e'tibor berish zarur (Natan Mallayevning "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligida ham bunga urg'u berib o'tilgan). "Mehr va Suhayl" rivoyatidagi voqealar yuzasidan o'ylashga undaydigan, matnda javobi ochiq berilmagan savollarni berish asarga qiziqish uyg'otadi. Masalan: "Sizningcha, Navdarshohning kiyik ketidan quvib, yo'ldan adashishi qanday majoziy ma'noni anglatadi?", "Rivoyatdagi qaysi qahramonni eng faol deb hisoblaysiz va nima uchun?"

8-sinf darsligida mustaqil o‘qish uchun berilgan ruboiy, tuyuq va fardlar izohi bo‘yicha savol va topshiriqlar berish mumkin. Chunki ularning har biriga namuna darslikda keltirilgan.

Ma’lumki, 9-sinf darsligiga “Farhod va Shirin” dostonidan salmoqli parchalar kiritilgani sababli asarni o‘rganishga ham boshqa sinflarga qaraganda ko‘proq soat ajratilgan. Parchalar orasida berilgan savol va topshiriqlarda matn bilan ishlashga katta e’tibor berilgan. Ayrim baytlardagi mazmun va g‘oyaning izohlanishiga doir topshiriqlar ko‘p. Bolani fikrlashga undaydigan savollar ham talaygina. Masalan: “Farhoddagi g‘amginlikning sababini Siz qanday izohlaysiz?”, “Farhodning Xusravga bergan tanbehiga qo‘shilasizmi? Uning so‘zlariga munosabat bildiring” yoki “Farhodning noma’lum ko‘zgu tilsimini bilish uchun hayotini xavf-xatarga solib bo‘lsa ham safarga chiqqanligini qanday baholaysiz? Sizningcha, u to‘g‘ri ish tutdimi?” Darslikka “komil inson” tushunchasi borasida savollar kiritilmagan. O‘quvchilar komil inson sifatida qanday kishilarni hisoblashlari, Farhoddagi mukammallik belgilari to‘g‘risida mustaqil fikrlarini bildirishlari juda muhim.

Zamon o‘zgarishi, yangicha texnologiyalarning ta’lim tizimiga ham shiddat bilan kirib kelishini hisobga olgan holda, davlat ta’lim standartlariga o‘zgartirish kiritish vaqti ham keldi. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va Respublika ta’lim markazi tomonidan “Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi” loyihasi tavsiya etilgan. Loyihaning adabiyot faniga ajratilgan qismida nutqiy va lingvistik kompetensiyaga, adabiyot o‘qitishdagi mavjud muammolarga, adabiyot o‘qitishni rivojlantirish strategiyasi va ustuvor yo‘nalishlariga, adabiyot fanining o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirishga, adabiyot o‘quv fanining moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlashga, har bir sinf uchun baholash mezonlariga, adabiyot o‘qitish jarayoniga raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim zamonaviyligiga erishishga, adabiyot fanining umumta’lim fanlari bilan integratsiyasiga, adabiyot o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishga, adabiyot fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim

maktablari bitiruvchilariga qo'yiladigan talablarga alohida e'tibor berilgan. Bevosita tadqiqotimiz mavzusi nuqtayi nazaridan, loyihada Alisher Navoiy hayoti va ijodi bo'yicha o'rganilishi rejalashtirilgan asarlar haqidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz. Ularni jadval shaklida keltirib o'tamiz:

5-jadval

**“Umumiy o'rta ta'limning milliy o'quv dasturi”da Alisher Navoiy
hayoti va ijodiga ajratilgan mavzular**

Sinf	Rejalashtirilgan mavzu
5-sinf	Alisher Navoiy: Hikmatlari
6-sinf	Alisher Navoiy: “Sher bilan Durroj” hikoyati yoki “Yoqut” hikoyati yoki “Hotami Toy” hikoyati (“Hayrat ul-abror” dostonidan)
7-sinf	Alisher Navoiy: Qit'alari va fardlari. Nazariy ma'lumot: Qit'a va fard haqida tushuncha
8-sinf	Alisher Navoiy: G'azallar (“Kimki, bir ko'ngli buzug'ning xotirin shod aylagay”, “Kimga qildim bir vafokim”, “Meni men istagan o'z suhbatig'a arjumand etmas”, “Qoshi yosinmu deyin...”, “Kecha kelgumdur debon...”, “Yordin ayri ko'ngul”, “Men o'zimni topmasam ...”). Nazariy ma'lumot: She'riy san'atlar haqida tushuncha.
10-sinf	Alisher Navoiy: “Xamsa”chilik haqida tushuncha. “Farhod va Shirin” dostoni. Nazariy ma'lumot: Komil inson

Ushbu loyihada Alisher Navoiy asarlari soddadan murakkabga, kichik hajmdan katta hajmga qarab borilgan. G'azallar va “Farhod va Shirin” dostoni hajm va mazmun jihatidan qit'a, fard va hikmatli so'zlarga nisbatan murakkabdir. Lekin adabiyot dasturiga Alisher Navoiy ruboiylaridan namunalar kiritilmagan. Ruboiylar o'zbek mumtoz adabiyotining eng ommabop janrlaridan bo'lib, Navoiy ruboiylari, ayniqsa, mashhur hisoblanadi. Shu jumladan, tuyuqlar haqida ham shu mulohazani aytib o'tish mumkin.

Tadqiqotimiz mavzusi yuzasidan umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili va adabiyoti o'qituvchilari o'rtasida Alisher Navoiy hayoti va ijodining o'qitilishiga

munosabatlarini aniqlashga doir so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnoma natijalari quyidagi jadvalda berilgan:

6-jadval

O‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari

Savollar va javob variantlari	Berilgan javoblar soni va foizi	Javob berilmagan	Savollar va javob variantlari	Berilgan javoblar soni va foizi	Javob berilmagan
1. A) B) C) D)	15 11 62 12	-	2. A) B) C) D)	18 26 24 32	-
3. A) B) C) D)	17 35 43 5	-	4. A) B) C) D)	71 12 10 7	-
5. A) B) C) D)	10 65 12 13	-	6. A) B) C) D)	48 15 26 11	-
7. A) B) C) D)	36 20 32 12	-	8. A) B) C) D)	54 16 22 8	-
9. A) B) C) D)	72 8 11 9	-	10. A) B) C) D)	56 13 17 14	-

1-savolda “Adabiyot” darsliklarida Alisher Navoiy shaxsiyatiga oid qanday nazariy ma’lumotlar berilishi kerakligi so‘ralganda, bu savolga 15% o‘qituvchilar ta’lim yillari haqidagi ma’lumot berilishi, 11% qatnashchilar yaratgan barcha asarlari haqida nazariy ma’lumotlar berilishi, 62% o‘qituvchi Alisher Navoiy haqidagi zamondoshlari xotiralari berilishi, 12% ishtirokchi Alisher Navoiyning bunyodkorlik borasida qilgan ishlari haqida ma’lumot berilishi kerakligini bildirgan.

Bundan ko‘rinib turibdiki, Alisher Navoiy shaxsiyati haqidagi ma’lumotlar zamondoshlarining xotirasiga asoslanishi kerak deb hisoblovchilar ko‘pchilikni tashkil etadi. Chunki shoir bilan hayotda tanish bo‘lganlar u haqida hammadan ko‘p biladilar.

Darslikda Alisher Navoiy asarlari yuzasidan berilgan savol va topshiriqlar haqidagi 2-savolga o‘qituvchilarning 18%i savol va topshiriqlar yaxshi tuzilganligi, ulardan doim foydalanishlarini, 16%i savol va topshiriqlarni qayta ko‘rib chiqish hamda yozma tarzda bajariladigan topshiriqlarni ko‘paytirish kerakligini, 14%i ba’zi sinflardagi savol-topshiriqlar matnni o‘zlashtirishga yordam bermasligi, matndagi ma’lumotlarni yod olishga o‘rgatishini, 52%i esa o‘quvchilarni fikrlashga undaydigan savollarni ko‘paytirish kerakligi haqida mulohaza bildirgan. Faqat 18% qatnashchigina darsliklardagi savol va topshiriqlardan qoniqishlarini bildirgan, bu ularning o‘z ustilarida ko‘proq ishlashlari, kreativ fikrlashlari kerakligini bildiradi.

3-savol bo‘yicha qatnashchilarning 17%i g‘azallarni sharhlashda qiyinchilik tug‘ilishi, she’riy san’atlarni yaxshi bilmasligi, 35%i mumtoz adabiyot uchun lug‘atlar kamligi sababli so‘zlar izohida, 43%i aruz vaznini bilmasligi sababli qiynalishi, 5%i doston matnlarining nasriy bayoni bilan ishlashda qiyinchilikka duch kelishlarini ta’kidlagan. Bundan xulosa qilish mumkinki, maktab o‘qituvchilarining ko‘pchilik qismi aruz vazni, she’riy san’atlarda qiynalishadi. Va, albatta, maktab kutubxonalarida mumtoz adabiyot asarlari uchun lug‘atlarni ko‘paytirish zarur.

“Adabiyot” darsliklarida Alisher Navoiy asarlarining sinflar kesimida taqsimlanishi haqidagi savolga o‘qituvchilarning ko‘pchilik qismi(71%) “Mahbub ul-qulub” asari 6-sinf uchun qiyinchilik tug‘dirishi haqida fikr bildirgan. Demak, “Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitishda uni soddalashtirib tushuntirishga xizmat qiladigan innovatsion metodlardan foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. 12% ishtirokchi 8-sinf darsligiga g‘azallardan namunalar kiritish kerakligi, 10% qatnashchi 5–6-sinflarga Alisher Navoiy hikmatlari va ruboiylari kiritilishi, 7%i quyi sinflarda kichik janrlardan namuna berilishi tarafdori ekani ma’lum bo‘ldi.

Alisher Navoiy gʻazallarini oʻrganishda 65 nafar oʻqituvchi gʻazal mazmunini oʻzlashtirishni, 10 nafar oʻqituvchi xotirani mustahkamlagani sababli gʻazal yodlashni, 12 nafar oʻqituvchi oʻquvchining nazariy bilimi oshishi bois sheʼriy sanʼatlarni oʻzlashtirishni, 13 nafari oʻquvchi gʻazal oʻqish texnikasini egallashi uchun gʻazal vaznini aniqlashni muhim deb hisoblaydi. Bu oʻrinda 65 nafar oʻqituvchining fikri toʻgʻriligini shunday asoslash mumkinki, gʻazal mazmunini oʻzlashtirgan oʻquvchi uni yodlashga ham qiynalmaydi, vaznini ham aniqlaydi, sheʼriy sanʼatlarini ham ajrata oladi.

6-savolga javobdan maʼlum boʻldiki, “Adabiyot” darsliklari uchun yozilgan oʻqituvchi kitoblaridan 48 nafar oʻqituvchi faol foydalanar ekan, 11 nafari esa umuman foydalanmas, darslik bilan kifoyalanar ekan. 15 nafari esa kam foydalanadi, maktab oʻqituvchilari uchun shart emas deb hisoblaydi. Oʻqituvchi kitoblaridan unumli foydalanmaydigan oʻqituvchilar oʻquvchilarga bilim va koʻnikmalarni kerakli darajada yetkazib bera olmaydi. Shu sababli, har bir sinf uchun oʻqituvchi kitoblarini yaratish hamda maktab kutubxonalarini yetarli tarzda taʼminlash zarur.

Oʻquvchilarning Alisher Navoiy hayoti va ijodi bilan chuqurroq tanishtirish uchun qoʻshimcha adabiyot sifatida amaliy ish daftarlarini 36 nafar oʻqituvchi, badiiy asarlarning toʻliq matnini 20 nafar oʻqituvchi, mumtoz adabiyot uchun maktabga moslangan lugʻatlarni 32 nafar oʻqituvchi, Alisher Navoiy haqidagi ilmiy-uslubiy maqolalarni 12 nafar pedagog zarur deb hisoblashi aniqlandi. Demak, adabiyot darslarida matn bilan amaliy ishlashga ham oʻquvchilar lugʻat boyligini oshirishga eʼtibor beruvchi oʻqituvchilar koʻpchilikni ($32+36=68$) tashkil etadi.

Navoiy ijodini oʻrganishga bagʻishlangan dars jarayonida 54 nafar oʻqituvchi “Aqliy hujum” usulidan, 16 nafar oʻqituvchi FSMU usulidan, 22 nafari SWOT metodidan, 8 nafari esa boshqa metodlardan foydalanishi maʼlum boʻldi. Bu statistika interaktiv metodlardan unumli foydalanishga eʼtibor berish, yangicha qarashlarni amaliyotga joriy etish zarurligini anglatadi.

9-savolga javob berishda o'qituvchilarning ko'pchilik qismi (72%) "Adabiyot" darsligida berilgan Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari o'quvchi uchun murakkablik tug'diradi deb hisoblashgan. Bu asardagi fikrlar 60 yillik hayot xulosasi bo'lgani sababli, o'quvchilarning tushunishi qiyinligi tabiiy holat. Bunda o'quvchilarning qabul qilishiga mos va qulay yo'lni tutish lozim bo'ladi. "Farhod va Shirin" dostonini o'rganish qiyinligini 8%, "Saddi Iskandariy" asari qiyinligini 11%, Alisher Navoiyning lirik asarlarini tushunish og'irligini 9% o'qituvchi e'tirof etgan.

"Maktab dasturiga Alisher Navoiyning qaysi asari kiritilishi kerak deb hisoblaysiz?" degan 10-savolga 56 nafar ishtirokchi "Munojot" asarini (islom dini haqida tushunchaga ega bo'lmay turib, Navoiy asarlarini chuqur o'rganish mumkin emas), 13 nafar ishtirokchi "Lison ut-tayr" dostonini (tasavvuf haqida ham ozgina ma'lumot berilishi kerak), 17 nafar ishtirokchi "Layli va Majnun" dostonini (ilohiy ishq haqida, Ollohga bo'lgan muhabbat haqida yozilgan asar), 14 nafar qatnashchi "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini (tilshunoslik haqidagi asar) kiritish kerakligi fikrini bildirgan. O'rta maktab o'qituvchilarning Alisher Navoiyning darsliklarga kiritilmagan asarlari mazmun-mohiyatidan ham xabardor bo'lishlari zarurligi bu savolda aks etgan.

So'rovnoma natijalaridan shunday xulosa qilish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari kelajak avlod bilimiga poydevor qo'yish vazifasini bajarayotganliklari mas'uliyatini his etgan holda o'z ustilarida muntazam tarzda ishlashlari, qo'shimcha adabiyotlar bilan tanishishlari, mumtoz adabiyot namunalari uchun maxsus yaratilgan lug'atlardan unumli foydalanishlari, o'qitishning yangicha va ilg'or metodlarini o'quv mashg'uloti jarayonida qo'llashlari zarurligi yana bir bor isbotlandi. O'quvchining tafakkur doirasi darslik bilan cheklanmasligi, o'z fikrini erkin va ravon ifodalashiga erishish bugungi adabiyot o'qituvchisining muhim vazifalaridan biridir.

BIRINCHI BOB YUZASIDAN XULOSALAR

1. Alisher Navoiy hayoti va ijodini kognitiv-pragmatik, affektiv, integrativ va estetik yondashuvlar asosida o'rganish bugungi adabiy ta'limning bosh vazifalaridan biri hisoblanib, o'quvchilarni mumtoz asarlarni tushunish, his qilish, anglaganlarini hayotiy vaziyatlarga bog'lay olish ko'nikmalarini rivojlantirish, ijodkor asarlaridan estetik zavq olish darajasiga olib chiqish zarurati mavjud.

2. Maktab adabiy ta'limida o'zining salmoqli o'rnini egallagan Alisher Navoiyning ibratli hayot yo'li hamda boy adabiy merosi ko'p yillar davomida bir qator olimlar, amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan chuqur va atroflicha o'rganilgan, amaliyotga joriy etilgan, ammo o'quvchilarning aksariyati ta'lim usullarining ayrimlari yetarli darajada takomillashmaganligi tufayli Navoiy asarlarini yaxshi tushunmaydi va buning oqibatida o'rganishga qiziqmaydi.

3. Sinflar kesimida Alisher Navoiy asarlari o'quvchilarning intellektual imkoniyati, psixofiziologiyasiga qanchalik mos kelishi, lug'atlar ustida ishlay olish qobiliyati, so'z boyligi zaxirasiga tayangan holda taqdim etilishi lozim.

4. Alisher Navoiy hayoti va ijodini uning o'zi yozgan asarlaridagi hayotiga doir ma'lumotlar, ijodkor haqida zamondoshlari xotiralari hamda ijodkor haqida yaratilgan asarlar (asosan, XX–XXI asrlarda) asosida o'rganish lozim.

5. Sinflar kesimida tavsiya etilgan tarixiy va zamonaviy manbalardan foydalanish Alisher Navoiy siymosi, ijod namunalari bilan o'quvchilar o'rtasidagi ma'naviy-ma'rifiy bog'liqlikni yuzaga keltiradi.

6. So'rovnoma natijalari xulosasiga ko'ra Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish bilan bog'liq ta'lim mazmuni hamda metodikasini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish zarur.

II BOB. ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

2.1-§. Alisher Navoiy hayoti va ijodini zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish mazmuni

Bugungi kunda o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchining ma'lum miqdordagi bilim, ko'nikma va malakalarni to'plashigina emas, balki uni o'quv faoliyatining mustaqil subyekti sifatida tayyorlashdan iboratdir. Zamonaviy ta'lim ham o'qituvchining, ham o'quvchining faoliyatiga asoslanadi. Aynan shu maqsad mustaqil o'rganishni, bilimlarini takomillashtirishni biladigan ijodkor, faol shaxsni tarbiyalashga yo'naltiriladi. O'qishga innovatsion yondashuv esa o'quv jarayonini shunchaki qiziqarli mashg'ulot yoki o'yinga aylanmasdan, bola uchun ham quvonch, ham foyda keltiradigan tarzda tashkil etishga imkon beradi.

Fan va madaniyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan ajdodlarimizning ma'naviy va madaniy merosini kelajagimiz vorisi bo'lgan o'quvchilarga singdirish masalasi bugungi kunimizning dolzarb muammolaridan biridir. Bu vazifani amalga oshirishda asosiy yuk, odatda, ko'proq adabiyot fanining zimmasiga tushadi. Zero, o'rta maktabda adabiyot fanini o'qitishning bosh maqsadi sog'lom fikrlaydigan, e'tiqodi mustahkam, boshqalarning tuyg'ularini anglaydigan, teran idrokli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o'z xatti-harakatlarini to'liq nazorat qila oladigan komil insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishdan iboratdir. Alisher Navoiy ijodini o'rganish to'laligicha komil insonni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Yozuvchining tarjimai holini o'rganish uning qarashlarini bilishga, shaxsiyati, fe'l-atvori va taqdirining o'ziga xosligini ko'rishga yordam beradi. Har bir adabiy asar uning muallifi shaxsini aks ettiradi, muallifning pozitsiyasini ifodalaydi. Bu maktab o'quvchilarini badiiy matnni obyektiv tushunishga olib borishga xizmat qiladi.

O'quvchilar yozuvchi hayoti haqidagi ma'lumotlarni nafaqat bilishlari, balki berilgan ma'lumotlar asosida fikrlay olishlari uchun o'qituvchi ularni muammoli vaziyatlarga tushirishlari kerak. Bu yozuvchining ijtimoiy hodisalarga munosabatini

aniqlashtirish bilan (“Nega Alisher Navoiy ilm ahliga homiylik qildi?”, “Nima uchun Navoiy obodonlashtirish ishlariga katta e’tibor qaratgan?”), ilm bilan (“Navoiyning o‘zbek tili va adabiyotga oid ilmiy asarlari haqida qanday ma’lumotlarni bilasiz?”), ma’naviyat bilan (“Navoiy ustozlari bilan qanday munosabatda bo‘lgan?”, “Ansoriyning qabri atroflarini supurganini tarixiy fakt deb o‘ylaysizmi?”, “Qaysi zamondoshining Alisher Navoiy haqidagi xotiralari sizni to‘lqinantirgan?”) bog‘liq savollar bo‘lishi mumkin.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga o‘rta umumta’lim maktablarining har bir sinfida to‘xtab o‘tiladi. Quyidagi jadvalda Alisher Navoiy hayot yo‘lining o‘rganilishi aks etgan:

7-jadval

Alisher Navoiy hayot yo‘lining sinflar kesimida o‘rganilishi

Sinf	Darslik	Muallif	Mavzu	Soat
5	“Adabiyot”	S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev	Alisher Navoiyning bolaligi haqida ma’lumot beriladi.	1
7	“Adabiyot”	Q.Yo‘ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov	Alisher Navoiy hayoti, asarlari haqida ma’lumot beriladi.	1
9	“Adabiyot”	Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov	Alisher Navoiy va xamsachilik an’analari.	1
11	“Adabiyot”	B.To‘xliyev, B.Karimov, K.Usmonova	Alisher Navoiy hayoti va ijodi.	1

5-sinf “Adabiyot” darsligining 154–156-betlarida Alisher Navoiy hayoti haqida ma’lumot berilgan. Ma’lumotlar 5-sinf o‘quvchisiga mos holda sodda til bilan bayon qilingan. Alisher Navoiy hayotidagi muhim voqealar bayon qilingan: kichik yoshidan she’rlar yozganligi, “Mantiq ut-tayr”ga bo‘lgan muhabbati,

Shohrux Mirzo vafoti va Iroqqa ko‘chish, Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashuv, tahsil yillari, vazirlik va hokimlik faoliyati, “amiri kabir” (ulug‘ amir), “amir ul-muqarrab” (podshohga eng yaqin amir) unvonlari. Yana shoirimizning taxalluslari ma’nosi va mavlono Lutfiyning e’tirofi keltirib o‘tilgan. Darslikning avvalgi nashrlarida Alisher Navoiyga nisbatan “G‘azal mulking sultoni” ta’rifini Maqsud Shayxzoda birinchi marta ishlatganligi haqida ma’lumot berilgan edi, keyingi nashrlarda bu fikr olib tashlandi. Bizningcha, o‘quvchi bu yuksak e’tirofdan xabardor bo‘lishi kerak.

6-sinf adabiyot darsligida bevosita Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida gapirilmasa-da, ungacha yashagan xamsanavislar nomlari, Oybekning “Navoiy” romani haqida ma’lumot va Islom Karimovning Alisher Navoiy haqida “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida keltirib o‘tgan sitatalari berilgan. Bular 6-sinf o‘quvchisi uchun juda muhim ma’lumotlardir.

7-sinf adabiyotining 168–172-betlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida ma’lumotlar berilgan, ular 5-sinfdagiga qaraganda ancha keng, bu tabiiy hol, albatta. Shoirning ota-onasi, tog‘alari, “Mantiq ut-tayr”ni yod olgani, Sharafiddin Ali Yazdiyning duosi, saroyda xizmat qilishni boshlashi haqida qiziqarli faktlar keltirilgan. Ayrim shaxslar haqidagi ma’lumotlarni keltiramiz:

7-jadval

Tarixiy shaxslar haqida ma’lumot(7-sinf darsligi asosida)

Shaxs nomi	Ma’lumot
G‘iyosiddin Muhammad	Navoiyning otasi. Temuriylarga yaqin amaldorlardan bo‘lib, o‘z davrining obro‘li va ma’rifatli kishilaridan sanalgan
Davlatshoh Samarqandiy	Adabiyotshunos. Uning yozishicha, G‘iyosiddin o‘g‘lining tarbiyasiga jiddiy e’tibor bergan.
Onasi	Kobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi bo‘lgan
Mir Said	Tog‘asi. Kobuliy taxallusi bilan she’rlar yozgan
Muhammad Ali	Tog‘asi. G‘aribiy taxallusi bilan she’rlar yozgan, sozanda va xattot ham bo‘lgan.
Abulqosim Bobur	Temuriyzoda hukmdor. G‘iyosiddinni Sabzavorga hokim qilib tayinlaydi. Otasi vafotidan so‘ng Alisher uning xizmatiga kiradi.

Abusaid Mirzo	Abulqosim Boburdan so‘ng taxtga o‘tirgan hukmdor. Alisherning ota mulkini musodara qiladi, tog‘alari Kobuliy va G‘aribiylarni qatl ettiradi.
Fazlulloh Abulays Samarqandiy	Alisherning Samarqanddagi alloma ustoz

Bulardan tashqari Alisher Navoiy asarlari haqida ma’lumotlar berilgan. Ularni jadval ko‘rinishida berishimiz mumkin:

8-jadval

Alisher Navoiy asarlari haqida ma’lumot(7-sinf darsligi asosida)

T/r	Asar nomi	Izohi	Ma’lumot
1	“Muhokamat ul-lug‘atayn”	“Ikki til muhokamasi”	Navoiy turk (o‘zbek) va sort (fors) tillarini solishtirib, o‘z ona tilining tunganmas imkoniyatlarini ilmiy asoslab berdi. Bu asarda shoir o‘zining yoshlik chog‘larida mashhur o‘zbek va fors shoirlari nazmidan 50 ming bayt (100 ming misra) she’rni yod bilganini yozadi
2	“Devon”	“Ilk devon”	Muxlislari tomonidan tuzilgan
3	“Vaqfiya”		“Ilgimdin kelganicha zulm tig‘in ushotib (sindirib), mazlum jarohatig‘a intiqom marhamini (qasos malhamini) qo‘ydum. Va ilgimdin kelmaganni ul Hazrat (Husayn Boyqaro) arzig‘a yetkurdim”
4	“Badoye ul-bidoya”	“Badiiylik ibtidosi”	1472-1476-yillarda tuzilgan devon
5	“Navodir un-nihoya”	“Tunganmas nodirliklar”	1476-1483-yillarda tuzilgan devon
6	“Xamsa”		Abdurahmon Jomiy Navoiy “Xamsa”siga yuksak baho berdi. Husayn Boyqaro buyuk shoirni o‘zining oq otiga mindirib, unga jilovdorlik qilib, Hirot ko‘chalarini aylantirdi.
7	“Hayrat ul-abror”		Navoiy bu dostonida Husayn Boyqaroni shoh G‘oziy deya ulug‘lagan.

8	(Asarlarning nomlari darslikda keltirilmagan)		Do‘stlari Sayyid Hasan Ardasher, Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammadlarning xotirasiga bag‘ishlab esdaliklardan iborat nasriy asarlar yozgan.
9	“Tarixi muluki Ajam”	“Ajam, ya’ni arab bo‘lmagan mamlakatlar podshohlari tarixi”	O‘tmish mavzusida yozilgan.
10	“Tarixi anbiyo va hukamo”	“Payg‘ambarlar va donishmandlar tarixi”	O‘tmish mavzusida yozilgan.
11	“Mezon ul-avzon”	“Vaznlar o‘lchovi”	Aruzga doir asar
12	“Majolis un-nafois”	“Nafis majlislar”	Tazkirachilikka oid asar (tazkira – ijodkorlar haqida ixcham ma’lumot va ayrim asarlaridan namuna keltiriladigan to‘plam)
13	“Sab’atu abhur”	“Yetti dengiz”	Lug‘atshunoslikka oid asar
14	“Xazoyin ul-maoniy”	“Ma’nolar xazinasini”	To‘rt devondan iborat she’riy to‘plam.
15	“Devoni Foni”		Fors tilidagi she’rlari to‘plangan devon.
16	“Nasoyim ul-muhabbat”	“Muhabbat shabadalari”	Sharqda o‘tgan mashhur shayxlar, so‘fiylar hayoti haqida ma’lumot beruvchi asar
17	“Lison ut-tayr”	“Qush tili”	Umr bo‘yi xayolini band etgan asar.
18	“Munshaot”	“Xatlar”	Boshqalar bilan olib borgan yozishmalari.
19	“Mahbub ul-qulub”	“Ko‘ngillarning sevgani”	Buyuk mutafakkirning yaxshilik va yomonlik haqidagi qarashlarini o‘zida ifodalagan asar.

8-sinf “Adabiyot” darsligida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga oid ayrim voqealar xronologik tartibda berilgan:

9-jadval

Alisher Navoiy hayoti va ijodi xronologiyasi (8-sinf darsligi asosida)

Yillar	Voqealar
1441-yil 9-fevral	Hirotda shahrida G'iyosiddin Kichkina xonadonida tavallud topdi.
1466–1469-yillar	Yosh shoir Samarqanddagi madrasalarda ta'lim oladi. Bu shaharda yosh qalam sohibi davlat ishlarida xizmatda ham bo'ladi, faol ijod ham qiladi.
1469-yil	Bahorda Navoiyning yaqin do'sti – temuriyzoda Husayn Boyqaro Hirotda taxtini egallagandan so'ng shoirni yoniga chaqiradi. Navoiy bir necha yil saroyda oliy martabali lavozimlarda xizmat qiladi.
1483–1485-yillar	Shoirning eng buyuk asari – besh dostonidan iborat “Xamsa” yaratiladi.
1491/92–1498/99-yillar	Barcha lirik she'rlarini to'rt devonga taqsimlab, “Xazoyin ul-maoniy” nomli yirik to'plamini tuzdi.
Umrining so'nggi o'n yili	Navoiy juda ko'p badiiy, ilmiy, tarixiy asarlar bunyod etdi.
1501-yil 3-yanvar	Hirotda vafot etdi.
1991-yil	Toshkent shahridagi O'zbekiston Milliy bog'ida shoirning yangi haykali o'rnatildi.
2017-yil	Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti binosi oldiga shoirning yangi haykali o'rnatildi.

9-sinf adabiyot darsligida Sharqdagi “Xamsa” yozish an'anasi haqida ma'lumot berilgan. Navoiygacha yashab o'tgan va o'zining xamsanavisligi bilan mashhur bo'lgan ijodkorlar haqida ma'lumot berilgan.

Nizomiy “Xamsa”si (1173-1201 yillarda yozilgan, “Panj ganj” – “Besh xazina” nomi bilan mashhur):

10-jadval

Nizomiy “Xamsa”si haqida ma'lumot

Yozilgan vaqti	Nomi	Izoh
1173–1179-yillar	“Maxzan ul-asror” (“Sirlar xazinasi”)	Arzinjon hokimi Faxriddin Bahromshohga bag'ishlangan.
1180–1181-yillar	“Xusrav va Shirin”	Iroq hukmdori To'g'ri II iltimosiga ko'ra yozilgan.

1188-yil	“Layli va Majnun”	Shirvonshohlardan Axsatan I buyrug‘i bilan yozilgan.
1196-yil	“Haft paykar” (“Yetti go‘zal”)	Alovuddin Ko‘rpa Arslonning topshirig‘i bilan yozilgan.
1196–1201-yillar	“Iskandarnoma”	

Xusrav Dehlaviyning “Xamsa”si(1299–1301-yillarda yozilgan):

1. “Matla ul-anvor”(“Nurlarning boshlanmasi”)
2. “Shirin va Xusrav”
3. “Majnun va Layli”
4. “Hasht behisht”(“Sakkiz jannat”)
5. “Oyinayi Iskandariy”(“Iskandar oynasi”)

Abdurahmon Jomiy “Haft avrang”(“Yetti taxt”)i:

1. “Tuhfat ul-ahror”(“Erkinlar tuhfası”)
 2. “Sabhat ul-abror”(“Yaxshilar tasbehi”)
 3. “Yusuf va Zulayho”
 4. “Layli va Majnun”
 5. “Xiradnomayi Iskandariy”
 6. “Silsilat uz-zahab”(“Oltin zanjir”)
 7. “Salomon va Absol”

Alisher Navoiy “Xamsa”sining salaflari dostonlaridan farqli va o‘ziga xos tomonlari haqida ma’lumotlar berilgan.

10-sinfning dars rejasi bo‘yicha shoirning hayot yo‘lini o‘rganish uchun alohida soatlar ajratilmagan bo‘lsa ham, darslikda Alisher Navoiy haqida juda ham qiziq ma’lumotlar keltirilgan. Juda ko‘plab asarlariga izoh beriladi. Xususan, pastki sinflarda nomlari keltirilmagan “Mufradot” (muammolar), “Siroj ul-muslimin” (“Musulmonlik chirog‘i”), “Arba’in” (“Qirq hadis”), “Munojot” (“Tavba-tazarru”), “Nazm ul-javohir” (“Gavharlar tizmasi”) asarlari haqida ma’lumot berilgan. Alisher Navoiyning Yahyo Sebak, Sharafiddin Ali Yazdiy haqidagi fikrlari keltirilgan. Shu

bilan birga, Abdurahmon Jomiy, Rashidiy, Hakimshoh Qazviniiy, Xondamirlarning Alisher Navoiy haqidagi mulohazalaridan foydalanilgan. Tarixiy manbalardan unumli foydalanish ulugʻ adibimizning shaxsiyatini ochib berish uchun muhim vosita hisoblanadi.

11-sinf adabiyot darsligiga tarixchi Xondamirning mashhur “Makorim ul-axloq” (“Oliyjanob sifatlar”) asaridan parchalar keltirilgan. Parchalarda Alisher Navoiyning bunyodkorlik faoliyati, Mavlono Lutfiy tahsini, hazratning mehribonligi va saxovati aks etgan.

5–9-sinflarda Alisher Navoiy hayoti va ijodini oʻrganishda soddadan murakkabga, kichik hajmli matnlardan katta hajmli matnga sinfma-sinf oʻtib borilishi kerak. Chunki boshlangʻich sinflarda Alisher Navoiy haqida juda kam maʼlumot berilgan. 5–9-sinflar uchun tavsiya qilinadigan mavzularni quyidagi jadvalda koʻrsatib oʻtamiz:

11-jadval

5–9-sinflar uchun tavsiya etilayotgan mavzular


Sinf	Material	Izoh
5-sinfda 4 soat ajratilgan. Alisher Navoiyning hayoti haqida maʼlumot, Alisher Navoiyning ruboiy va fardlari	Gʻurbanda gʻarib shodmon boʻlmas emish, El anga shafiq-u mehribon boʻlmas emish. Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa, Bulbulgʻa tikandek oshyon boʻlmas emish. Gul bordi esa, chaman muattar boʻlsun, Shamʻ oʻchti esa, qamar munavvar boʻlsun. Shahzodagʻa gar ravza muyassar boʻldi, Sultongʻa jahon mulki muyassar boʻlsun. Soʻz durki, nishon berur oʻlikka jondin, Soʻz durki, berur jongʻa xabar jonondin, Insonni soʻz ayladi judo hayvondin, Bilkim, guhare sharifroq yoʻq andin.	5-sinf oʻquvchisi toʻrtlik shaklidagi sheʼrni oʻzlashtirishi oson kechadi. Nisbatan soddamazmunli ruboiy va fardlar tanlanib, lugʻati bilan beriladi. Ayrimlarining izohi berilsa, oʻquvchilarga namuna boʻladi. Shu oʻrinda “El desa Navoiyni” toʻplamidagi rivoyatlardan qoʻshimcha manba sifatida foydalanish mumkin.

	Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo‘q, Futuvvat barcha qilmakdur, demak yo‘q. Kishi aybing desa, dam urmag‘ilkim, ul erur ko‘zgu, Chu ko‘zgu tiyra bo‘ldi, o‘zga aybing zohir aylarmu?	
6-sinfda 4 soat ajratilgan. Alisher Navoiy qit‘alari va hikmatli so‘zlari	NIHONIY SAXOVATDA KO‘SHISH OSORI-YU ANING JILVASIDA NIKUHISH IZHORI Saxiy uldurki, nav‘i bazl qilg‘ay, Agar xud sufra ichra bo‘lsa noni. Kim ul chodir kumochidek yetishgay Gadoy uyiga ko‘zlardin nihoniy. Falakdek yo‘qki, avval jilva bergay Quyoshning qursidek olamg‘a oni. OZ SO‘Z DEMAKNING MANFAATIDAVU KO‘P SO‘ZNING MAZARRATIDA Navoiy, tiling asrag‘il zinhor, Desangkim, yemay dahr ishidin fusos. Nazar qilki, o‘q og‘zi tilsiz uchun Qilur tojvarlar bila dastbo‘s. Necha tojvardur, kesarlar boshin, Chu hangomsiz nag‘ma tortar xurus. Boshni fido ayla ato qoshig‘a, Jismni qil sadqa ano boshig‘a. Tun-kunungg‘a aylagali nur fosh, Birisin oy angla, birisin quyosh. So‘zlaridin chekma qalam tashqari, Xatlaridin qo‘yma qadam tashqari. Haq yo‘linda kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila, Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila. Yigitlikda yig‘ilmning maxzani, Qarilik chog‘i sarf qilg‘il ani. Odamiy ersang, demagil odami Onikim, yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.	Alisher Navoiyning qit‘a va hikmatli so‘zlari o‘quvchilar ongiga juda ijobiy ta‘sir qiladi, ulardagi ma‘noni fan o‘qituvchisi qunt bilan batafsil izohlab berishi lozim. Bola, kelajak hayotida, albatta, qit‘a va hikmatli so‘zdagi g‘oyalardan foydalanadi.

7-sinfda 4 soat ajratilgan. Alisher Navoiy hayoti, “Sab’al sayyor” dostonidan parcha	Yaratgan asarlari haqida ma’lumot berilgan. “Mehr va Suhayl” hikoyati berilgan	7-sinfning “Adabiyot” darsligida “Mehr va Suhayl” hikoyatining “Qizning boshiga tushgan kulfatni eshitib, Navdarshohning shoh Nu’monga xat yo’llagani hamda ikki shohning Jobir tomon qo’shin tortgani”, “Ov ketidan quvib sipohidan ajralgan Navdarshohning Jobir odamlari tuzog’iga ilingani, to’fon ofatidan halokatga uchragan shoh Nu’monning Jobirga asir tushgani haqida”, “Mehrning o’z qallig’ini chohdan chiqarib parvarish qilgani va Suhaylning yuzmayuz olishuvda Jobirmi yengib, so’ngida barchalarining murodga yetganlari to’g’risida” deb nomlangan boblari nasriy bayonsiz, izohlarsiz berilgan. Ana shu boblarni izohlashni “Matn bilan ishlash”, “Matnni izohlash”, “Mumtoz adabiyotni sevaman” kabi o’quvchilardan tuzilgan guruhlariga vazifa qilib berish mumkin(oldindan uyga vazifa sifatida ham mustaqil bajartirish yaxshi natija beradi. O’quv mashg’uloti vaqtida tayyorlab kelingan nasriy bayon o’qilib, qiyoslansa, o’quvchilarning nutq boyligi va ijodkorligi ortadi)
8-sinfda 5 soat ajratilgan. Alisher Navoiy g’azallari	1. “Kelmadi” radifli g’azali 2. “Qilg’il” radifli g’azali 3. “Bo’ldum sanga” radifli g’azali 4. “Deyin” radifli g’azali 5. “Jong’a chun dermen:”Ne erdi o’lmakim kayfiyati?..” g’azali	Avvalgi darslikda mavjud bo’lgan, xalqimiz orasida mashhur bo’lgan g’azallardan kiritish kerak deb hisoblaymiz. Bu g’azallarning izoh va sharhlarida Najmiddin Komilov, Nusratulla Jumaxo’ja, Boqijon To’xliyev, Erkin Vohidov va boshqalarning ilmiy chiqishlaridan foydalanish mumkin. Ulardan so’ng, albatta, mustaqil o’qish uchun ham bir qancha g’azallar

		matnini ilova qilish maqsadga muvofiqdir.
9-sinfda 10 soat ajratilgan. Alisher Navoiy va xamsachilik an'analari "Farhod va Shirin" dostoni	Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy "Xamsa"lari haqida ma'lumot berilgan. "Farhod va Shirin" dostoni voqealari, qahramonlar tahlili. "Kamil inson" tushunchasi	"Kamil inson" g'oyasi haqida tushuncha berganda, Farhod timsolini tavsiflash bilan birga, Alisher Navoiy shaxsiyati to'g'risida ham fikr yuritish kerak. Bunda "Alisher Navoiy zamondoshlari xotirasida", "El desa Navoiyni", "Boburnoma" kabi manbalardan unumli foydalanishni tavsiya etamiz.

Navoiy hayoti va ijodini o'rganishda Blum taksonomiyasidan ham samarali foydalanish mumkin. Bu metod quyidagi shakl va mazmunda aks etishi mumkin:



Alisher Navoiy hayoti bo'yicha Blum taksonomiyasini qo'llash

Eslab qolish – Alisher Navoiy hayot yo'li bo'yicha topshiriqlar beriladi.

Tushunish – o'quvchi shoir haqidagi darslikda berilgan tarixiy faktlar haqida ma'lumot beradi.

Qo'llash – Alisher Navoiy hayot yo'lining xronologik jadvalini yaratish vazifasi beriladi.

Tahlil qilish – Alisher Navoiyning bolalik yillari haqidagi ma'lumotlar tahlil qilinadi. Ya'ni, "Uning buyuk inson bo'lib yetishishi bolaligidagi qaysi xatti-harakatlaridan sezilgan?", "Hozirgi bolalar Alisherdek bo'la olishadimi?" kabi savollarga javob berib, o'zini Navoiyning yoshligi bilan qiyoslaydi.

Baholash – Alisher Navoiyning hayot yo'li tanqidiy qarash bilan baholanadi. Masalan, vazir lavozimida ishlaganida, saroydagi fitnalar tufayli ketib qolmasdan, nohaqliklar bilan kurashish kerakligi haqida fikr bildirishi mumkin.

Yaratish – Alisher Navoiyning portretini yaratish, hayotini qismlarga bo'lib, taqdimot qilish, shoir hayot yo'li haqida intervyu tayyorlash kabi vazifalarni bajaradi.

Alisher Navoiy ruboiylari bo'yicha Blum taksonomiyasini qo'llash

Eslab qolish – ruboiy haqidagi nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish, ulardan namunalar yodlash topshirig'ini bajaradi.

Tushunish – ruboiylarning g'oyasi, mohiyati haqida fikr bildiradi.

Qo'llash – ruboiyning mazmunini yozish vazifasi beriladi.

Tahlil qilish – ruboiylarni boshqa janrga tegishli to'rtliklar(qit'a, tuyuq) bilan qiyoslab, lingvopoetik tahlil qilish vazifasi beriladi.

Baholash – o'quvchi ruboiyning imkoniyatlarini baholaydi. Ya'ni, to'rt misrada juda muhim fikrni bildirish mumkinligini isbotlab beradi.

Yaratish – ruboiylarning mazmuni, g'oyasi aks etgan esse, insho, maqola yozish yoki loyiha tayyorlash kabi vazifalarni bajaradi.

Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga oid ta'lim mazmuni va metodikasini takomillashtirish uchun har bir sinf adabiyot darsligiga Alisher Navoiy hayoti haqidagi ma'lumotlardan kiritish, shoir shaxsiyati haqida ma'lumot berganda, tarixiy manbalardan unumli foydalanish, "Navoiy zamondoshlari xotirasida" hamda Alisher Navoiy muxlislari uchun yaxshi tanish bo'lgan "El desa Navoiyni" kitoblaridan o'quvchilarning yoshini inobatga olgan holda turli hikoyatlar bilan tanishtirish va bu orqali Navoiy shaxsi haqida o'quvchilar tasavvurini boyitib borish,

shuningdek, hamkorlikda ishlash, Blum taksonomiyasi darajalariga mos savol va topshiriqlar ishlab chiqish zarur.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkin:

1. Alisher Navoiy hayot yo‘lining o‘qitilishida “El desa Navoiyni” kitobi, shubhasiz, muhim o‘rin tutadi. Biz bu to‘plamdan unumli foydalanishimiz kerak. Masalan, 1-sinf “O‘qish” darsligiga “Alisher va bulbul” rivoyatini kiritish kerak. Navoiy taxallusi tanlanishiga ko‘rsatilgan bu sabab kelajakda ulug‘ shoir ijodini o‘rganish uchun kalit vazifasini o‘taydi.

5–7-sinf o‘quvchilari uchun “Olib keling!” rivoyati mos tushadi. Rivoyatdagi shoirning topqirligi va do‘stining fe‘lini yaxshi bilishi o‘quvchilarni e‘tiborli va ziyrak bo‘lishlariga xizmat qiladi. Yuqori sinf o‘quvchilari uchun “Bosh va til”, “Sharafli burch”, “Haddingdan oshsang mozorga bor!” rivoyatlarining kiritilishi maqsadga muvofiq, chunki aynan yuqori sinflarda o‘quvchilar kelajak hayotlari haqida jiddiyoq o‘ylashadi, ularga ibrat bo‘luvchi hikoyatlar qiziqarli va foydalidir.

9-sinf “Adabiyot” darsligiga esa “Shoir jilovdori” rivoyatini kiritish juda zarur, negaki bu sinfda “Xamsa” va xamsachilik an‘analari borasida so‘z boradi. Turkiy tildagi “Xamsa”ni tamomlab, taqdim etgan ijodkorni adolatli va adabiyotga chin muxlis bo‘lgan hukmdor o‘z otiga mindirib, jilovdor sifatida shahar ko‘chalarini aylantirgani tinglovchining Alisher Navoiyga va “Xamsa”ga bo‘lgan hayratini oshiradi. O‘quvchi “Farhod va Shirin” dostonidan olingan parcha mutolaasiga jiddiy kirishadi.

2. 10-sinf “Adabiyot” darsligida Alisher Navoiy asarlari haqida juda ko‘p ma’lumot berilgan, ko‘plab zamondoshlarning fikrlari keltirilgan. Masalan, “yig‘lamoq” fe‘lining “yig‘lamsinmoq”, “ingramoq”, “singramoq”, “siqtamoq”, “o‘kurmak” kabi ma’nodoshlari izohlangan. Darslikda yana 3 g‘azal, 4 qit’a va 4 ruboiy matni va tahlillari borligini e‘tiborga olsak, Alisher Navoiy hayoti va ijodi uchun 4 soat vaqt ajratilgani 10-sinf o‘quvchisi uchun og‘irlik qilishini his qilamiz.

Bizningcha, o‘quvchilarga beriladigan ma’lumotlar ixchamlashtirilsa yoki soatlar miqdori ko‘paytirilsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi.

3. Alisher Navoiy hayot yo‘li mavzusidagi darslarda o‘qituvchilar faqat darslik bilan cheklanib qolmasliklari kerak. G‘azal mulkinging sultoni haqida ma’lumot beruvchi ko‘plab qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanish mumkin. Masalan, “Navoiy zamondoshlari xotirasida” kitobi. Unda Alisher Navoiyni o‘z hayotida ko‘rib, suhbatlashgan insonlarning fikrlari berilgan. Bu o‘quvchilar uchun juda qimmatli ma’lumot hisoblanadi. Yana bir adabiyot – ustoz Omonulla Madayevning “Navoiy suhbatlari” kitobi. Qo‘llanma aynan o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Alisher Navoiy shaxsi haqida qanday tushuncha berish masalasiga javob berilgan. Shu o‘rinda bir manbani tavsiya qilmasdan o‘tib ketolmaymiz: Boqijon To‘xliyev va Dilfuza To‘xliyevaning Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan albomi. Unda zaruriy ma’lumotlar va ko‘rgazmalar berilgan. Suratlar ichida eng diqqatga sazovori Navoiy chizgan zanjirband sher rasmi. O‘qituvchi unga, albatta, izoh berishi kerak. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro yozishmalari asosida dunyoga kelgan

“Sarvning soyasida so‘ldi gul, netmoq kerak?”

Sarvdin tobut yasab, guldin kafan etmoq kerak”

baytining tarixi yoki Pahlavon Muhammad nomi bilan bog‘liq

“Har qayon boqsam, yuzumga ul quyoshdin nur erur,

Har sori qilsam nazar, ul oy manga manzur erur”

matla’li g‘azali voqeasi, shubhasiz, o‘quvchilarda Navoiy shaxsi va ijodiga bo‘lgan qiziqishni oshiradi.

2.2-§. Alisher Navoiy ijodini innovatsion yondashuv asosida o‘qitish mazmuni, metod va vositalari

Alisher Navoiy ijodini innovatsion yondashuv asosida o'rganilishi haqida so'z borar ekan, avvalo, "innovatsiya" atamasining ta'rifiga e'tibor beramiz. **"Innovatsiya** (inglizcha *innovation*) – yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba (yoki o'quvchi) faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi.

Interfaol (**"Inter"** – bu o'zaro, **"act"** – harakat qilmoq) – o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishni anglatadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, **o'qitishning interfaol uslubiyotlari** – bilish va kommunikativ faoliyatni tashkil etishning maxsus shakli bo'lib, unda ta'lim oluvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'ladilar, ular biladigan va o'ylayotgan narsalarni tushunish va fikrlash imkoniyatiga ega bo'ladilar".⁴⁹

Yuqoridagi ta'rifga asoslangan holda faoliyat yuritilsa, ta'lim jarayoniga yangicha texnologiyalarni joriy etish kerak. O'quv mashg'ulotlari uchun texnologiyalarni tanlaganda, mavzuga, o'quvchilar (yoki talabalar) salohiyatiga, o'qituvchining mashg'ulotni tashkil etish usuliga to'la mos keluvchi usul tatbiq etilishi lozim. Shundagina samarali natijaga erishish mumkin.

Bugungi kunda adabiyotni o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlar haqida metodik qo'llanmalar, darsliklar, monografiyalar ko'plab chop etilmoqda, ommaviy axborot vositalarida ham keng muhokama qilinmoqda. Masalan, adabiyotni o'qitishdagi zamonaviy texnologiyalar haqida pedagogika fanlari doktori, professor Qozoqboy Yo'ldoshevning "Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari" kitobida shunday fikrlar berilgan: "Adabiyot o'qituvchisi badiiy asarlarni tahlil etish yo'l-yo'rig'ini fanniy asoslarda o'rganmas ekan va har qanday janrdagi asarni tahlillay olish malakasiga ega bo'lgan holda o'quvchilar bilan yuzma-yuz bo'lmas ekan, adabiy ta'limdan kuzatilgan maqsad amalga oshmaydi. Adabiyot o'qituvchisi

⁴⁹ Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. – Тошкент: Истеъдод, 2008. – 156.

nochorligicha, adabiyot darslari zerikarliligicha, asardan chiqariladigan xulosa “ijtimoiy nasihat”ligicha qolaveradi. Tahlil g‘arib bo‘lganligi uchun adabiyot o‘qitish jarayoni oldiga qo‘yilgan bosh maqsad – barkamol shaxs shakllantirish amalga oshmaydi”.⁵⁰

Zulxumor Mirzayeva va Komil Jalilovlarning “Adabiyot o‘qitish metodikasi (an’anaviylikdan zamonaviylikka)” uslubiy qo‘llanmasida o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi xorij davlatlari o‘qitish metodikasi bilan qiyoslangan holda tahlil qilingan, turli zamonaviy usullar haqida ma’lumot berilgan. Alisher Navoiy ijodining o‘rganilishi haqida ham mulohazalar bildirilgan: “Masalan, Alisher Navoiy asarlarini tushunish uchun Navoiy davridagi o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini va Navoiy davrida ishlatilgan, hozir iste’moldan chiqqan so‘zlarni bilish bilan birga, islom dini va tasavvuf ta’limoti haqida tushunchaga ega bo‘lish talab qilinadi”.⁵¹ Ushbu uslubiy qo‘llanmada bizning e’tiborimizni tortgan bir holat xorijdagi badiiy asar matni bilan ishlash jarayonining uch bosqichdan iborat ekanligi bo‘ldi: “Badiiy asar matni bilan ishlash jarayonini uch bosqichga ajratish mumkin:

- 1) o‘qishdan oldingi topshiriqlar (davrga doir ma’lumotlar, muallif haqidagi yangi ma’lumotlar, hadis, hikmatli so‘zlar, asar nomi yoki epigrafi tahlili)
- 2) o‘qish davomidagi topshiriqlar (asari matni tahlili, to‘xtab o‘qish, qismlarga reja tuzish, ya’ni nomlash)
- 3) o‘qib bo‘lgandan keyingi topshiriqlar (tahlil qilish, sintez, baho berish va o‘quvchi hayoti bilan bog‘lash)”.⁵²

Ta’lim sohasida ko‘p yillik tajribaga ega pedagog Jamoliddin Nurmuhammadov (Jamoliddin Nur)ning “Adabiyotdan ochiq darslar tashkil etish metodikasi” nomli o‘quv-ilmiy nashrida o‘qitishning innovatsion texnologiyalari haqida tajribalar o‘rtoqlashilgan. “O‘qish uchun tanlangan badiiy asarning yozuvchi

⁵⁰ Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. Тошкент: Ўқитувчи, 1996. 72-б.

⁵¹ Мирзаева З., Жалилов К. “Адабиёт ўқитиш методикаси (анъанавийликдан замонавийликка)”. Услубий қўлланма. Тошкент, 2020. 45-б.

⁵² Мирзаева З., Жалилов К. Адабиёт ўқитиш методикаси (анъанавийликдан замонавийликка). Услубий қўлланма. Тошкент, 2020. 61-б.


nazarda tutgani kabi singdirishni emas, balki o‘quvchi tushuna oladigan darajadagi qulaylikni yarata olgan pedagoglarga tahsinga loyiqdir”⁵³ deb hisoblaydi muallif. Ushbu qo‘llanmada ekstraaktiv (o‘qituvchi faol bo‘lgan), interaktiv (o‘quvchi va o‘qituvchi roli teng yoki o‘quvchining mustaqil tashqi faoliyatiga asoslangan) metodlarga ta’rif berilgan va ushbu metodlarga namunalar keltirilgan. Masalan, “Sinch” topshirig‘ida o‘quvchiga ayrim noto‘g‘ri ma’lumotlar kiritilgan matn beriladi. Bu usul orqali bolalarning diqqati shakllanishi bilan birga, “sinchi” so‘zining ma’nosini o‘zlashtirishlariga ham yordam beradi. “Betartib matn” topshirig‘i nasriy asarlarda voqealar ketma-ketligini almashtirib, o‘quvchi zihnini tekshirsa, she’riy asarlarda esa misralar o‘rnini almashtirib, qo‘llash mumkin bo‘ladi. Yangi innovatsion texnologiyalar o‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlaridagi faolligini, mustaqil fikrlashini takomillashtirish uchun xizmat qilishi zarur ekan, demak, ularda ko‘proq o‘quvchilarning shaxsiy fikr-mulohazalarini erkin bildirish, bahsli vaziyatlarda o‘rinli yechim topa olishi va nutq madaniyatini shakllantirishga e’tiborni qaratishimiz kerak. Bunday xususiyatlarni rivojlantirishda “Tugallanmagan hikmat” (o‘quvchilar ijodkorlikni qo‘llagan holda, davom ettiradilar), “Qissadan hissa” (hikoya, masal yoki ibratli voqeaga xulosa keltirish), “Hissadan qissa” (tayyor xulosaviy fikrga masal ijod qilish) kabi usullar yaxshi samara beradi. Test topshiriqlariga ham yangicha yondashib, “3 ustun” (“savol”, “kalit” va “javob” ustunlari), “Bittasi ortiqcha” (test javoblaridan mantiqan mos kelmaganini olib tashlash), “Tasdiqlashga shaylaning” (berilgan ma’lumotlarning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlash), “Savolsiz javob” (berilgan javoblarga mos savol tuzish) kabi usullarga namunalar berilgan. Yana bir innovatsion metod e’tiborni jalb qiladi: “Bittasi ortiqcha” metodi. Bunda badiiy asardagi qahramonlar nomlari keltiriladi va o‘quvchilarga “Qaysi obrazni asardan olib tashlasak, undagi voqealar butunlay boshqacha tus oladi?” degan savol bilan murojaat qilinadi.

⁵³ Жамолиддин Нур. Адабиётдан очикдарслар ташкил этиш методикаси. Ўқув-илмий нашр. Тошкент: Мухаррир нашриёти, 2021. 3-бет

O‘quvchilar o‘z ijodkorligiga tayangan holda, asar voqealarini o‘zgartirishni o‘ylaydilar. Yuqoridagi usullar o‘z o‘rnida qo‘llanganda, o‘quvchilar mavzuni o‘zlashtirishlari uchun manfaatli bo‘lishi shubhasiz. Ularni Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘rganishda ham qo‘llab ko‘rish mumkin. Masalan, “Tasdiqlashga shaylaning” usulini Alisher Navoiy hayot yo‘lini o‘rganish darslarida qo‘llasak, o‘quvchilar ko‘plab ma’lumotlarni o‘zi uchun tekshirib, aniqlashtirib olishi mumkin. “Hissadan qissa” usulida esa Alisher Navoiyning hikmatli so‘zlaridan foydalanib, o‘quvchilarga hikoyatlar tuzish vazifasini berish mumkin. Bunda o‘quvchilarning nutq salohiyati ham, ijodkorlik salohiyati ham oshadi.

Avvalo, 6-sinf o‘quvchisi uchun tushunilishi qiyin bo‘lgan so‘zlarning lug‘atini tuzish kerak. Darslikda “Mahbub ul-qulub”dan olingan parchalar nasriy bayoni bilan berilgani bois, so‘zlar izohi keltirilmagan. Buni quyidagi usul orqali o‘qitish mumkin:

1. Izohini top! usuli bilan asar mazmunini tushuntirish



Biz, o‘quvchilarga matnni o‘zlashtirishni osonlashtirish maqsadida, o‘quvchilar tushunishi qiyin so‘zlarning lug‘atini tuzishni ma’qul deb topdik va ushbu lug‘atni dissertatsiyamizga ilova qilamiz. Bu so‘zlarning mazmunini


o‘zlashtirgan o‘quvchilar asar mohiyatini tushunishi yengilroq kechadi. Yuqori sinf o‘quvchilari yoki o‘qituvchilar uchun oson tuyulgan bu so‘zlar, bizningcha, 6-sinf o‘quvchisi uchun qiyinlik qiladi.

“Mahbub ul-qulub” asaridagi hayotiy xulosalar orqali Alisher Navoiy shaxsi haqida tushunchaga ega bo‘lamiz. Hikmatli fikrlar o‘quvchilarning yodida qolishi uchun ularning g‘oyasiga mos manbalarga murojaat qilishni joiz deb bildik. Masalan, asardagi 11-tanbih “Saxovat va himmat haqida” deb ataladi. Unda Alisher Navoiy saxiylik haqida o‘z fikrlarini bayon qilib, saxiyni mo‘l hosil beruvchi bulutga, balandparvoz lochinga, arslonga o‘xshatgan; baxil esa yog‘insiz bahor buluti, gavharsiz sadaf, sichqon ovlovchi kalxatga mengzalgan. Yuqoridagilardan tashqari ham ushbu tanbihda yana ko‘plab qiyoslashlar mavjud, ular juda go‘zal ifodalangan. Shunday betakror timsollarni keltirgan muallifning o‘zi ham bu tushunchalarga rioya qilganiga shubha qilmaymiz, albatta. Fikrimizning isboti uchun tarixchi Xondamirning “Makorim ul-axloq” asariga murojaat qilamiz. Unga kiritilgan bir hikoyatda aytilishicha, hijriy 905-yil (milodiy 1500)da shahzoda Muhammad Muhsin Mirzo Sabzavor qal’asiga g‘alla zaxira qilmoqchi bo‘ladi. Lekin g‘alla kam bo‘lgani uchun amir va noiblardan bir guruhi Alisher Navoiyda g‘alla ko‘pligini aytishganda, shahzoda istihola qilishini aytadi. Bu gaplar hazratning qulog‘iga yetib borgach, o‘z g‘allalarini shahzodaga tortiq qilib, noiblardan biriga shunday maktub yozadilar: “Xudoga qasam ichib aytamanki, agar har bir bug‘doy doni o‘rniga bir donadan marvarid bo‘lganida edi, u kishidan ayamagan va ularning hammasini tortiq qilib, o‘z shahzodamning qalbiga mehr va muhabbat urug‘ini ekkan bo‘lardim”⁵⁴.

“Mahbub ul-qulub” asarini o‘qitishda qulay yondashuvlardan foydalanish lozim. Bugungi jamiyatda buning imkoniyati katta. Chunki axborotlashgan jamiyatda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan bunday ma’lumotlar virtual olamda nihoyatda ko‘p. Xususan, Navoiy ijodi bilan bog‘liq vizual axborotlar yetarli,


⁵⁴ To‘xliyev B.va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinf o‘quvchilari uchun. I qism. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 1126.

muammo shulardan eng muhimlarini tanlash va taqdim etish hisoblanadi. Bu borada quyidagi yondashuvni taklif etamiz:



Darsni qiziqarli va oʻquvchi uchun foydali zamon talablariga mos holatda tayyorlash uchun quyidagi usullarni qoʻllash mumkin, bunda oʻquvchining mantiqiy fikrlash koʻnikmasi ham rivojlanadi.

Hikmatni davom ettiring



“Mahbub ul-qulub”ning 18-tanbihi “Hilm to‘g‘risida” deb ataladi. Unda muloyim tabiatlilik, yumshoq fe‘l haqida so‘z boradi. Hilm axloqli odamning qimmatbaho libosiga, hodisalar to‘la dengizdagi kishilik kemasining langariga, insoniyat qadrini o‘lchaydigan tarozining toshiga tenglashtiriladi. Alisher Navoiyning yumshoq fe‘lli bo‘lganligi haqidagi ma’lumotni Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asaridan olish mumkin:

“Bu ulug‘ amirning maqbul tabiati va muloyim unsuri sulton janoblariga yaqinlik, musulmonlarning muhim ishlariga kafillik, shariat-u sunnat, mulk-u millat ishlarini ravnaq ettirish bilan band bo‘lsa-da, hamma vaqt fazilat orttirish, ilm bilan mashg‘uldir. Uning ham suhbatlari xushta‘b, fozil kishilardir. Uning maqbul xotiri ahli dildan boshqani istamas, og‘ir tabiatlilar uning himmat nazariga yengiltak bo‘lib ko‘rinar, balki noahillar uning latif majlislariga kirolmas edilar...”⁵⁵

Do‘stlik haqidagi 30-tanbihga quyidagi qit’a ilova qilingan:

⁵⁵ “Навоий замондошлари хотирасида”. – Тошкент: Фафур Гулом нашриёти, 1985. – 15-6.

DO‘ST - BU



☐ Yor uldirki, o‘ziga ravo ko‘rmagan narsani yoriga ham ravo ko‘rmagay.

☐ O‘zi yori uchun o‘lmoqqa tayyor esa-da,
Lekin yorini bu ishda sherik qilmagay.

Barchamizga ma’lumki, Alisher Navoiy va Husayn Boyqaroning qalin do‘st ekanligi haqida ko‘plab rivoyatlar bor. Shu bois, do‘stlik haqida gap ketganda, shulardan birini o‘quvchilar hukmiga havola etish o‘rinli deb hisoblaymiz. “El desa Navoiyni” to‘plamida “Mir Alisher bilan Sulton Husayn” rivoyati keltirilgan. Qisqacha mazmuni shunday:

Mir Alisherni podsho yonidan yo‘q qilish niyatidagi amaldorlar uni bir quduqqa tashlabdilar. Sulton Husayn bundan xabarsiz ekan, lekin do‘sti yo‘qligi uchun bir narsasidan ayrilgan kishidek:

“G‘am bilan, qayg‘u bilan, so‘ldi bahorim gullari”, - deb har kuni bir satr she‘r aytib yurar ekan. Bu misrani yodlab olgan bir cho‘pon Mir Alisher yotgan quduq oldida aytgan ekan, quduq ichidan ovoz kelibdi: “Do‘stini choha solibdur, sayramas bulbullari.” Cho‘pon darhol uni qutqarmoqchi bo‘lsa, Mir Alisher uni quduqda qoldirib, o‘zi to‘qigan bu misrani podsho oldida aytishni iltimos qilibdi. Sulton Husayn do‘stining daragini eshitib, aybdorlarni jazolab, do‘stini quduqdan qutqarib olibdi.

G‘am bilan, qayg‘u bilan, so‘ldi bahorim gullari,

Do‘stini choha solibdur, sayramas bulbullari⁵⁶

misralari go‘zalligi ham o‘quvchilarda estetik zavq uyg‘otadi.

Ikkita (48, 49) tanbihda til haqida so‘z boradi. Ularda “Tilga ixtiyorsiz – elga e’tiborsiz”, “Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir”, “Til shirinligi ko‘ngilga yoqimlidir; muloyimligi esa – foydali” kabi mashhur hikmatli so‘zlar keltirilgan. Ushbu fikrlarga ilova qilib, “Bosh va til” rivoyatini keltirish mumkin. Husayn Boyqaro boshiga imo qilganda, Mir Alisher qo‘li bilan tilini ko‘rsatadi. Buning sirini bilish uchun vazirlar Alisher Navoiyga qirq ming tilla tanga berishadi. Rivoyatda tilning ahamiyatidan tashqari, Alisher Navoiyning zukkoligi ham aks etgan.

110-tanbih yaxshilik va yomonlik haqida so‘z yuritadi, ikkovini o‘zaro qiyoslaydi. Bu bo‘lim haqida gaplashganda “Yaxshidan bog‘ qoladi” rivoyatini keltirish mumkin. Unda Alisher Navoiy o‘zidan keyin yaxshi nom bilan eshlashlari uchun bog‘ barpo etayotgani, odamlar uning mevasidan bahramand bo‘lib, duo qilishlarini istashi to‘g‘risida hikoya qilinadi. Husayn Boyqaro bilan Alisher Navoiy o‘rtasida shunday suhbat bo‘lib o‘tadi:

- Ey do‘stim-ey, qarigan chog‘ingizda bog‘ qilishning sizga nima keragi bor, axir? Siz bilan men yoshimizni yashab, oshimizni oshagan bo‘lsak, bu yong‘oqlaringiz qachon hosilga kiradi-yu, siz qachon mevasidan yeysiz? Oxir umringizda mana shu bog‘dagi mevalarning boriga qanoat qilib, soya-salqinda tinchgina g‘azal bitib o‘tiravermaysizmi?
- Do‘stim, yaxshidan bog‘ qoladi, degan naqlni eshitganmisiz? Men bu ko‘chatlarni o‘zim uchun emas, mana shu mahallamiz ko‘chalarini changitib yurgan bolakaylar, balkim ularning ham bolalari uchun ekyapman. Bir kun kelib, shu ko‘chatlarning har biri azim daraxt bo‘lib, hosil bera boshlasa, odamlar uning mevasini totib ko‘rishganda, “Bu bog‘ Mir Alisherdan qolgan!” – deyishsa, shuning o‘zi menga har qanday ne‘matdan lazzatliroqdur.⁵⁷


⁵⁶ Эл деса Навойни. Тошкент: Чўлпон, 1991. – 20-б.

⁵⁷ Эл деса Навойни. Тошкент: Чўлпон, 1991. – 32-б.

Yuqoridagi suhbat 6-sinf o'quvchilari muhokamasida tashlansa, juda ko'plab fikrlar tug'ilishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish lozimki, "Mahbub ul-qulub" asarining o'rganilishida lug'atlardan unumli foydalansak, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirgan bo'lamiz va asarni yaxshi o'zlashtirishlariga hissa qo'shamiz. Alisher Navoiy haqidagi hayotiy voqealar va rivoyatlardan namunalar keltirsak, ulug' bobokalonimizning so'zlari va amallari bir xil bo'lganiga o'quvchilarda ishonch uyg'otgan bo'lamiz. Va, albatta, Alisher Navoiy siymosi biz uchun hamisha ibrat timsoli bo'lib qoladi.

Biz 7-sinf rejasiga kiritilgan "Sab'ai sayyor" dostonidan parcha – "Mehr va Suhayl" hikoyatining o'rganilishi yuzasidan o'z mulohazalarimizni bildirmoqchimiz. Ma'lumki, "Sab'ai sayyor" dostoni "Xamsa" tarkibidagi eng qiziqarli syujetga ega doston hisoblanadi. Xamsachilik an'analari alohida o'rin tutuvchi doston haqida o'quvchilarga atroflicha ma'lumot berib, Navoiygacha yaratilgan dostonlar bilan ham tanishtirish lozim bo'ladi.



Ushbu doston haqida o'quvchilarga yetarlicha ma'lumot berish uchun o'qituvchi quyidagilarga amal qilishi kerak deb o'ylaymiz:

1. “Sab’al sayyor” dostonini to‘liq o‘qib chiqish. “Xamsa”ning buyuk asarligi haqida o'quvchilarda tushuncha uyg'otish uchun bu juda muhim. Shu o'rinda dostondagi hikoyatlar haqida ma'lumot beruvchi jadvalni e'tiboringizga havola etamiz:

12-jadval

“Sab’al sayyor” dostoni bo'yicha konseptual jadval

Hafta kuni	Homiy	Qasr rangi	Hikoyat
Shanba	Zuhal	Qora	Farrux va Axiy hikoyati (hindistonlik sayyoh)
Yakshanba	Quyosh	Sariq	Zayd Zahhob haqida hikoyat (rumlik sayyoh)
Dushanba	Oy	Yashil	Sa'd haqida hikoyat (misrlik sayyoh)
Seshanba	Mirrix	Qizil	Juna va Mas'ud haqida hikoyat (tarozlik sayyoh)
Chorshanba	Utorud	Moviy	Mehr va Suhayl hikoyasi (beshinchi iqlim yo'lidan kelgan musofir)
Payshanba	Mushtariy	Sandal(jigarrang)	Muqbil va Mudbir hikoyati (oltinchi iqlim yo'lidan kelgan musofir)
Juma	Zuhra	Oq	Dilorom haqidagi hikoyat (xorazmlik musofir)

Yuqoridagi jadvalda nomlari keltirilgan hikoyatlardan tashqari, o'qituvchining o'z mulohazasi ham muhim deb hisoblaymiz. Shunda o'quvchi dostonning umumiy mazmuni haqida tasavvurga ega bo'ladi.

2. Dostondan berilgan parchalar ustida ishlashda o'quvchilar faolligini oshirish

Maktab darsliklarida berilgan mumtoz adabiyot namunalari o‘quvchilarga qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy hol. Bu jarayon o‘quvchini adabiyotdan bezdirib qo‘ymasligi uchun o‘qituvchi dars vaqtida yoki uyga vazifa sifatida biron qiziqarli topshiriqni berishi mumkin. Masalan, “Tavsifnoma yozamiz” usulida hikoyat qahramonlari ta’riflari keltirilgan o‘rinlarni aniqlash va ularning xususiyatlari haqida mustaqil fikr bildirish kerak bo‘ladi. Shunda o‘quvchilar dostonidan keltirilgan parchalarni diqqat bilan o‘qib chiqadilar, qahramonlar fe’l-atvori haqida o‘z fikrlarini bildiradilar. Bu mulohazalar, taxminan, quyidagi jadval ko‘rinishida bo‘lishi mumkin:

13-jadval

“Mehr va Suhayl” hikoyati qahramonlari tavsifi

Qahramon nomi	Dostonidan parcha	Izoh
Jobir qaroqchi	<i>Ham tanumandu ham shujou daler, Ul sifatkim jazira ichraki sher. Axzi moli harom komi o‘lub, Bo‘yla kom istabon haromi o‘lub. Shavkatidin neyor anga, ne rafiq, Yolg‘uzun aylar erdi qat‘i tariq.</i>	Jobir suvda va quruqlikda qaroqchilik bilan shug‘ullanadi, sher kabi hech kimdan va hech narsadan qo‘rqmaydi. Do‘sti ham yo‘q, yolg‘iz qaroqchilik qiladi.
Navdar	<i>Go‘yiyo andag‘ijazoir aro, Shahre ermish oti “Bihishtsaro”. Anda shohi saxiyu donishvar, Qabzai hukmi ichra ul kishvar. Oti Navdar va lek o‘zi nodir, Tab‘i har nodir ish aro qodir.</i>	Bihishtsaro shohi Navdar juda saxiy va donishmand bo‘lib, nodir ishlar qo‘lidan keladigan ekan.
Mehr	<i>Qaddikim naxli sarfarozi kelib, Husn bog‘ida sarvinoz kelib. Zulfi din sunbul aylabon yuz pech, Og‘zidin g‘uncha aytmay so‘z hech. Orazi mash‘ali jahonafro‘z,</i>	U(Mehr)ning qaddi niholniki kabi; u husn bog‘ining sarvinozi; sochlari sunbulni, lablari g‘unchani uyaltiradi. Mehrning yuziga

	<i>Partavi shu 'lasi kelib jonso 'z. Sochi aylab kamand bo 'lmoqfan, Mehr bo 'ynig 'a tortar erdi rasan. Yuzig 'a mehr banda-vu oti Mehr, O 'yrulub mehridek boshig 'a sipehr.</i>	quyosh banda bo'lgan, falak boshi ustida quyoshdek aylanadi.
Nu'mon	<i>Go 'yiyo ham jazirada bir shahr, O 'zi firdavs-u Salsabil anga nahr. Bor emish ravzadek havosi aning, Charxi minu kibi fazosi aning. Anda bir shoh hokim-u voliy, Mulki ma 'mur-u himmati oliy. Oti Nu 'mon-u mulki oti Yaman, Adlidin mulki guliston-u chaman.</i>	Orolda bir bir shahar bor, ariqlari jannatdagi Salsabildek. Havosi ham jannatdek, fazosi osmon kabi keng. Podshosining himmati baland, mamlakati obod. Bu Nu'mon shoh hukmronlik qiluvchi Yaman yurti, adolat tufayli gulistondir.
Suhayl	<i>Yuzidin bargi gul xijil erdi, Qaddidin sarv munfail erdi. Borcha fazl-u hunarda yo 'q misli, Ko 'zguga boqsa o 'zi-o 'q misli. Hunar avji sori kelib anga mayl, Yuzi andoqki mehr, oti Suhayl.</i>	Yuzidan gul bargi, qaddidan sarv daraxti xijolat edi. Barcha fazilatu hunarlarni egallagan, husnda ham tengi yo'q edi. Hunar egallashga xohishi zo'r, yuzi quyoshdek, ismi Suhayl edi.

Asardagi asosiy qahramonlarning ta'rifini o'z so'zlari bilan yozgan o'quvchilarning nutqi shakllanadi, bu xususiyat, ayniqsa, insholarni yozishda asqatadi.

3. Mumtoz adabiyot asarlari uchun mo'ljallangan lug'atlardan unumli foydalanish.

Qanday mavzu bo'lishidan qat'i nazar, "Adabiyot" fanidan o'quv mashg'ulotlarida mumtoz adabiyot asarlari uchun mo'ljallangan lug'atlar va, albatta,

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” bo‘lishi kerak deb hisoblaymiz. Shunda o‘quvchilarning lug‘at boyligi oshadi va so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘lishadi. Fan o‘qituvchisi uchun oson va tushunarli tuyulgan so‘zlar o‘quvchilar uchun begona bo‘lishi holatlari ham ko‘p uchray turadi. Shuning uchun o‘qituvchilar darslikdagi so‘zlar izohidan tashqari, o‘zi qiyin deb hisoblagan so‘zlarning lug‘atini alohida tuzib olishi shart. Masalan, “noshod”, “kishvar”, “hamul”, “xayl”, “fath” kabi so‘zlarning ma’nosi keltirilmagan, bu so‘zlarni yaxshi tushunmagan o‘quvchi voqealar rivojini yetarli tarzda ta’riflay olmaydi.

4. Darslikda berilgan izohlanmagan parchalar mazmunini yaxshi o‘zlashtirish.

7-sinf “Adabiyot”⁵⁸ darsligining 174–198-betlarida berilgan matn izohi bilan birga berilgan, 198–218-betlarda berilgan parchalar esa izohlanmagan. Bu esa o‘quvchiga o‘qishni og‘irlashtirishi mumkin. Shuning uchun izohi berilmagan parchalar o‘qituvchi tomonidan sharhlab berilishi mumkin.

“Xamsa” dostonlari o‘zbek mumtoz adabiyotimizning durdona asarlaridan hisoblanadi. Ularni o‘quvchilarga qanchalik chuqur o‘rganishlariga sharoit yaratib bersak, kelajak avlod tafakkuri shunchalik boy va keng qamrovli bo‘ladi.

Biz yosh avlodga 1-sinfdan boshlab Alisher Navoiy haqida ma’lumot berganimizda Maqsud Shayxzoda ta’birini ishlatib, “g‘azal mulkning sultoni” deb ataymiz. Lekin, afsuski, yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilar Alisher Navoiy g‘azallari bilan 10-sinfda tanishadi. Bizningcha, g‘azal tahlili sal avvalroq boshlanishi kerak.

O‘rta umumta’lim maktablarining 8-sinflari uchun 2010-yilda chop etilgan “Adabiyot” darsligida (mualliflar Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo‘chqorov) Alisher Navoiyning 8 ta g‘azali izohi bilan berilgan edi:

1. “Kelmadi” radifli g‘azali⁵⁹

⁵⁸ Yo‘ldoshev Q. va boshqalar. Adabiyot. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinf o‘quvchilari uchun. – Toshkent: Sharq, 2017. – 368b.

⁵⁹ С.Олим ва бошқалар. Адабиёт. Дарслик-мажмуа. Умумий ўрта таълим мактабларининг 8-синф ўқувчилари учун. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. 84–89-бетлар

2. “Qilg‘il” radifli g‘azali⁶⁰
3. “Bo‘ldum sanga” radifli g‘azali⁶¹
4. “Deyin” radifli g‘azali⁶²
5. “Jong‘a chun dermen.”Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?..” g‘azali⁶³
6. “Yo‘q” radifli g‘azali⁶⁴
7. “Fano tariqida har kimki hosil etti rusux...” g‘azali⁶⁵
8. “Shayx” radifli g‘azali⁶⁶

Izohlarda g‘azallar vazni, mazmuni, qo‘llangan she‘riy san’atlarga e‘tibor berilgan. Mutaxassislar tomonidan izohi berilgan g‘azallar 8-sinf o‘quvchilari uchun qiyinchilik tug‘diradi deb hisoblangani uchun ular darslikdan chiqarib tashlandi. To‘g‘ri, 8 ta g‘azal izohi bu yoshdagi o‘quvchilar uchun og‘irlik qilgani shubhasiz. Ammo, 3–4 ta g‘azal haqidagi ma’lumotlar darslikda qoldirilishi kerak edi, bizningcha. Chunki aynan shu sinf o‘quvchilari maktablararo an’anaviy “G‘azalxon yoshligim” ko‘rik-tanlovida ishtirok etishadi. Tanlovda ishtirok etuvchi o‘quv mashg‘ulotlarida g‘azal ohanglaridan bahramand bo‘lishi shart deb hisoblaymiz.

O‘rta umumta’lim maktablarining 8-sinflari uchun 2019-yilda chiqarilgan “Adabiyot” darsligida (mualliflar: Sultonmurod Olim, Sunnat Ahmedov, Rahmon Qo‘chqorov) Alisher Navoiyning quyidagi asarlari izohi bilan berilgan:

1. Ruboiylar⁶⁷;
2. Tuyuqlar⁶⁸;
3. Fardlar⁶⁹

⁶⁰ Ўша жойда, 89–9-бетлар

⁶¹ Ўша жойда, 91–92-бетлар

⁶² Ўша жойда, 92–93-бетлар

⁶³ Ўша жойда, 94–95-бетлар

⁶⁴ Ўша жойда, 95–97-бетлар

⁶⁵ Ўша жойда, 97–101-бетлар

⁶⁶ Ўша жойда, 102–107-бетлар

⁶⁷ С.Олим ва бошқалар. Адабиёт. Дарслик. Умумий ўрта таълим мактабларининг 8-синф ўқувчилари учун. – Тошкент: Фафур Гулом, 2019. 66–76-бетлар.

⁶⁸ Ўша жойда, 76–81-бетлар

⁶⁹ Ўша жойда, 81–85-бетлар

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 10-sinf va akademik litseylarning 1-bosqichi uchun darslik-majmuada quyidagi gʻazallar izohi bilan berilgan:

1. “Koʻzung ne balo qaro boʻlubtur...” gʻazali⁷⁰

2. “Meni men istagan...” gʻazali⁷¹

3. “Ey sabo...” gʻazali⁷²

Gʻazallar matnidan soʻng ularning vazni berilgan. 8-sinf adabiyotining eski nashrida gʻazal vazni va taqteʼlari izoh ichida berib oʻtilgandi, 10-sinf darsligida esa aynan gʻazal matni ostidagi qatorda berilgan. Shu koʻrinishda oʻquvchilarga gʻazal vazni haqida maʼlumot berish qulay. Demak, yuqoridagi maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, maktabda 11 yil tahsil olgan oʻquvchi Alisher Navoiyning 3tagina gʻazali bilan 10-sinfda tanishadi. Bu Navoiy izdoshlari uchun kamlik qiladi, nazarimizda.

Shu oʻrinda oʻz taklifimizni bildirmoqchimiz. Bizningcha, 8-sinf “Adabiyot” darsligida Alisher Navoiyning 2–3 dona gʻazali tahlilini qoldirish kerak edi. 2010-yilda chop etilgan darslikdagi quyidagi gʻazallarni tavsiya etish mumkin:

1. “Kelmadi” radifli gʻazali. Bu gʻazal juda koʻp marta oʻqilib, siyqasi chiqqanday tuyulsa-da, darslikda gʻazalga batafsil taʼrif berilgan. Alisher Navoiy asarlaridan parchalar keltirilgan, “may”, “sharob”, “boda”, “chogʻir” soʻzlarining gʻazaldagi maʼnolari, ichkilikning zararliligi haqida ulugʻ shoirimizning fikrlari ham keltirilgan.

2. “Qilgʻil” radifli gʻazali. Bu gʻazalning mazmuni ham yaxshi izohlangan. Tabiiyki, vazni qiyinligi uchun u haqida maʼlumot berilmagan. Bizningcha, toʻgʻri yoʻl tutilgan. Hayot mazmuni haqida fikrlar gʻazalda juda goʻzal ifoda etilgan. Shu oʻrinda filologiya fanlari doktori, professor Nusratulla Jumaxoʻjaning “Qaro koʻzum” gʻazali tadqiqi⁷³ risolasi ushbu gʻazalni tahlil qilishda qoʻl kelishini alohida taʼkidlab oʻtamiz.

⁷⁰ Б.Тўхлиев ва бошқалар. Адабиёт. Дарслик. Умумий ўрта таълим мактабларининг 8-синф ўқувчилари учун. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. 82–85-бетлар.

⁷¹ Ўша жойда, 85–89-бетлар

⁷² Ўша жойда, 89–93-бетлар

⁷³ Жумахўжа Н. “Қаро кўзум” ғазали тадқиқи. — Тошкент: Muhaṡṡir nashriyoti, 2021. — 308б

3. “Jong‘a chun dermen: “Ne erdi o‘lmakim kayfiyati?...” g‘azali. Savol-javob usulida yozilgan bu g‘azal noan‘anaviyligi bilan o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadi, yod olishlari ham oson. O‘ziga xos badiiy ifoda va tasvirlari bilan o‘quvchining esida qoladi.

“Navoiy g‘azallari”(Toshkent, “Bayoz”, 2015) kitobida Alisher Navoiy g‘azallari izohi bilan berilgan. Uning tuzilishi e‘tiborimizni tortdi:

1. G‘azal matni (vazn chizmalari bilan).
2. Lug‘at.
3. Nasriy bayon.
4. Sharh va izohlar.

Bizningcha, maktab darsliklarida Alisher Navoiy g‘azallari shu tartibda joylashtirilsa, o‘qituvchilarga va o‘quvchilarga birmuncha yengil bo‘lar edi.

G‘azallar tahlili mumtoz adabiyotning eng qiziqarli, shu bilan birga, murakkab qismi hisoblanadi. Zamonaviy kuy-qo‘shiqlar ta’sirida o‘sayotgan o‘quvchiga mumtoz adabiyotni singdirish biroz mushkul, nazarimizda. Bunday hollarda biz o‘quvchiga tanish yo‘ldan borishimiz ma’qul deb o‘ylaymiz. Masalan, bugungi kunda ko‘pchilik yoshlarimiz xorijiy tillarni o‘rganishga qiziqishadi va ingliz tilidagi atamalarni yaxshi bilishadi. Darsning zaruriy komponentlaridan biri “Tinglab tushunish” – “Listening” usulini qo‘llab, o‘quvchilar g‘azallarni tushunishlariga yordam berish mumkin. Masalan, bir g‘azal matnini olamiz:

Furqatingdin **za’faron** uzra to‘karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag‘rimdin erur pargolalar.

Dur tishingdin donayi sabrim qolur bebar desam,
Kulub ayturkim, ekinning ofatidur **jolalar**.

Bargi gul uzra yopishibdur shakar har soridin,
Yo magar la’ling uza qaynabdurur **tabxolalar**.

Tola-tola nay o‘qung ko‘ksunda go‘yo sindikim,
Tevrulptur notavon ko‘nglumda bir-bir tolalar.

Fitnalik to‘qquz falak girdingda, jono, turfadur
Kim, ko‘ruptur bir quyosh davrinda mundoq holalar?!

Bordilar **ahbobu** men yig‘larmen o‘z ahvolima,
Korvondin qolg‘an it yanglig‘ki, qilg‘ay nolalar.

Ko‘hi g‘am bo‘ldi Navoiy, lolalar – gulgun sirishk
Tog‘ agar budur, bale, ashk o‘lg‘usidur lolalar.

G‘azal matnidagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar tushirib qoldirilgan holda o‘quvchilarning qo‘liga beriladi va shu g‘azal bilan aytilgan qo‘shiq eshittiriladi. O‘quvchilar ochiq qolgan joyga so‘zlarni yozadilar. O‘qituvchi yordamida ushbu g‘azal mazmuni sharhlanadi. Bu o‘rinda adabiyotshunos olim Olimjon Davlatovning “Ma’nolar xazinasi”⁷⁴ kitobidan foydalanish yaxshi samara beradi deb hisoblaymiz. Qo‘shiq matnini esa “Yalla” guruhi (Farrux Zokirov) ijro etgan zamonaviy variantini tavsiya etamiz.

8-sinf adabiyotining avvalgi nashrlarida “Xazoyin ul-maoniy” devonlarining nomlari va izohlari keltirilgan edi. Bu ma’lumotlar o‘quvchilar uchun biroz qiyinchilik tug‘dirsa ham, zarur ma’lumot edi deb hisoblaymiz. O‘quvchilarning Navoiy lirikasi haqidagi tushunchalari kengayib, so‘z boyligi ham ortar edi.

Yana bir fikrni ilova qilib o‘tishni joiz deb bilamiz: Alisher Navoiyning mashhur “G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish” deb boshlanuvchi ruboiysi izohida “Saddi Iskandariy” dostonidan olingan “Kabutar hikoyasi” mazmuni keltirib


⁷⁴ Давлатов О. Маънолар хазинаси. Учинчи китоб. – Тошкент: Тамаддун, 2021. – 237-242-бетлар.

o‘tilgan. Bu hikoyat bilan o‘quvchi 1-sinfdayoq tanishgan. 8-sinf darsligiga kiritilgani takrorlash va mustahkamlash uchun yordam beradi deb hisoblaymiz.

8-sinf o‘quvchilari uchun nisbatan qiyinroq deb hisoblagan so‘zlarimiz izohini dissertatsiyamizga ilova qilamiz.

9-sinf adabiyotida Alisher Navoiyning ideali aks etgan asar – “Farhod va Shirin” dostoni o‘rganiladi. Ayrim joylarida nasriy izohlar berilgan, ko‘proq she’riy parchalar kiritilgan. Shu sababli “Farhod va Shirin” dostonining o‘rganilishi uchun 9 soat ajratilgan. Bunda doston matni bilan ishlashga katta e’tibor qaratish lozim. Darslikda ayrim so‘zlarning izohi keltirilgan, lekin biz buni yetarli emas deb hisoblaymiz. Shu sababli 9-sinf o‘quvchisi uchun qiyinlik qiladigan so‘zlarning tarjimasini ishimizga ilova sifatida keltiramiz.

“Farhod va Shirin” dostonini o‘rganishda “Fikrimni davom ettir” usulini qo‘llash mumkin. Bunda bir o‘quvchi fikrni boshlaydi, ikkinchi o‘quvchi fikrni yakunlaydi va o‘zi yangi gapni boshlab beradi. O‘yin zanjir ko‘rinishida davom etishi mumkin.



Shu taxlit zanjir davom etadi. Bu usulni Alisher Navoiy hayot yo‘lini tavsiflashda ham ishlatish mumkin.

10-sinf adabiyot darsligiga Alisher Navoiyning uch g‘azali, to‘rt qit‘asi, to‘rt ruboiysi izohi bilan kiritilgan. Bularning barchasini o‘zlashtirish uchun ajratilgan 4 soat, nazarimizda kamlik qiladi.

G‘azallar izohida uning vazniga, mazmuniga, she‘riy san‘atlarning qo‘llanishiga, ma‘no nozikliklariga e‘tibor qaratilgan.

Qit‘alarga misol keltirishdan avval bu she‘riy janr haqida nazariy ma‘lumot berilgan.

Ruboiylar haqida so‘z yuritilganda Shayx Ahmad bin Xudoydod Taroziyning “Funun ul-balog‘a” (kitob nomining izohi berilmagan) asari ma‘lumot berilgan, Abduqodir Hayitmetovning Alisher Navoiy haqidagi e‘tiroflari keltirilgan.

Ushbu sinf adabiyot darsligi uchun ham tuzgan nisbatan qiyin so‘zlar lug‘atini ilova sifatida dissertatsiyamiz so‘ngida keltirib o‘tamiz.

10-sinf dasturiga kiritilgan g‘azal, qit‘a, ruboiylarni o‘rganishda “Scaffolding”⁷⁵ usulini qo‘llash mumkin. Bu usul o‘quvchilar biror yangi ma‘lumot va tushunchani o‘zlashtirishlariga qaratilgandir. Ta‘limda “Scaffolding” usulini qo‘llash nazariyasi birinchi marta 1976-yilda amerikalik psixologlar Djerom Bruner, Devid Vud va Geyl Rosslarning “The role of tutoring in problem solving”⁷⁶ maqolasida shakllantirilgan. Aslida bu atama qurilish sohasiga tegishli bo‘lib, bino ko‘tarilayotgan vaqtda asosiy inshoot yoniga tayanch vositalar qo‘yilishi, bino tiklanganda ular olib tashlanishini bildiradi. Ta‘lim usuli sifatida ta‘riflasak, o‘qituvchi o‘quvchiga biror vazifa bajarishda namuna ko‘rsatadi, ko‘maklashadi va sekin-asta chekina boshlaydi. Natijada o‘quvchida o‘sha vazifani mustaqil bajarish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi.

Djerom Bruner, Devid Vud va Geyl Rosslar bu usulning 6 prinsipini keltirganlar:

⁷⁵ Scaffolding” инглиз тилидан олинган бўлиб, қурилишларда девор ёнига ёғоч ёки металлдан қават-қават қилиб ишланган нарвон, ҳавоза деган маънони англатади.

⁷⁶ David Wood, Jerome S. Bruner, Gail Ross. The role of tutoring in problem solving.// The Journal of Child Psychology and Psychiatry. April 1976. – 89p.

1. Diqqatni jalb qilish.
2. Harakatlar erkinligini chegaralash, bu o‘rinda o‘quvchi ortiqcha harakatlanmasligi uchun vazifani soddalashtirish.
3. Diqqatni maqsadga yo‘naltirish.
4. Muhim jihatlarni ta’kidlash.
5. O‘quvchining kayfiyati, ruhiy holati buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik.
6. Vazifa yechimini namoyish qilish.

Artur Eppli va Djudit Lendjerlar esa 1983-yilda “Scaffolding” usulining quyidagi mezonlarini ishlab chiqishdi:

1. Maqsadga yo‘naltirilganlik.
2. Imkoniyatlarga moslik.
3. Tizimlilik.
4. Hamkorlik.
5. Internalizatsiya(o‘zlashtirish va foydalanish)

Agar biz yuqoridagi usuldan foydalansak, quyidagi tartibda ishlashimiz mumkin:

1. Ruboiy matnini o‘qib berish.
2. Qofiyalanishi haqida ma’lumot berish.
3. Mazmunini so‘zlab berish.
4. Tushunilishi qiyin so‘zlarni izohlash.
5. Xulosa keltirish.

Aynan shu jarayonlarni o‘quvchi bajara olishi uchun “Scaffolding” usuli qo‘l keladi. G‘azallar izohi biroz murakkabroq, chunki g‘azallarning vazni, ishlatilgan she’riy san’atlar haqida ham ma’lumot berilishi kerak. Yuqoridagi usul yordamida biz o‘quvchilarning Alisher Navoiy asarlarini mustaqil holda izohlash ko‘nikmasini o‘zlashtirishiga erishishimiz mumkin.

Masalan, 10-sinf adabiyot darsligiga quyidagi mashhur g‘azal kiritilgan:

Meni men istagan o‘z suhbatig‘a arjumand etmas,

Meni istar kishining suhbatin ko‘nglum pisand etmas.

Ne bahra topqamen andinki, mendin istagay bahra,
Chu ulkim, bahrayi andin tilarman bahramand etmas.

Netay hur-u pari bazminki qatlim, yo hayotimg‘a
Ayon ul zahri chashm aylab, nihon bu no‘shxand etmas.

Kerakmas oy ila kun shaklikim, husn-u malohatdin
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.

Kerak o‘z chobuki qotilvashi majnunshiorimkim,
Buzug‘ ko‘nglumdin o‘zga yerda javloni samand etmas.

Ko‘ngul uz charxi zolidin firibin yemakim, oxir
Ajaj sarishtasidin o‘zga bo‘ynungg‘a kamand etmas.

Ul oy o‘tlug‘ yuzin ochsa Navoiy tegmasun, deb ko‘z
Muhabbat tuxmidin o‘zga ul o‘t uzra sipand etmas.

G‘azalning birinchi baytini o‘qituvchi tahlil qilib beradi: “G‘azal hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Birinchi baytning mazmuni: Men xohlagan odam meni o‘zining suhbatini uchun aziz inson hisoblamaydi. Men bilan gaplashmoqchi bo‘lgan odamning suhbatiga esa men ishtiyoqmand emasman. “Arjumand” so‘zi “aziz, hurmatli” ma’nosini bildiradi. Bu baytdan shunday xulosa chiqarish ham mumkin: Ma’naviy darajasi mendan yuqori bo‘lgan inson bilan suhbatlashgim keladi, lekin mendan bilimi, ma’naviyati past bo‘lgan insonning fikrlarini pisand qilmayman.” Ikkinchi baytni ham o‘qituvchi tahlil qilib beradi: “Bayt mazmuni: Mendan bahra(qoniqish, rohatlanish) kutgan odamdan men qanday

bahra olishim mumkin? Men bahra olishni xohlagan odam esa, o‘z ne’matidan meni bahramand qilmaydi. Baytda “bahra”, “bahraye”, “bahramand” so‘zlari yordamida ishtiyoq san’ati qo‘llangan.” So‘ngra o‘qituvchi o‘quvchidan baytga xulosa berishini so‘raydi hamda misralarni xulosalashda, fikrlarini jamlashda bevosita o‘quvchiga yordam ko‘rsatadi. Keyingi baytlar izoh va tahlillarida asta-sekinlik bilan o‘quvchining rolini kuchaytirib borish kerak. Shunda g‘azalning oxirgi baytlariga kelganda, o‘quvchilar o‘z fikrini erkin bildirib, misralarni izohlab, she’riy san’atlarni topa oladi. Misralardagi fikrlardan xulosalar chiqara oladigan darajaga keladi.

11-sinf adabiyot darsligiga “Xamsa”ning hajman eng yirik dostoni “Saddi Iskandariy”dan parchalar kiritilgan. Ularda Iskandar va Mallu haqidagi voqealar, yoshlikdagi aqli va kuchining qadriga yetmagan, otasining hayotidan kerakli xulosaga kelmagan yigit haqidagi hikoyat, Arastuning Iskandarga nasihati va “Saddi Iskandariy”dagi hikmatlar keltirilgan. Maktabni bitirib, mustaqil hayotga qadam qo‘yuvchi o‘quvchilar uchun bu nasihatlar katta ahamiyatga ega bo‘lishi shubhasiz. Ushbu sinf darsligiga ham o‘zimiz nisbatan qiyin deb hisoblagan so‘zlarning lug‘atini tuzib chiqdik va ilova qismiga joylashtirdik.

14-jadval

Alisher Navoiy haqidagi asarlarning o‘qitilishi

Sinf	Darslik	Muallif	Mavzu	Soat
1	“O‘qish”	T.G‘afforova, E.Shodmonova, G.Eshturdiyeva	“Non isi” (Rivoyat)	1
2	“O‘qish”	T.G‘afforova, Sh.Nurullayeva, Z.Mirzahakimova	“Tandir” (Rivoyat)	1
			Zamira Ibrohimova “Kichkina Alisher”	
			Xurshid Davron “Alisher Navoiy”	1
			Abdulla Oripov “Alisherning onasi”	1

3	“O‘qish”	M.Umarova, X.Hamroqulova, R.Tojiboyeva	Abduqodir Hayitmetov “Donolarning donosi”	2
4	“O‘qish”	S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G‘ulomova, Sh.Sariyeva, Z.Dolimov	Oybek “Alisherning yoshligi”	2
			“Yaxshidan bog‘ qoladi” (Rivoyat)	1
5	“Adabiyot”	S.Ahmedov, B.Qosimov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev	Mirkarim Osim hayoti. “Zulmat ichra nur” qissasidan parcha	3
9	“Adabiyot”	Q.Yo‘ldoshev, V.Qodirov, J.Yo‘ldoshbekov	Oybek hayoti va ijodi. “Navoiy” romani	4

Alisher Navoiy haqidagi asarlarning maktab dasturlariga kiritilishi 1-sinfдан boshlangan. 1-sinf “O‘qish” darsligiga “Non isi” rivoyati kiritilgan. Unda dunyodagi xushbo‘y narsaning nimaligini bilolmay boshlari qotgan vazirlarga Alisher Navoiy saroyga issiq non olib borishni maslahat beradi. Husayn Boyqaro ham do‘stiga minnatdorchilik bildiradi. Bu matn boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun juda o‘rinli tanlangan deb hisoblaymiz. Chunki Alisher Navoiy top qir, hushyor, dono inson sifatida tasvirlangan. Husayn Boyqaro ham uni sodiq do‘st deb yaxshi munosabatda bo‘ladi. Rivoyat bolalar uchun ibrat vazifasini o‘tay oladi.

2-sinf “O‘qish” darsligida Alisher Navoiy haqida hikoya qiluvchi asarlar anchagina. Avvalo, “El desa Navoiyni” to‘plamidan “Tandir” rivoyati kiritilgan. Bu juda mashhur rivoyatlardan biri. Alisher Navoiy uyini sotmoqchi bo‘lgan yigitni tandir qurish bahonasi bilan o‘z fikridan qaytaradi. Rivoyat bolalarni mehnatsevarlikka, o‘z uyini asrab-avaylashga o‘rgatadi.

Zamira Ibrohimovanning “Kichkina Alisher” hikoyasida Alisherning uxlab qolib, karvondan qolib ketgani va otlarning iziga qarab yo‘lni topib kelgani voqeasi keltirilgan.

Sevimli shoirimiz Xurshid Davronning “Alisher Navoiy” she’ri ham darslikka kiritilgan. She’rning soʻzlari sodda, vazni yengil, yodlashga oson. Masalan, she’rning ikkinchi bandini keltirish bilan fikrimizni isbotlaymiz:

Mir Alisher Navoiy –
Gʻazal mulkin sultoni.
Yaxshilikka chorlaydi
Uning she’r-u dostoni.⁷⁷

Yuqoridagilardan tashqari, sevimli shoirimiz, “Oʻzbekiston Qahramoni” Abdulla Oripovning “Alisherning onasi” she’ri ham darslikdan joy olgan. She’rning soʻzlari soddaligi, yodlash osonligi bilan birga, shoirning ham Alisher Navoiyga, ham onaga hurmati aks etgan.

3-sinf “Oʻqish” kitobida navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetovning “Donolarning donosi” deb nomlangan matni berilgan. Olimimiz Alisher Navoiy hikmatli soʻzlariga jiddiy eʼtibor qaratganlar. “Tilga ixtiyorsiz – elga eʼtiborsiz”, “Bilmaganni soʻrab oʻrgangan olim...”⁷⁸ sitatalari aynan keltirilgan boʻlsa, “Harf oʻrgatgan oʻqituvchingni hurmat qilib, haqini uzmoqchi boʻlsang, xazinalardagi barcha oltinlar bilan ham uzolmaysan” fikrlari durdona misralarning izohi hisoblanadi. Matndan soʻng oʻquvchilarni mustaqil fikrlarini bayon etishlari uchun savol va topshiriqlar ham berilgan. Bu holatda ular qimmatli fikrlarni yodda saqlab qoladilar.

4-sinf darsligiga sevimli adibimiz Oybekning “Alisherning yoshligi” qissasidan parcha kiritilgan. Bola Alisherning ota-onasi, tengdosh oʻrtoqlari bilan munosabatlari aks etgan. “Ov qilmoq, merganlik – ermak narsa, lekin eng zoʻr zaruriyat maktabdir. Turmushning koʻp sirlarini maktab oʻrgatadi”, “Olim odam xor

⁷⁷ Gʻafforova T. va boshqalar. Oʻqish. Darslik. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 2-sinf oʻquvchilari uchun. – Toshkent: Sharq, 2018. – 102-6.

⁷⁸ Umarova M. va boshqalar. Oʻqish. Darslik. Umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 3-sinf oʻquvchilari uchun. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2019. – 122-6.

bo‘lmaydi”⁷⁹ fikrlarining Alisher tilidan aytilishi ham uning timsolini o‘quvchilar nazarida odobli va aqlli bola darajasiga ko‘tara oladi. Bundan tashqari, parchada Alisher bilan kiyik o‘rtasidagi iliqlik ham ta’sirli tarzda berilgan. Uning mehribonligini sezgan kiyik unga erkalanib suykaladi. Bu o‘quvchilarni tabiatni asrashga, hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilishga undaydi.

“El desa Navoiyni” to‘plamidan yana bir rivoyat – “Yaxshidan bog‘ qoladi” xalq orasida juda ommalashgan. Kelajak avlodni o‘ylab bog‘ barpo etayotgan shoirning hozirjavobligini qadrdoni va hukmdor Husayn Boyqaro munosib baholaydi. Matndan keyin berilgan savol va topshiriqlar orqali o‘quvchilar muzokaraga kirishadilar va o‘z fikrlarini bayon qiladilar.

5-sinf adabiyot darsligida tarixiy asarlar ustasi Mirkarim Osimning “Zulmat ichra nur” asaridan parchalar berilgan. Bu xalqimizning har bir vakiliga yaxshi tanish bo‘lgan asar. Biz bu asardagi ma’lumotlarga asoslanib, Alisher Navoiy haqida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lganmiz. Asar bizning Navoiy haqidagi tasavvurlarimizni shakllantirgan. Alisherning bolalik payti, yosh bo‘lishiga qaramasdan, Qosim Anvorning murakkab mazmunli misralarini izohlagani, Sharafiddin Ali Yazdiyning duolari, maktab ta’limining boshlanishi, “Mantiq ut-tayr”ga bo‘lgan muhabbat va boshqa voqealar juda jonli va ta’sirchan qilib tasvirlangan. Asar tili ham murakkab emas. Shu sababli asardan parchalarni uyda mustaqil o‘qish uchun vazifa sifatida o‘quvchilarga berish mumkin. Navoiy davri haqida tushunchaga ega bo‘lishlari uchun ushbu asar asosida sahna ko‘rinishlari qo‘yish ham mumkin. O‘quvchilar sahna rekvizitlarini ham, qahramonlar kiyimlarini ham jon-dili bilan topib kelishadi, so‘zlarni ham puxta yod olishadi. Shunda Navoiyning yoshligi haqida tasavvurga ega bo‘ladilar va shu timsol kabi bo‘lish uchun intiladilar. Tarixiy asarning tili sodda bo‘lsa ham, ba’zi bir so‘zlar,

⁷⁹ S.Matchonov va boshqalar. O‘qish. Darslik. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinf o‘quvchilari uchun. – Toshkent: Yangiyo‘l poligraf servis, 2020. – 32-6.

nazarimizda, o‘quvchilar uchun biroz qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, murakkab so‘zlar lug‘atini ilmiy ishimiz ilovasida keltirib o‘tamiz.

Yuqorida keltirilgan so‘zlarning va darslikdagi izohlangan so‘zlarning ma’nosini bilib olgan o‘quvchilarga asardagi voqealar ta’siri kuchliroq bo‘ladi. Lug‘at boyligi oshgan o‘quvchilar o‘z nutqida ushbu so‘zlardan faol foydalanadi va unda o‘z mustaqil fikrini erkin bayon qilish ko‘nikmasi shakllanib boradi.

O‘rta umumta’lim maktablarining 9-sinf “Adabiyot” darsligiga Oybekning “Navoiy” romanidan parcha kiritilgan. Avval bu mavzu akademik litseylarning 3-bosqichida o‘tilgan edi. Bu asarning o‘rta maktabda o‘rganilishi o‘quvchilarning bilim olishi jarayoniga qay darajada ta’sir etishi haqida o‘z fikrlarimizni bayon qilmoqchimiz:

1. O‘quvchilarning Alisher Navoiy shaxsi haqidagi fikrlari kengayadi.

Romanda Alisher Navoiy timsoli juda keng tasvirlangan. Ulug‘ shoirimizning har xil hayotiy sharoitda qanday yo‘l tutganliklari haqida voqealar o‘quvchi ongida bobokalonimiz haqidagi ma’lumotlarni kengaytiradi. Shu o‘rinda yana bir mulohaza: “Navoiy” romani o‘rganilayotgan paytda o‘quvchilarga mustaqil ravishda Alisher Navoiyning portretini xayolan tasvirlovchi matnlar tuzish vazifasini berish lozim deb hisoblaymiz. Bu matnlarni “Alisher Navoiy – mening tasavvurimda”, “Navoiy – barkamol inson” yoki “Men uchun ideal inson” deb nomlash mumkin.

2. Ko‘plab tarixiy shaxslar haqida ma’lumotga ega bo‘ladi.

Asarda Alisher Navoiy shaxsini atroflicha tasvirlash maqsadida tarixiy shaxslar va to‘qima obrazlardan foydalanilgan. Bizningcha, o‘qituvchi romandagi tarixiy shaxslar va to‘qima obrazlar haqida o‘quvchilarga kerakli ma’lumotlarni berishi shart. Bunda Xondamirning “Makorim ul-axloq”, Boburning “Boburnoma” asarlaridan foydalanish mumkin.

Parchada ba’zi qahramonlarning tashqi ko‘rinishi va fe’l-atvori berilgan. O‘quvchilarga ularning ismlari va xususiyatlarini jadvalga joylashtirish vazifasini berish mumkin:

“Navoiy” romanidagi ba’zi qahramonlar tavsifi

Qahramon nomi	O‘ziga xos xususiyati
Alisher Navoiy	U sokin, kamtarin, muomalada nozik, lekin ulug‘ sifat; butun olimlar uning jamiki ilmlarda juda chuqur ekaniga qoyil bo‘lsalar, har yerda tasdiqlasalar ham, Navoiy ilm sohasida ko‘proq o‘z nuqsonlaridan gapiradi. U har kimning fikrini sabr va diqqat bilan tinglaydi.
Sultonmurod	Navoiyning yordami bilan moddiy ahvoli yaxshilanib, endi ilm dunyosida ancha tanilgan.
Nizomulmulk	Har vaqt yasanib-tusanib, tovsday tovlanib yuradigan, sersavlat, ayyor.
Mavlono Shahobiddin	Xuroson olimlari orasida ilmdan eng benasibi, lekin eng mutakabbiri. U ilm dunyosiga yolg‘iz shallaqilik bilan kirgan.
Islim barlos	Chorpaxil, beso‘naqay. Hamisha jangda o‘zini arslonsifat tutadi.
Husayn Boyqaro	Shoirlik, ilmparvarlik sifatlariga ega, harbiy san’atni durust biluvchi.
Mirzo Yodgor	Erka o‘sgan, ziynatli hayotning lazzatiga, may, musiqiy olamining yoqimli, orombaxsh hislariga berilgan yigitcha. U turkman sultoni Hasanbekdan katta ko‘mak oladi.
Muhammad Sayyid	Saroy pahlavonlarining eng zo‘ri va mohiri. U keng yag‘rinli, quloq ko‘krakli, butun dov jussasidan quvvat barq urardi. Husayn Boyqaro unga “Pahlavoni olam” laqabini bergan.
Shayx Bahlul	Ancha tahsil ko‘rgan, har vaqt mutavoze, yuvosh tabiatli, kamtarin yigit.
Bobo Xokiy	Mashhur darvesh, g‘orda yashaydi, ibodat bilan mashg‘ul. Husayn Boyqaro uning avliyoligiga ishonganidan undan duo olmoqchi bo‘ladi. U sakson yoshlarga yetgan, chillakday oriq, ingichka va yelkasi turtib chiqqan.

Yuqoridagi jadvalni turli ko‘rinishlarda, ba’zi kataklarini bo‘sh holda o‘quvchilarga tarqatib, to‘ldirishni vazifa qilib bersak, o‘quvchilarda matn ustida ishlash ko‘nikmasi paydo bo‘ladi.

3. O‘sha davr ijtimoiy hayoti haqida ma’lumotga ega bo‘lishadi. Romanda, asosan tarixiy voqealar tasvirlangan. Temuriyzodalar o‘rtasidagi ziddiyatlar, she’rxonlik majlislari, oddiy xalq hayotidagi muammolar o‘quvchida qiziqish uyg‘otadi. Ayrim voqealar yuzasidan sinfdagi o‘quvchilar orasida bahs-munozara uyushtirish mumkin. Masalan, kimnidir jazolashni taklif qilishganda, Alisher Navoiy unga tanbeh berishni ma’qul deb hisoblaydi va o‘zi bu ishni amalga oshiradi.

4. Til boyligi oshadi, Navoiy davri adabiy tilining o‘ziga xos jihatlari bilan tanishadi.

“Navoiy” romanining tili o‘ziga xos. Oybek o‘sha davr muhitini aks ettirish maqsadida Navoiy yashagan vaqtda ishlatilgan so‘zlardan faol foydalangan.

Quyidagi so‘zlarning izohlari berilgan:

Rusumoti jang – jang rusumlari, jang usullari

Burong‘or – qo‘shinning o‘ng tomoni

Jurong‘or – qo‘shinning so‘l tomoni

G‘o‘l – qo‘shinning o‘rta qismi

E’timodli – ishonchli

Hakimi hoziq – mohir, usta tabib

Kordon – ish biladigan

Sohibi tadbir – tadbir egasi, tadbirli

Dorulxalofat – poytaxt

Barq – chaqmoq

Xirgoh – chodir

Tarabxona – bazm qilinadigan joy

Gushtgirlik – kurash

Daqoyiq – nozik ma’nolar

Munoqasha – janjal, tortishuv

Chize – jinday, ozgina

Manqal – ko‘chma o‘choq, sandal

Biz yuqorida keltirilgan lug‘atni o‘quvchilar uchun yetarli emas deb hisoblaymiz. O‘quvchilar lug‘at boyligini oshirish maqsadida, biz qo‘shimcha lug‘at tuzdik va ishimizga ilova qildik.

Yuqoridagi so‘zlarning izohi, asosan, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan olingan. O‘quvchilarga bu so‘zlarning ma’nolarini lug‘atdan topish, matn mazmunidan mantiqiy fikrlab topish, ulardan so‘z birikmalari va gaplar tuzish vazifalarini berish mumkin.

5. O‘quvchilarning badiiy adabiyotga muhabbati ortadi. Romandan parchani o‘qigan bolalarning ozgina qismi bo‘lsa-da, asarning to‘liq variantini topib o‘qishi mumkin. Agar o‘qituvchi bunga erisha olsa, adabiyot darslari besamar ketmagan hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy shaxsiyati tahlilida Oybekning “Navoiy” romani juda muhim o‘rin tutadi. Bu mumtoz asar yillar, asrlar osha buyuk zot haqida hikoya qilaveradi.

O‘rta umumta’lim maktablari dasturiga kiritilgan Alisher Navoiy hayoti haqidagi asarlarni ko‘rib chiqqan holda, shunday mulohaza bildirmoqchimiz: har bir sinf o‘quvchilarining yoshiga mos ravishda Alisher Navoiy haqidagi badiiy asarlardan namunalarni mustaqil o‘qishlari uchun(sinfdan tashqari o‘qish) tavsiya qilish mumkin. Biz ana shu tavsiyalarimizni jadval ko‘rinishiga keltirdik:

16-jadval

Sinfdan tashqari o‘qish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar

T/r	Sinf	Muallif	Asar nomi	Izoh
1	5	Lidiya Bat	“Hayot bo‘stoni” qissasi	Qissa “Bolalik yillari”, “Yigitlik chog‘lari”, “Kamolot”, “Keksalikning o‘git-nasihatlari” qismlariga bo‘lingan. Alisher Navoiyning bolalik chog‘laridan vafotiga qadar bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga olgan.
2	5	Oybek	“Alisherning bolaligi” qissasi	Alisherning to‘rt yoshligidan Iroqqa borib yashab, qaytgan paytigacha bo‘lgan voqealar hikoya qilinadi.

3	6	rivoyatlar to'plami	"El desa Navoiyni"	Alisher Navoiy haqidagi xalq orasida mashhur bo'lgan rivoyatlar keltirilgan. "Alisher va bulbul", "Bosh va til", "Sharafli burch", "Yaxshidan bog' qoladi" kabi rivoyatlar katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.
4	7	Erkin Vohidov	G'azallari va Alisher Navoiy haqidagi she'rlari	"Alisher Navoiy kemasi", "O'zbek Navoiyni o'qimay qo'ysa" she'rlari, Alisher Navoiy g'azallariga muxammaslari – "Ayriliq oni yaqindur...", "Ko'z ochar gulshanda..." hamda shoirning g'azal janrida yozgan she'rlari mustaqil o'qish uchun beriladi.
5	7	Abdulla Oripov	Alisher Navoiy haqidagi she'rlari	"Alisher", "Alisherning onasi", "Navoiy ko'chasi", "Alisher Navoiy monolog so'zi", "Navoiy", "Alisher va talaba" she'rlari, Alisher Navoiy g'azaliga yozgan muxammasini o'qish uchun tavsiya qilish mumkin.
6	8	Uyg'un va Izzat Sulton	"Navoiy" dramasi	Bu drama darsliklar rejasiga kiritilmagan bo'lsa ham, uni sahnalashtirish an'anasi ko'plab ta'lim muassasalarida bor. Asar matni ham sodda bo'lgani uchun o'quvchilar yaxshi qabul qiladilar.
7	8	Muhammad Yusuf, Xurshid Davron, Sirojiddin Sayyid, Nodir Jonuzoq va b.	Alisher Navoiy haqidagi she'rlar	"Navoiy", "Alisher Navoiy", "Mir Alisher", "Navoiyni o'qish" kabi she'rlarda Alisher Navoiy shaxsiyatiga zamonaviy qarashlar bor. O'quvchilar ham so'zlar izohida qiynalishmaydi.
8	9	Erkin A'zamov	"Navoiyni o'qigan bolalar" hikoyasi	Alisher Navoiy ijodiga chuqur hurmat bilan munosabatda bo'ladigan Janobiddin Sayfiddinov hikoyaning markaziy qahramoni. Navoiy g'azallari bilan "Bahru bayt" o'tkazilgani sahnasi juda ta'sirli. Hikoyaning radioinsseniroykasi ham bor.
9	9	Isajon Sulton	"Alisher Navoiy" romani	Alisher Navoiy shaxsi haqida yaratilgan eng yangi roman. 9-sinf dasturiga Oybekning "Navoiy" romani kiritilgani sababli o'quvchilar ikkala romanni bir-biriga qiyoslashi mumkin.
10	10	Isajon Sulton	"Avvalgilarga o'xshamas" qissasi	Omon Matjonning Alisher Navoiy g'azaliga bog'lagan muxammasi sevimli hofizimiz Sherali Jo'rayev tomonidan

				kuylangan. Qissa shu qo‘shiq ohangida yozilgan. Alisher Navoiy ijodiga cheksiz hurmat va muhabbatdan tashqari, qishloq hayotining og‘riqli muammolari berilgan.
11	10	Abdulla A‘zamov	“Dugohi Husayniy”(dramaversiya), “O‘z-o‘zini izlagan va topgan odam”dramalari	“Dugohi Husayniy” dramasida Alisher tog‘asi Mirsaidning qizi Guli bilan unashtirilgan bo‘ladi. Abu Said mirzo buyrug‘i bilan Mirsaid Kobuliy qatl etiladi, Guli esa otasining xunini oladi va shahid bo‘ladi. “O‘z-o‘zini izlagan va topgan odam” dramasida Navoiyning vazir sifatida xalqqa bo‘lgan e‘tibori ko‘rsatilgan. Saroy a‘yonlari fitnasi tufayli amalidan iste’fo bergani, Xoja Abdulloh Ansoriy mozorining faxriy jorubkashi bo‘lganligi haqida hikoya qilinadi. (Bu dramalardan parchalarni sahnalashtirish ham yaxshi natija beradi)
12	11	Chustiy, Jamol Kamol, Omon Matjon, Muhammad Ali, Bobur Bobomurod va b.	Alisher Navoiy g‘azallariga muxammaslar	Zamonaviy shoirlarimizning ko‘pchiligi aruz vaznida ham ijod qilmoqdalar. Ayniqsa, Alisher Navoiy g‘azallariga bog‘lagan muxammaslari diqqatga sazovordir. Jadvalda nomlari keltirilmagan boshqa ijodkorlarimiz (masalan, Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid) muxammaslarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘lardi.
13	11	Xotiralar	“Alisher Navoiy zamondoshlari xotirasida”	To‘plamga Alisher Navoiyni bevosita ko‘rgan, hamsuhbat bo‘lgan zamondosh ziyolilarining xotiralari kiritilgan.

IKKINCHI BOB YUZASIDAN XULOSALAR

1. Yozuvchining tarjimayi holini o‘rganish uning qarashlarini bilishga, shaxsiyati, fe‘l-atvori va taqdirining o‘ziga xosligini ko‘rishga yordam beradi. Har bir adabiy asar uning muallifi shaxsini aks ettiradi, muallifning pozitsiyasini ifodalaydi. Bu maktab o‘quvchilarini badiiy matnni obyektiv tushunishga olib borishga xizmat qiladi.

2. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” didaktik asari mazmuni va g‘oyasini o‘zlashtirish umumiy o‘rta ta’lim maktablari 6-sinf o‘quvchilari uchun murakkablik tug‘diradi. Chunki bu asar donishmand insonning hayoti shomida o‘z

umridan orttirgan xulosalaridan iborat. “Sab’al sayyor” dostoni tarkibiga kiruvchi “Mehr va Suhayl” hikoyatining ham adabiyot darsligiga kiritilgan ayrim boblari mazmuni izohlanmagan, ya’ni nasriy bayon qilinmagan. Bu holat adabiyot fani o’qituvchilari uchun ham, 7-sinf o’quvchilari uchun ham hikoyat g’oyasini tushunishda biroz qiyinchilik tug’dirishi tabiiy hol.

3. O’quv dasturi bo’yicha Alisher Navoiy g’azallari 10-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan. “G’azal mulking sultoni” atamasi o’quvchilarga boshlang’ich sinf vaqtidan boshlab uqtiriladi, lekin g’azallar 10-sinfga kelib yodlatiladi. Bola 5–6 yoshlarida Qur’on oyatlarini, hadislarini yod oladi. Shuning uchun o’quvchiga quyi sinflardan ruboiy, fardlar qatori g’azal namunalarini ham yod oldirish lozim. Tushunish keyingi jarayon hisoblanadi.

4. Navoiy hayoti va ijodini o’rganish mazmunini Blum taksonomiyasi asosida takomillashtirish o’qish va o’zlashtirish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

5. Bugungi kun o’quvchisining faolligini oshirish, adabiyotga, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodiga jalb etish uchun innovatsion yondashuvga asoslangan ekstraaktiv (o’qituvchi faol bo’lgan), interaktiv (o’quvchi va o’qituvchi roli teng hamda o’quvchining mustaqil tashqi faoliyatiga asoslangan) metodlar samara beradi.

III BOB. ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINI ZAMONAVIY YONDASHUV ASOSIDA O‘QITISH SAMARADORLIGI

3.1-§. Tajriba-sinov va uning natijalari

Ta’lim tizimining umumiy o‘rta ta’lim bosqichida o‘quvchilarni adabiyot o‘quv predmeti asosida mustaqil ishlashga, mumtoz asarlarni tushuna olishga, xususan, Alisher Navoiy ijodini anglash ko‘nikmalarini shakllantirish bugungi ta’lim oldida asosiy vazifa sifatida turibdi. Zero, o‘quvchilarni ma’rifatli, bir so‘z bilan aytganda barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda Navoiy asarlarining o‘rniga alohida ahamiyat berilishi talab etilmoqda. Bu jarayonda yosh avlodning jamiyat rivojiga mos bilim, ko‘nikma va malakalar sohibi bo‘lishi muhimligini ta’kidlash lozim. Jumladan, umumta’lim maktablarining 5–9-sinf o‘quvchilarida adabiyot fani, xususan, Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘qitishni o‘quvchining intellektual qobiliyatlarini hisobga olgan holda sinflar kesimida janrlarni kichikdan kattaga qarab berib borishda soddadan murakkabga tomon borish qoidasiga amal qilish yaxshi samara berishini sinab ko‘rish mazkur tadqiqotning mazmuni va maqsadini tashkil etadi. Uni amalga oshirish adabiy ta’lim oldiga zamonaviy pedagogik texnologiyadan foydalanish, innovatsion loyihalar yaratish muammosini ham qo‘ymoqda. Shu jihatdan olib qaraganda, umumiy o‘rta ta’lim yo‘nalishida tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan muhim masalalar tizimida o‘quvchilarda mumtoz badiiy materiallar asosida mustaqil fikrlash, ijodiy mushohada qilish, shaxsiy fikrini muayyan nutq sharoitiga muvofiq holda ravon va ta’sirli ifodalash malakasini shakllantirish hamda takomillashtirishning samara beruvchi pedagogik tizimini ishlab chiqish, uni tatbiq etishning yangi metodik yondashuvlarini joriy etish va amaliyotda sinab ko‘rish muhim pedagogik muammodir.

Mazkur tajriba-sinov ilmiy tadqiqotning eng sarmahsul usuli bo'lib, u kuzatishlar jarayonida tug'ilgan g'oya, taqdim etilgan tavsiya va ishlab chiqilgan o'quv topshiriqlarining samaradorlik darajasini belgilab beradi.

Tajriba-sinov ishlarining asosiy maqsadi ham 5–9-sinf o'quvchilarida adabiyot o'quv predmeti, xususan, Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'qitishni o'quvchining intellektual qobiliyatlarini hisobga olgan holda sinflar kesimida janrlarni kichikdan kattaga qarab berib borishda soddadan murakkabga tomon borish qoidasiga amal qilgan holda matnni o'qib tushuna olish ko'nikmasini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini o'rganish va mazkur jarayonga zamonaviy usullarni tatbiq etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdir.

Tajriba jarayonida 5–9-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan darslik materiallarini o'zlashtirish bo'yicha ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari aniqlandi va bu jarayonda ona tili o'quv predmeti o'qituvchilarning Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'qitishni o'quvchining intellektual qobiliyatlarini hisobga olgan holda sinflar kesimida janrlarni kichikdan kattaga qarab berib borishda soddadan murakkabga tomon borish qoidasiga amal qiluvchi savol va topshiriqlarga bo'lgan qiziqishlari, shuningdek, bilim darajalari aniqlandi. Yana quyidagilar ham ma'lum bo'ldi:

- 5–9-sinf o'quvchilarining Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqidagi bilimlari aniqlandi;

- o'qituvchilarning Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'qitishda darslik va boshqa ko'rgazmali vositalardan foydalanishdagi yutuq va kamchiliklar aniqlandi;

- noan'anaviy, qiziq hamda ijodiy izlanishga asoslangan matn tahliliga doir topshiriqlarga maktab o'quvchilarining munosabatini aniqlashtirish hamda fikrlarini umumlashtirish ishlarini amalga oshirish maqsadida anketa so'roq-javoblari o'tkazildi;

- ta'kidlovchi tajriba-sinov ishida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish shakl, usul va vositalari aniqlanib, 5–9-sinflarda qiziqarli, noan'anaviy ijodiy

izlanishga asoslangan mumtoz matnlarni tahlil qila olishga doir topshiriqlar asosida o‘quvchilarda Alisher Navoiy ijodini anglash, tahlil qilib bera olish, o‘z munosabatini bayon qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqildi.

Umumta’lim maktablarining 5–9-sinf o‘quvchilarida adabiyot fani, xususan, Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘qitishni o‘quvchining intellektual qobiliyatlarini hisobga olgan holda sinflar kesimida janrlarni kichikdan kattaga qarab berib borishda soddadan murakkabga tomon borishga e’tibor qaratildi. Zero, sanab o‘tilganlarga nisbatan o‘quvchida ko‘nikma shakllantirish bugungi kundagi eng dolzarb va muhim pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Shuning uchun 5–9-sinf o‘quvchilarida adabiyot o‘qitish orqali Navoiy hayoti va ijodiga doir o‘quv materiallarini o‘rganish talab etiladi. Tajriba-sinov jarayonida foydalanilgan materiallar haqida ma’lumotni jadval ko‘rinishida keltirib o‘tamiz:

17-jadval

Tajriba-sinov jarayonida foydalanilgan ma’lumotlar

Sinov turi	Sinflar	Material
Ifodali o‘qish	5-sinf	Ruboiylar
	6-sinf	Qit’alar
	7-sinf	G‘azal
	8-sinf	G‘azal
	9-sinf	Dostondan parcha(masnaviy)
Adabiy janrlarni farqlash	5-sinf	She’riy maqol, ruboiy, zamonaviy she’r
	6-sinf	Ruboiy, qit’a, masal
	7-sinf	Hikmatli so‘zlar, g‘azal, qit’a
	8-sinf	G‘azal, tuyuq, dostondan parcha(masnaviy)
	9-sinf	Ruboiy, tuyuq, qit’a
Asar matnini tushuna olish	5-sinf	“Rost va yolg‘on” topshirig‘i bajarildi
	6-sinf	“Qissadan hissa” topshirig‘i bajarildi
	7-sinf	Nasriy bayoni berilmagan parchalarni izohlash vazifasi bajarildi
	8-sinf	“Betartib matn” topshirig‘i bajarildi

	9-sinf	“Muammoli topshiriq” metodi(doston haqida mustaqil fikrni talab qiluvchi savol va topshiriqlar berildi)
Lug‘at bilan ishlash	5-sinf	Ruboiy tarkibidagi so‘zlar “Mosini top” usuli orqali topildi
	6-sinf	Qit‘alardagi qiyin so‘zlar “Chala xat” metodi bilan izohlandi
	7-sinf	“Mehr va Suhayl” hikoyati qahramonlari portretidagi so‘zlar ma’nodoshlari bilan almashtirib, tahlil qilindi
	8-sinf	“Qilg‘il” radifli g‘azali matnidagi tushirib qoldirilgan so‘zlar “Tinglab tushunish” metodi orqali aniqlandi, izohlandi
	9-sinf	Shirinning Farhodga maktubi uchun 20ta so‘zli lug‘at tuzildi
Shoir hayoti	5-sinf	3ta javobli test
	6-sinf	“Bittasi ortiqcha” testi
	7-sinf	4ta javobli test
	8-sinf	Yopiq test
	9-sinf	Yopiq test
Asarni sharhlay olish	5-sinf	Ruboiyga xulosa keltirildi
	6-sinf	Qit‘aga xulosa keltirildi
	7-sinf	“Mehr va Suhayl” hikoyati qahramonlari xarakteriga baho berildi
	8-sinf	“Qilg‘il” radifli g‘azali sharhlandi
	9-sinf	Farhodning o‘ziga xos xususiyatlari ismiga bog‘lagan holda sharhlandi

Tajriba-sinov ishlari jarayonida quyidagi ilmiy faraz tekshirib ko‘rildi va o‘z isbotini topdi:

- umumiy o‘rta ta’lim tizimida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o‘qitishning o‘quvchilar yosh psixologiyasi, aqliy qobiliyati va qiziqishlariga mos holda tasniflash bo‘yicha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar samarali ekanligi asoslandi;

- umumiy o'rta ta'lim tizimida Alisher Navoiy asarlarini sinflar kesimida o'qitishda shoirning hayoti bilan bog'liq ma'lumotlarning ko'lami, chegarasi, turi va ahamiyati tushuntirib berildi va xronologik ma'lumotlarni qisqartirish mashg'ulot sifatini oshirishga xizmat qilishi dalillandi;
- umumiy o'rta ta'lim tizimida Alisher Navoiy asarlarini sinflar kesimida kichik hajmli janrlardan boshlab, soddadan murakkabga tomon borish orqali epik asarlargacha berishning optimal variantlari tanlandi va 5-sinfdan 9-sinfgacha o'quvchilar darajama-daraja tanlangan asarlarni osonroq o'zlashtirgani aniqlandi;
- umumiy o'rta ta'lim tizimida Alisher Navoiy ijodini o'qitishda shoir haqida yozilgan asarlardan foydalanish, o'quvchilarning mashg'ulotga nisbatan qiziqishlarini yanada orttirishi, mutafakkir haqidagi qarashlari yanada boyishi mumkinligi isbotlandi.

Umumta'lim maktablari adabiyot darslarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'qitishning bugungi holatini aniqlash maqsadida dastlab tajriba-sinov maydonchalari aniqlab olindi. Tajriba-sinov ishlari Toshkent shahri Yangiheyot tumanidagi 32-maktabda, Toshkent shahridagi 224-maktabda, Samarqand viloyati Tayloq tumanidagi 26-maktabda, Andijon tumanidagi 19-maktabda o'tkazildi.

Tajriba-sinovda jami 345 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Shundan 175 nafari sinov guruhiga, 170 nafari nazorat guruhiga olindi. Tajribaning dastlabki kunlarida nazorat sinflaridan ham, tajriba sinflaridan ham yozma ishlar olindi. Bizga ikkala guruhning ham darslarni o'zlashtirish darajasi deyarli bir xil ekanligi ma'lum bo'ldi. Toshkent shahri Yangiheyot tumanidagi 32-umumta'lim maktabida olib borilgan tajriba-sinov jarayonida o'quvchilarning matn bilan ishlash ko'nikmalari, lug'at boyligi borasida ilmiy tahlillar olib borildi.

Bizningcha, yosh avlodga ulug' bobokalonimiz haqida ma'lumot berishni maktab davridan ham avvalroq boshlashimiz kerak. Bu esa, bolaning tili to'liq chiqib, so'zlarning ma'nosiga qiziqqa boshlagan paytiga to'g'ri kelishi kerak. Agar

bola nutq zaxirasining rivojlanishi haqida soʻz ketsa, psixologlar shunday fikr bildirishgan: 2 yoshli bolaning nutq boyligi 250–400 soʻzdan iborat boʻlsa, 3 yoshli bolaning soʻz boyligi 1000–1200 soʻzgacha boʻlar ekan. 7 yoshli bolaning nutq zaxirasi esa 4000 soʻzga qadar borar ekan. Bu statistikadan xulosa qilish mumkinki, bogʻcha yoshiga, yaʼni 3 yoshga yetgan bola olam bilan yaqindan tanishish uchun ruhiy jihatdan yetiladi. 3–7 yoshli bolalarda xotira juda yaxshi rivojlangan boʻladi. Shu sababli koʻplab olimlarimiz bolalarga bogʻcha yoshidan Alisher Navoiy asarlaridan namunalar yodlatish kerakligi haqida fikr bildirgan edilar. Biz bu mulohazalarga qoʻshilgan holda, shoirimizning soʻzlari soddaroq tarzda ruboiylari va hikmatli soʻzlarini bolalarga yod oldirish eng samarali fikrlardan ekanligini taʼkidlamochimiz. Chunki bu xotirada saqlangan sheʼrlar keyinchalik maʼnosini chuqur tushunib olish uchun manba sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, bogʻcha yoshidagi davrda bolalarda xarakter xislatlarining namunalari shakllanib, axloqiy xarakterning asoslari yuzaga keladi. Ana shunday masʼuliyatli paytda yod olingan sheʼr va hikmatli soʻzning maʼnosini kattalardan soʻrab, tushunib olgan bola endi butun umr ularga amal qilishga harakat qiladi. Axir, “yoshlikda olingan bilim toshga oʻyilgan naqshdir” gaplari bejiz aytilmagan.

Oʻrta umumtaʼlim maktablarining barcha sinflarida Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida maʼlumot beriladi, asarlaridan namunalar keltiriladi. Har bir sinf darsligiga oʻsha sinf oʻquvchilarining yoshlariga moslab, Alisher Navoiy asarlari va u haqida hikoya qiluvchi asarlar kiritilgan. Alisher Navoiy lirikasidan tashqari “Xamsa”ning “Hayrat ul-abror”(5-sinf), “Farhod va Shirin”(9-sinf), “Sabʼai sayyor”(7-sinf), “Saddi Iskandariy”(11-sinf), “Mahbub ul-qulub” asarlaridan parchalar keltirilgan. “Layli va Majnun” dostonidan parcha kasb-hunar kollejlari rejasiga kiritilgan edi.

Hayotimiz davomida adabiyotga aloqador boʻlmagan soha vakillari, masalan, aniq fanlar, tibbiyot yoki huquqshunoslik boʻyicha mutaxassislarning Alisher Navoiy hayoti va ijodi haqida oʻz mustaqil fikrlarini bildirishlariga guvoh

bo‘lganmiz. Ularning ba‘zilari, hattoki, Navoiy asarlariga naziralar ham yozib ko‘rganlar. O‘quvchilik paytlarida Alisher Navoiy ijodiga bag‘ishlangan kechalarda faol ishtirok etishgan. Sahn ko‘rinishlarida ijro etgan she‘rlarini keyinchalik ham yoddan o‘qib bera oladilar.

